



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



JANGOVAR TAYYORGARLIK DARSLIK



TOSHKENT – 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



A.T.ALIJONOV, R.T.DJURABAYEV, J.Z.DJUMABOYEV, B.B.UMURZOQOV, N.Z.TASIMOV,
X.N.MUSLIMOV, L.Z.KOMILOV, B.A.ULUGBEKOV, F.F.XATAMOV, L.R.ISAYEV,
X.A.TURABBAYEV, X.M.AKRAMBAYEV, Q.Z.DJUMABOYEV, N.M.XOJIYEV

JANGOVAR TAYYORGARLIK

DARSLIK

TOSHKENT – 2024

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Ilmiy kengashida maqullangan*

**Mas’ul muharrir
O.T. Axmedov**

Mualliflar jamoasi:

A.T.Alijonov, R.T.Djurabayev, J.Z.Djumaboyev, B.B.Umurzoqov, N.Z.Tasimov,
X.N.Muslimov, L.Z.Komilov, B.A.Ulugbekov, F.F.Xatamov, L.R.Isayev,
X.A.Turabbayev, X.M.Akrambayev, Q.Z.Djumaboyev, N.M.Xojiyev

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi boshlig‘ining saf qismi bo‘yicha
o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik
Sh.A.Tadjimetov

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasи
professori yu.f.n., professor, podpolkovnik
J.S. Muxtorov

J-47 Jangovar tayyorgarlik: Darslik –T :: O‘zbekiston Respublikasi IIV
Malaka oshirish instituti, 2024. – 196 b.

“Jangovar tayyorgarlik” darsligining O‘zbekiston Respublikasi Qurollи
Kuchlari Umumharbiy Nizomlari tarkibiga kiruvchi Ichki tartib, Intizom, Garnizon
va qorovullik xizmatlari va Saf Nizomlari hamda harbiy topografiya modulini o‘z
ichiga qamrab olgan. Ushbu darslik paragraflarida Ichki tartib, Intizom, Garnizon
va qorovullik xizmatlari va Saf Nizomlarining umumiyligini qoidalari, harbiy
xizmatchilar va ichki ishlari idoralari xodimlarining huquqlari, majburiyatlar,
javobgarliklari hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari, rag‘batlantirish va
intizomiyligini jazolarning turlari hamda ularni qo‘llash bo‘yicha komandir
(boshliq)larning huquqlari, qorovullik va patrullik xizmatlarini o‘tash tartibi,
quroksiz bajariladigan saf amallari va harakatlari, harbiycha salom berish tartibi,
harbiy xizmatchilarning safga turishdan oldingi va safdagi majburiyatlar,
shuningdek xududda xaritasiz orientir olish bo‘yicha yetarli ma’lumotlar berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV IIV Malaka Oshirish institutida tahsil oladigan
tinglovchilar uchun mo‘ljallangan.

UDK 355 (0,75.9)

© O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2024.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach turli sohalarda islohotlar amalga oshirila boshladi. Buning natijasida O‘zbekiston Respublikasi barcha sohalar bo‘yicha misli ko‘rilmagan taraqqiyot bosqichiga kirdi.

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson xuquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlari nomli ma’ruzalar kursi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligining 2021 yil 27 avgusdagи “Ichki ishlar organlarida o‘quv-karera jarayoni tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi 310-son buyrug‘i asosida Malaka oshirish instituda ichki ishlar organlari uchun safdor, serjant va ofitserlar tarkibi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda zarur manba sifatida muhim ahamiyatga ega.

Ma’ruzalar kursi mazmuni oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari asosida tinglovchilarni konstitutsiyaviy tuzum, huquqtartibot va jamoat xavfsizligini saqlash hamda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini vijdonan himoya qilishga qodir bo‘lgan yuksak madaniyatli, ijtimoiy faol, halol, intizomli xodimlarni tarbiyalash, yuksak darajadagi vatanparvarlik, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda rahbarlik (yetakchilik) xislatlarini shakillantirish, kundalik xizmat faoliyatida mohirona boshqaruvini ta’minlash, ichki ishlar organlar xodimlarini umumiyluquqlarini, majburiyatirini va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, ichki tartib qoidalarini, qorovul va patrullik xizmatlarini o‘tash tartibini, intizomning mohiyatini va unga rioya qilish bo‘yicha majburiyatlarini, rag‘batlantirish va intizomiy ta’zirlarning ko‘rinishlarini, rahbarlar tomonidan ularni qo‘llash bo‘yicha huquqlari, shuningdek qurolsiz bajariladigan saf amallari va harakatlari, harbiycha salom berish tartibi, harbiy xizmatchilarning safga turishdan oldingi va safdagi majburiyatlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan, Malaka oshirish instituti tinglovchilari o‘z professional, nazariy va amaliy bilimlarini real sharoitlarda uzlucksiz oshirib borishi davomida zarur bo‘ladigan tajriba va ko‘nikmalarni shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlari asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

I-BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI JANGOVAR TAYYORGARLIGINING ASOSI

1-§. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari” fanining vazifasi

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari” fani Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining umumiyligi huquqlari, majburiyatlar, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, brigada mansabdar shaxslarining asosiy majburiyatlar, ichki tartib qoidalari, harbiy intizomning mohiyati, harbiy xizmatchilarning unga rioya qilish bo‘yicha majburiyatlar, rag‘batlantirish va intizomiy ta’zirlarning ko‘rinishlari, komandirlarning (boshliqlarning) ularni qo‘llash bo‘yicha huquqlari, taklif, ariza va shikoyatlar berish, ularni ko‘rib chiqish tartiblari, garnizon va qorovullik xizmatlarini tashkil qilish va o‘tash, ushbu xizmatni o‘tayotgan garnizon mansabdar shaxslari va harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlar, qo‘sishlar ishtirokida garnizon tadbirlarini o‘tkazish tartiblarini o‘z ichiga oladi. Fanning asosiy vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlarining komponentlari hisoblangan “Ichki xizmat nizomi”, “Intizom nizomi”, “Garnizon va qorovullik xizmatlari nizomi”dagi mavjud ilm hamda tartibotlarni tinglovchilarga yetkazish orqali ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlanterish hisoblanadi.

2-§. “Saf tayyorgarligi” fanining vazifasi

“Saf tayyorgarligi” fani qurol bilan va qurolsiz bajariladigan amal va harakatlar ijrosi, piyoda va mashinalarda saf tortish tartibi, harbiycha salom berish tartibi, harbiy qism Jangovar Bayrog‘ining safdagi holati, uni olib chiqish va eltid qo‘yish tartibi, harbiy xizmatchilarining safga turishidan oldingi va safdagi majburiyatlari hamda ularning saf tayyorgarligiga oid talablarni belgilab beruvchi asosiy manba hisoblangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf nizomi”da mavjud ilm hamda tartibotlarni o‘z ichiga oladi. “Saf tayyorgarligi” fanining asosiy vazifasi tinglovchilarining fan bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi.

3-§. “Harbiy topografiya” fanining vazifasi

Harbiy topografiya – bu maxsus harbiy fan hisoblanib, harbiy qo‘mondonlar va mutaxassislarni geografik va topografik ma’lumotlardan foydalanishni o‘rgatadi. Harbiy topografiya harbiy operatsiyalarini rejalashtirish, boshqarish va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yer yuzasining shakllari, rel’ef xususiyatlari, masofa va yo‘nalishlarni aniqlash, xaritalarni tushunish va ulardan foydalanish kabi masalalarni o‘rganadi. Harbiy topografiya orqali tinglovchilar o‘z harakatlarini samarali tashkil etish, dushman kuchlarining joylashuvini to‘g‘ri baholash va stretegik qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Harbiy topografiya fanining asosiy vazifasi – bu harbiy harakatlar va operatsiyalar uchun zarur bo‘lgan geografik va topografik ma’lumotlarni taqdim etish va bu ma’lumotlardan samarali foydalanishni o‘rgatishdir. Bu asosan, qo‘sishlarning joylashuvi, harakatlanishi, dushman pozitsiyasini aniqlash va jangovar operatsiyalarini rejalashtirish uchun hududning rel’efi yer yuzasining shakllari, yo‘nalishlar, masofa va boshqa geografik xususiyatlarni to‘g‘ri baholashni o‘z ichiga oladi.

4-§. Ta’lim shakllari

Ta’lim oluvchilar Umuharbiy nizom, saf elementlari, harbiy topografiya bo‘yicha bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga o‘quv xonalaridagi mashg‘ulotlar, saf maydonidagi o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil tayyorgarlik soatlari va ta’limning boshqa predmetlari bo‘yicha mashg‘ulotlardagi ish jarayonida ega bo‘ladilar hamda ularni takomillashtirib boradilar.

O‘quv xonalaridagi mashg‘ulotlarda, odatda, Umumharbiy nizomga doir nazariy ilmlar, saf va uning boshqarilishidagi mavjud tushunchalar, harbiy topografiyaning asosiy tarkibiy qismlari, xususan, xarita bilan hamda xaritasiz orientir olish, xarita bilan ishslash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘rganiladi. Saf tayyorgarligi bilan bog‘liq amallar saf maydonida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi.

Keyinchalik ta’lim oluvchilar ushbu fanlarga oid bilim, mahorat va ko‘nikmalarini mustaqil tayyorgarlik soatlarida takomillashtirib boradilar.

Fanlar bilan bog‘liq ma’ruza mashg‘ulotlarida o‘qituvchi tomonidan ilm hamda tartibotlar yuzasida keng qamrovli ma’lumotlar yetkazib boriladi. Seminar mashg‘ulotlarida esa ma’ruza mashg‘ulotida yetkazilgan ilmlar tinglovchining ongida mustahkamlanadi. Amaliy mashg‘ulot mobaynida o‘qituvchi tomonidan bo‘linmalarni boshqarish ko‘nikmalarini takomillashtiriladi, tinglovchilar tomonidan belgilangan vazifalarni yakka tartibda va guruh tarkibida bajarilish sifati hamda ularning ko‘nikmalarini rivojlantiriladi va avtomatizm darajasiga yetkaziladi.

Mustaqil tayyorgarlik soatlarida tinglovchilar, odatda, Umumharbiy nizomlar hamda harbiy topografiya fanlarida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish hamda ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda olingan yangi bilimlarni takrorlash orqali o‘zlarining bilimva ko‘nikmalarini rivojlantirishlar mumkin. Shuningdek, “Saf tayyorgarligi” fanidan o‘z xatti-harakatlarini yanada takomillashtirishlar uchun mustaqil tayyorgarlik soatlari saf maydonida ham tashkillashtiriladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari”, “Saf tayyorgarligi”, “Harbiy topografiya” fanlari o‘zaro chambarchas bog‘liqligini inobatga olgan holda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, fanlarda keltiriladigan ilmlarni

kompleks holda o‘rganish jangovar tayyorgarlik yo‘nalishiga oid ilmlarni yaxlit tasavvur etish imkoniyatini yaratadi.

5-§. Ta’lim prinsiplari

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari”, “Saf tayyorgarligi”, “Harbiy topografiya” fanlari ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibini o‘qitish va tarbiyalashga oid quyidagi umumiylar prinsiplar asosida o‘tkaziladi: ilmiylik; ta’lim oluvchilarning ongliligi va faolligi; muntazamlilik va izchillik; ko‘rgazmalilik, tushunarlilik; bilim, o‘quv va ko‘nikmalarning mustahkamligi; jamoaviylik va yakka tartibda yondashish.

Ta’limdagagi *ilmiylik* ta’lim oluvchilarga beriladigan bilimlarning aniqligini, fan qonuniyatlarining ob’ektivlik xarakterini, fanning zamonaviy ma’lumotlariga mos bo‘lishini hamda bildiradi. Shunga erishish lozimki, tinglovchilar nafaqat berilayotgan nazariy bilimni o‘rganishlari, balki ushbu bilimlardan xizmat faoliyatida mohirona qo‘llay olish ularning eng birinchi burchi ekanligini aniq tushunib olishlari kerak. Bunda ta’lim va tarbiya chambarchas bog‘liq holda, kompleks tarzda olib borilishi lozim.

Ta’lim oluvchilarning *ongliligi va faolligi* ularning o‘rganilayotgan materialni anglangan holda o‘zlashtirishlari hamda mashg‘ulotga ijodiy yondashib, faol bo‘lishlarida namoyon bo‘ladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari”, “Saf tayyorgarligi”, “Harbiy topografiya” fanlari tinglovchilar o‘z oldida turgan vazifalarni tushunadigan, ularni o‘z vaqtida bajarishga intiladigan, mashg‘ulotlarda faol harakat qiladigan, tashabbus ko‘rsatadigan, o‘quv materialini har tomonlama o‘ylab ko‘radigan, ta’lim jarayonida oladigan bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni o‘zlashtirib olish zarurligini tushunadigan, o‘zlashtirgan bilim, o‘quv va ko‘nikmalarini ijodiy qo‘llaydigan, o‘z harakatlarining natijalarini tanqidiy tahlil qiladigan etib tashkil qilinishi va o‘tkazilishi zarur.

Ta’limdagagi *muntazamlilik* va *izchillik* ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar butun o‘quv kursi mobaynida bir tekis o‘tkazilishi, o‘rganilayotgan material esa muayyan ketma-ketlikda tizimli bayon etilishida namoyon bo‘ladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari ”, “Saf tayyorgarligi”, “Harbiy topografiya” fanlariga oid mashg‘ulotlarni rejalashtirishda fanlarda taalluqli bo‘lgan qonuniyatlar va qoidalarni o‘rganish ularni amalda bajarish bilan, yangi materiallar o‘tilgan mavzular bilan chambarchas bog‘lanishi bog‘lanishi lozim.

O‘qituvchi fanlar bilan bog‘liq mashg‘ulotlarni tashkillashtirishda materiallarni bayon etishning eng to‘g‘ri ketma-ketligini belgilay olishi lozim.

Ta’limdagi *ko‘rgazmalilik* o‘quv materialini tushunishni osonlashtiradi va uning yaxshiroq o‘zlashtirilishiga imkon beradi. Eng yaxshi *ko‘rgazmali* vosita Institut hududining nizom talablariga asosan jihozlanganligi, o‘qituvchi tomonidan saf amallarining shaxsan amaliy *ko‘rsatilishi*, kompas, topografik xaritalarning o‘rganiluvchi namunalari (ya’ni, tabiiy *ko‘rgazmalilik*)dir. Biroq ba’zan ularning maketlari, plakatlar, chizmalar va boshqa grafik hujjatlar, shuningdek, multimedia taqdimotlaridan ham foydalanish zarur bo‘ladi. Ular yordamida fanlar bilan bog‘liq ilmlarni yaxshiroq yetkazish mumkin.

Ta’limdagi *tushunararlilik* o‘rganilayotgan savollar hajmi va mazmuni ta’lim oluvchilarning ushbu toifasi o‘zlashtira oladigan bo‘lishini talab etadi. Ta’lim olish jarayonida tushunararlilik prinsipi ma’lumdan noma’lumga, soddadan murakkabga, osondan qiyinga o‘tishni talab qiladi. Materialni bayon etish chuqurligini aniqlashda uni o‘zlashtirish uchun ajratiladigan vaqtidan hamda o‘rganilgan materialni mustahkamlash imkoniyatidan kelib chiqish zarur. Mashg‘ulotlarda amaliy harakatlarga qaraganda ortiqcha nazariy tushuntirishlarning *ko‘pligi*, ta’lim oluvchilar uchun tushunarsiz formula va terminlarning ishlatalishi mashg‘ulotlarga qiziqishni, ta’lim oluvchilarning faolligini va umuman mashg‘ulotlar sifatini pasaytiradi.

Bilim, o‘quv va ko‘nikmalarning mustahkamligi ilgari o‘rganilgan material (usul, harakat) mustahkam o‘zlashtirilishi va uzoq vaqt yodda qolishi, muntazam takrorlab turilishini, egallangan bilimlar esa takomillashtirib borilishi hamda yangi, murakkabroq sharoitlarda qo‘llanishini nazarda tutadi. O‘rganilgan materialning xotirada saqlanishi *ko‘p jihatdan* ta’lim oluvchilar ushbu bilimlarning amaliy

ahamiyatini tushunishiga bog‘liq. Bilim, o‘quv va ko‘nikmalarining mustahkamligi prinsipi amalga oshishida ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ijodi va qiziquvchanligini har tomonlama rag‘batlantirish katta ahamiyatga ega.

Ta’limdagi *jamoaviylik* va *yakka tartibda yondashish* ta’lim davomida barcha xodimlarning muvaffaqiyatlari ishlashlari uchun qulay sharoit yaratish va ayni vaqtida ularning har biriga individual yondashishdan iborat. Jamoaviylik harakatlarda uyg‘unlik, bir-birini almashtira olish, muvofiqlik va aniqlikniga ta’minlaydi. Jipslashgan jamoada uning har bir a’zosi boshqalarining tajribasidan foydalangan holda o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, xizmatdoshlarining yordamiga ishongan holda ancha ishonch bilan harakat qiladi, ularning maslahat, istak va tanqidlariga javoban o‘z harakatlarini ancha tanqidiy baholaydi. Rahbarlar umumiy sa’y-harakatlarni jangovar tayyorgarlik vazifalarini muvaffaqiyatlari bajarishga qaratishlari, umumiy manfaatlarni shakllantirishlari, sog‘lom musobaqa va o‘zaro yordam ruhini rivojlantirishlari kerak.

Individual yondashuvni amalga oshirish – har bir xodimning ta’lim jarayonidagi ma’naviy va jismoniy imkoniyatlarini yaxshi bilish va ularga har bir xodimning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta’sir ko‘rsatish, ularning har biriga bilim, o‘quv va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishning eng qisqa yo‘lini topishlarida ko‘maklashish demakdir. Yetkazilgan ilmni tushunish ko‘rsatkichlarining pastligi ko‘pincha rahbar ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos jihatlarini aniqlamaganligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim jarayonida individual xususiyatlarni, har bir ta’lim oluvchining shaxsiy xislatlari va moyilliklarini bilish va inobatga olish – rahbarning burchi.

6-§. Ta’lim metodlari

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari”, “Saf tayyorgarligi”, “Harbiy topografiya” fanlarida, odatda, ta’limning quyidagi metodlari qo‘llaniladi: aytib berish, tushuntirish, ko‘rsatish, mashq qildirish, mustaqil ishslash. Ta’lim metodining tanlanishi mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va mazmuniga hamda ta’lim oluvchilarining tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Har bir mashg‘ulotda bir qancha metod qo‘llanishi mumkin. Masalan, saf harakatlarini o‘rgatishda ko‘rsatish, tushuntirish va mashq qildirish metodi qo‘llanishi mumkin.

Aytib berish o‘rganilayotgan materialni qisqacha hikoya tarzida bayon etishdir. U Umumharbiy nizomlardagi ilm hamda tartibotlar, saf tayyorgarligidagi mavjud tushunchalar hamda harbiy topografiyaning nazariy masalalarini o‘rganishda ishlatiladi.

Tushuntirish – o‘rganilayotgan hodisalar, jarayonlar, harakatlarning mohiyatini bayon etish. Bu Umumharbiy nizomlar, saf tayyorgarligi, harbiy topografiyaga oid barcha mavzularni o‘qitishda nazariy bilimlam hamda bajariladigan harakatlarni ko‘rsatish bilan uyg‘un holda qo‘llaniladi. Tushuntirishda materialni aniq-ravshan bayon etish, xulosa va ta’riflarni qat’iy ifodalash lozim.

Ko‘rsatish ta’limning eng qulay metodi hisoblanadi. Bunda ta’lim oluvchilar nimani o‘rganish lozimligini ko‘rgazmali holda ko‘rib turadilar. Saf tayyorgarligi bo‘yicha amaliy mashg‘ulot vaqtida yoki “Harbiy topografiya” fani bo‘yicha xaritalar bilan ishslashdagi qilinadigan namunaviy harakatlar o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilishi lozim. Namunaviy harakatlar dastlab yaxlit holda zarur sur’atda (tezlikda), so‘ngra sekinlashtirilgan sur’atda elementlarga bo‘lib hamda har bir harakat va ta’lim oluvchilar ushbu usulni o‘rganishda yo‘l qo‘yadigan, ko‘p uchraydigan xatolarni qisqacha tushuntirgan holda ko‘rsatiladi. Muhimi – ko‘rsatilayotgan narsa (usul, harakat) ta’lim oluvchilarga yaxshi ko‘rinib turishi hisoblanadi.

Mashq – o‘rganilayotgan harakatlarni ko‘p marta, maqsadga yo‘naltirilgan holda va ongli ravishda takrorlash orqali ta’lim oluvchilarda zarur o‘quv va ko‘nikmalar hosil qilinadigan hamda takomillashtiriladigan ta’lim usuli. Saf

tayyorgarligi hamda harbiy topografiya bo‘yicha mashqlar individual va guruh tarkibidagi turlarga bo‘linishi mumkin. Individual mashqlar ta’lim oluvchilarda alohida bir xodim uchun zarur bo‘ladigan o‘quv va ko‘nikmalarni hosil qilish uchun qo‘llaniladi. Ularga xos jihat shundan iboratki, ayrim ta’lim oluvchilar o‘qituvchi boshchiligida yoki uning topshirig‘iga ko‘ra mustaqil ravishda ayni bir harakatlarni bajaradilar (masalan, saf amallari yoki topografik xaritalar bilan ishslash). Guruhiy mashqlar ta’lim oluvchilarni uyg‘unlashtirish uchun jamoa bo‘lib harakat qilish, o‘quv va ko‘nikmalarini hosil qilish maqsadida qo‘llaniladi. Ularga xos jihat shundaki, har bir ta’lim oluvchi harakatlarni o‘z mutaxassisligi yoki ushbu mashg‘ulotda vaqtincha egallab turgan lavozimiga muvofiq ravishda bajaradi. Masalan, saf tayyorgarligi mashg‘ulotlarida guruhni boshqarish, bo‘linmani saf qo‘shig‘i bilan olib yurish va topografik xarita bilan ishslashda turli lavozimlarda tinglovchilar faoliyatini tashkil etish va hokazo.

Mustaqil ish – tinglovchilar o‘qituvchinng bevosa ishtirokisiz ilgari egallagan bilim, o‘quv va ko‘nikmalarini mustahkamlaydigan yoki yo‘riqnomalar, plakatlar, chizmalar, maketlar, o‘quv quroli va boshqa qo‘llanmalardan foydalangan holda yangi bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni egallaydigan usul.

II.BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI UMUMHARBIY NIZOMLARI TALABLARI

1-§. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi Harbiy xizmatchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Ichki xizmat nizomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan.

Ushbu Nizom Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining umumiyligi huquqlari va majburiyatlarini va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, brigada mansabdor shaxslarining asosiy majburiyatlarini, shuningdek, ichki tartib qoidalarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismlarining, shtablarining, boshqarmalarining, muassasalarining, korxonalarining, tashkilotlaring va harbiy bilim yurtlarining barcha harbiy xizmatchilarini ichki xizmat Nizomiga amal qiladilar.

Nizom qoidalari, shu jumladan brigada mansabdor shaxslarining majburiyatlari ham barcha harbiy qismi va bo'linmalarning harbiy xizmatchilariga teng darajada taalluqlidir. Mansabdor shaxslarning Nizomda zikr etilmagan majburiyatlarini tegishli qoidalar, qo'llanma va dasturilamallar bilan belgilanadi.

Nizomning tatbiqi chegara qo'shinlari va Davlat xavfsizlik xizmati qo'shinlari, Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlari, O'zbekiston Respublikasi boshqa tegishli vazirliklari va idoralarining harbiy xizmatchilariga ham joriy etiladi.

Urush davridagi dala sharoitlarida va tinchlik davridagi harbiy xizmatchilarini jangdagi amallarga o'rgatish bo'yicha o'quvlarda va mashg'ulotlarda ichki xizmat jangovar nizomlar, jangovar harakatlarni ta'minlash bo'yicha qo'llanmalar, shuningdek mazkur Nizom bilan belgilanadi.

Umumiy qoidalar

Harbiy xizmat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariing umumiy harbiy majburiyatlarni va shartnoma asosida Qurolli Kuchlarda va O‘zbekiston Respublikasining boshqa harbiy tuzilmalarida xizmatni bajarish bo‘yicha davlat xizmatining alohida turidir.

Har bir harbiy xizmatchiga tegishli harbiy unvon beriladi, u o‘z navbatida qo‘singa va kemaga oid bo‘ladi.

Harbiy xizmatchilar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan huquqlar va erkinliklardan harbiy xizmat shart-sharoitlari belgilaydigan cheklovlar bilan va amaldagi qonunlarni hisobga olish bilan foydalanadilar. Ularning zimmasiga konstitutsiyaviy, boshqa umumfuqaro majburiyatları, shuningdek, umumiy mansab va maxsus majburiyatlar yuklanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq harbiy hizmatchilarning huquqlari, maburiyatları va javobgarliklarining mundarijasi va hajmi harbiy xizmat majburiyatlarini ijro etayotganligiga yoxud etmayotganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Harbiy xizmatlarning harbiy xizmat majburiyatlarini ijro etishi deganda:

- jangovar harakatlarda ishtirok etish, xizmat majburiyatlarini ijro etish, jangovar navbatchilikni (jangovar xizmatni) o‘tash;
- kun tartibi bilan belgilangan xizmat vaqtı davomida yohud bu xizmat zaruriyatidan kelib chiqqan bo‘lsa, harbiy qism hududida bo‘lish;
- xizmat safarida yohud davolanishda bo‘lish; xizmat joyiga, davolanishga yohud aksincha qarab yo‘l bosish;
- harbiy yig‘inlarda ishtirok etish; asirga tushish (o‘z ixtiyori bilan asir tushishdan tashqari), garovga olingan yohud haydar ketilgan ahvolida bo‘lish;
- bedarak ketish – harbiy xizmatchi daraksiz yoqolgan deb tan olinganiga yohud amaldagi qonunlarga muvofiq vaffot etgan deb elon qilinganiga qadar;
- shaxs hayoti, sog‘ligi, or-nomusi va qadr qimmatini himoya qilish;
- huquqni muhofaza qilish organlariga yordam ko‘rsatish, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta’minlash;

- harbiy xizmatchilarning sud tomonidan jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida sodir etilgan deb tan olingan boshqa xatti harakatlar tushiniladi.

Zarur bo‘lib qolgan paytlarda harbiy hizmatchi komandirning (boshliqning) buyrug‘iga ko‘ra istalgan vaqtida harbiy xizmat majburiyatlarini ijro etishga kirishishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar harbiy xizmat majburiyatlarini ijro etish vaqtida davlat hokimyatining vakillari va davlat muhofazasida turgan deb sanalanadi.

Harbiy xizmatchilarning huquqlari

Harbiy xizmatchilarining huquqlari va ulardan harbiy xizmatning xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Biror kishi harbiy xizmatchilarni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlangan huquqlardan cheklash huquqiga ega emas.

Harbiy xizmatchilarning o‘z huquqlaridan foydalanishi jamiyatning, davlatning huquqlariga va qonuniy manfaatlariga, harbiy xizmatga, boshqa harbiy xizmatchilar va turli fuqarolarning huquqlariga putur yetkazmasligi lozim.

Davlat harbiy xizmatchilarning ijtimoiy va huquqiy mohofazasini kafolatlaydi, ularga yetarli va munosib turmush darajasini yaratish, xizmat va maishiy sharoitini yaxshilash boyicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Harbiy xizmatchilarning huquqlarini ta’minlash va qo‘riqlash davlat hokimiysi va mahaliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining, sudlarning, huquqni muhofaza qilish organlarining, harbiy boshqaruv organlari va komandirlarning (boshliqlarning) zimmasiga yuklanadi.

Harbiy xizmatchi Harbiy qasamyodni qabul qilgunga qadar harbiy lavozimga tayinlanishi, jangovar topshiriqlarni bajarishga (jangovar harakatlarda ishtirok etishga, jangovar navbatchilikka, jangovar xizmatga, qorovullik xizmatini o‘tashga) jalb etilishi, qurol-aslaha va harbiy texnika biriktirilishi mumkin emas.

Harbiy xizmatchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlaridan foydalanishi bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslikda aybdor bo‘lgan komandirlar (boshliqlar) buning uchun qonunlarda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Harbiy xizmachilar harbiy xizmat majburiyatlarini ijro etish chog‘ida, zarur bo‘lgan hollarda esa xizmatdan tashqari vaqtda ham qurol saqlash, olib yurish, qo‘llash va foydalanish huquqiga egadirlar.

Harbiy xizmatchilarning qurol saqlash qoidalari va qo‘llash tartibi Nizom bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar:

- agar boshqacha yo‘llar va vositalar bilan muhofaza qilish mumkin bo‘lmasa, qo‘riqlanadigan harbiy va davlat inshoatlariga, shuningdek, harbiy qism va bo‘linmalar qarorgohlariga, harbiy qism imoratlari va inshoatlariga, harbiy eshalonga, mashinalar kalonnalariga, yakka transport vositalariga va qorovulga to‘da bo‘lib yohud qurolli hujumni qaytarish uchun;
- agar boshqacha yo‘llar va vositalar bilan muhofaza qilish mumkin bo‘lmasa, qurol va harbiy texnikani zo‘ravonlik bilan egallahsha bo‘lgan urunishlarning oldini olish uchun;
- agar boshqacha yo‘llar va vositalar bilan muhofaza qilishning iloji bo‘lmasa, harbiy hizmatchilarni va fuqarolarni ularning hayotiga va sog‘lig‘iga tajavus qiladigan xujumlardan muhofaza qilish uchun;
- agar boshqacha yo‘llar va vositalar bilan qarshilikni bostirish, jinoyatchini ushslash yohud qurolni tortib olishning iloji bo‘lmasa, jinoyat sodir qilgan yohud og‘ir va xavfli jinoyat sodir qilish ustida qo‘lga yushganda qurolli qarshilik ko‘rsatgan shaxsni, shuningdek, qurolni topshirish to‘g‘risidagi qonuniy talabni bajarishdan boyin tovlagan qurollangan shaxsni ushslash uchun eng so‘ngi chora sifatida qurolni shaxsan yohud bo‘linma tarkibida qo‘llash huquqiga egadirlar.

Qorovul tarkibida harbiy xizmatchi qurolni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomida belgilangan hollarda va tartibda qo‘llash huquqiga egadir.

Komandir (boshliq), bundan tashqari, bo‘ysunuvchining bo‘yin tovlashi Vatanga hiyonat qilishga yohud jangovar sharoitlarda jangovar topshiriqlar bajarilishini barbod etishga qaratilgan ochiq-oydin xatti-harakatlarda namoyon bo‘lganda intizom va tartibni tiklash uchun qurol ishlatish yohud qurol ishlatishga buyruq berish huquqiga egadir.

Qurol ishlatishdan oldin uni ishlatish to‘g‘risida ogohlantirish zarur. Qurol to‘satdan yohud qurolli hujum chog‘ida, jangovar texnika, transport vositalari, uchish apparatlari, dengiz va daryo kemalaridan foydalanilgan hujum chog‘ida, qamoqdan qurol bilan yohud transport vositalaridan foydalanib qochish vaqtida, shuningdek transport vositalaridan ularning harakatlanishi chog‘ida, tunda yohud ko‘rinish cheklangan boshqa sharoitlarda tashlab qochish paytida ogohlantirishsiz qo‘llanilishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar trevoga yohud yordam chaqirig‘i signali berish, shuningdek, odamlar hayoti yoki sog‘ligiga tajovvus qiluvchi hayvonlarga qarshi qurol ishlatish huquqiga ega.

Qurol ishlatish va foydalanish chog‘ida harbiy xizmatchi atrofdagi fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash uchun iloji bo‘lgan barcha choralarни ko‘rishga, zarur hollarda esa jabrlanuvchilarga tez tibbiy yordam ko‘rsatishga majburdir.

Ayollar va balog‘at yoshiga yetmaganlarga nisbatan, agar boshqa yo‘llar va vositalar bilan bunday xujum yohud qarshilikni qaytarishning iloji bo‘lmasa, ularning xarbiy hizmatchi va boshqa fuqarolarning hayotiga xavf soluvchi qurolli xujumlari, qurolli qarshilik ko‘rsatishi yohud to‘da bo‘lib xujum qilishi hollari bundan mustasno, qurol ishlatish mumkin emas.

Harbiy xizmatchi har bir qurol ishlatilishi yohud foydalanishi to‘g‘risida komandirga (boshliqqa) bildiruv beradi.

Harbiy xizmatchilarning umumiyligi majburiyatları

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari xizmat faoliyatida qonunlar, harbiy nizomlarning talablariga amal qiladilar va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat tashkilotlari va birlashmalarning faoliyati bilan aloqador bo‘lmashklari lozim.

Harbiy xizmatchi quyidagilarga:

- harbiy qasamyodga sodiq qolishga, o‘z xalqiga fidoyilarcha xizmat qilishga, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi va hududiy butunligini matonat, mahorat bilan, o‘z so‘nggi tomchi qoni va hatto hayotini ayamasdan himoya qilishga, harbiy burchni bajarishga;

- o‘z davlati konstitutsiyasiga va qonunlariga qat’iy rivoja qilishga, harbiy nizomlarning talablarini bajarishga;

- O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish bo‘yicha vazifalarni bajarish bilan bog‘liq harbiy xizmat mashaqqatlariga sabot bilan chidashga;

- harbiy kasb bilimlarini muntazam egallashga, o‘z uquvi va askariy mahoratini takomillashtirishga;

- o‘ziga ishonib topshirilgan qurol-asлаha va harbiy texnikani bilish va ishlatishga doimiy shaylikda saqlashga, harbiy mulkni asrashga;

- halol, intizomli, jasur bo‘lishga, harbiy burchni ijro etish chog‘ida oqilona tashabbuslar ko‘rsatishga;

- komandirlarga (boshliqlarga) so‘zsiz bo‘ysunish va ularni jangda himoya qilishga, harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini qo‘riqlashga;

- askariy birodarlikni e’zozlashga, o‘z hayatini ayamasdan o‘rtoqlarini xavf-xatardan qutqarishga, ularga so‘z va ish bilan yordam berishga, har birining ornomusi va qadr-qimmatini hurmat qilishga, o‘ziga va boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘pollik va tahqirlashlarga yo‘l qo‘ymaslikka, ularni noloyiq qilmishlardan tiyib qolishga;

- askariy yurish-turish odobi qoidalariga rivoja qilishga va harbiycha salom berishni bajarishga, har doim rusum bo‘yicha, ozoda va saranjom kiyinishga majburdir.

Harbiy xizmatchi O‘zbekiston Respublikasi himoyachisi oliy unvonini shara bilan oqlashga, Kurolli Kuchlarning, o‘z harbiy qismining or-nomusi va jangovar shon-shuhratini va o‘z harbiy unvonining obro‘sini e’zozlashga majburdir.

Harbiy xizmatchi vatanparvarlik ko‘rsatishga, xalqlarning baynalmilal do‘stligini qadrlashga, millatlar va elatlar o‘rtasidagi birodarlikni mustahkamlashga imkon yaratishga majburdir.

Harbiy xizmatchilarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida ularning milliy tuyg‘ulariga, urf-odatlari va an’analariga hurmat ko‘rsatilishi lozim. Harbiy xizmatchilar bir-biriga hurmat ko‘rsatish, komandirlarga (boshliqlarga) va kattalarga tartib va intizomni saqlashda ko‘mak berishga majburdirlar.

Harbiy xizmatchi o‘ziga uning majburiyatlarini ijro etishiga ta’sir ko‘rsatgan barcha sodir bo‘lgan voqealar to‘g‘risida va unga berilgan tanbehtar haqida o‘zining bevosita boshlig‘iga bildiruv berishga majburdir.

Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning harbiy nizomlarda belgilangan qoidalari buzilganda, u zudlik bilan tartib o‘rnatish choralarini ko‘rishga va shuningdek, o‘zining bevosita boshlig‘iga bildiruv berishga majburdir.

Harbiy xizmatchi harbiy xizmat xavfsizligi talablariga, kasallanish, jarohat orttirish va kuyishdan ogohlantirish tadbirlariga rioya qilishi, har kuni jismoniy chiniqishi, zararli odatlardan (chekish va ichkilik ichishdan) tiyilishi lozim.

Xizmat masalalari yuzasidan harbiy xizmatchi o‘zining bevosita boshlig‘iga va uning ijozati bilan maqomi bo‘yicha navbatdagi boshliqqa murojaat qilishi lozim.

Shaxsiy masalalar yuzasidan ham harbiy xizmatchi o‘zining bevosita boshlig‘iga, o‘ta zarur hollarda esa katta boshliqqa murojaat qilishi kerak.

Taklif, ariza kiritayotganda va shikoyat berayotganda harbiy xizmatchi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomi qoidalariga amal qiladi.

Harbiy xizmatchi harbiy harakatlar yuritish, yaradorlar, bemorlar, kema halokatiga uchragan shaxslar va harbiy harakatlar mintaqasidagi aholi, shuningdek, harbiy asirlar bilan muomala qilishning xalqaro qoidalarini bilishga majburdir.

Harbiy xizmatchi jangovar harakatlar paytida, hatto o‘z harbiy qismidan (bo‘linmasidan) yiroq va to‘la qurshovda qolgan bo‘lsa ham, asirga tushishdan qutulmoq uchun dushmanqa ashaddiy qarshilik ko‘rsatishga majburdir. U jangda askarlik burchini ohirigacha bajarishga majbur.

Agar harbiy xizmatchi, qarshilik ko‘rsatishning barcha vositalari va yo‘llarini batamom ishga solib yoxud qarshilik ko‘rsatishga imkoniyati bo‘lmay qolib, asirga olingan bo‘lsa, o‘zini va o‘z o‘rtoqlarini asirdan ozod qilish va o‘z qo‘smini safiga qaytishning har qanday imkoniyatini izlashi va foydalanishi lozim. Dushman tomonidan asirga tushirilgan harbiy xizmatchi so‘roq paytida faqat o‘z familiyasi, ismi, otasining ismi, harbiy unvoni, tug‘ilgan sanasi va shaxsiy raqaminigina bildirish huquqiga egadir. U jangchi or-nomusini saqlab qolishga, harbiy va davlat sirini muqaddas tutishga, sabot va matonat ko‘rsatishga, asirlikka tushgan boshqa harbiy xizmatchilarga yordam berishga, ularni dushman bilan hamkorlik qilishdan to‘xtatib qolishga, dushmanning harbiy xizmatchidan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga zarar yetkazishda foydalanishga urinishlarini rad etishga majburdir.

Asir tushgan, shuningdek, uchinchi betaraf mamlakatda qurotsiz ushlab turilgan harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatchi maqomi saqlanadi. Harbiy qo‘mondonlik va davlatning shunga vakil qilingan boshqa organlari xalqaro huquq meyorlariga muvofiq ravishda zikr etib o‘tilgan harbiy xizmatchilarning huquqlari muhofazasi va ularni Vatanga qaytarish bo‘yicha chora tadbirlarni ko‘rishga majburirlar.

Harbiy xizmatchilar xulqi va xushmuomalaligi

Harbiy xizmatchilar har doim yuksak madaniyat, kamtarlik va bosiqlikning namunasi bo‘lib xizmat qilishi, askariy or-nomusni muqaddas saqlashi, o‘z qadr-qimmatini himoya etishi va o‘zgalarning qadr-qimmatini hurmat qilishi lozim.

Ular o‘zlarining xulqiga qarab, nafaqat ularning, qolaversa, butun Qurolli Kuchlarning or-nomusi to‘g‘risida xulosa chiqarishlarini yodda tutishlari shart.

Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar o‘zaro hurmat asosida quriladi. Ular xizmat masalalari yuzasidan bir-birlariga «Siz»lab murojaat etishlari lozim. Shaxsiy muomala chog‘ida harbiy unvon qo‘shin yoxud xizmat turini ko‘rsatmasdan aytildi.

Boshliqlar va kattalar xizmat yuzasidan bo‘ysunuvchilar va kichiklarga murojaat etayotganda, ularni harbiy unvoni va familyasi bo‘yicha yoxud faqat harbiy unvon bo‘yicha ataydi, chunonchi ohirgi holda harbiy unvondan oldin «o‘rtoq» kalimasi qo‘shib aytildi.

M a s a l a n: «**Oddiy askar G‘aniev (G‘anieva)**», «**O‘rtoq askar**», «**Serjant Azizov (Azizova)**», «**O‘rtoq serjant**», «**Michman Yunusov (Yunusova)**» va h. k.

Harbiy bilim yurtlarining serjantlar va starshinalar tarkibining, praporshchiklar va michmanlar harbiy unvonlariga ega bo‘lmagan kursantlarini, shuningdek, harbiy o‘quv qismi (bo‘linmasi) kursantlarini, ularga murojaat etgan paytda: «**Kursant Alimov**», «**O‘rtoq kursant**» tariqasida ataydilar.

Bo‘ysunuvchilar va kichiklar xizmat bo‘yicha boshliqlar va kattalarga murojaat etganda ularning harbiy unvoni oldiga «**O‘rtoq**» kalimasini qo‘shib ataydi.

M a s a l a n: «**O‘rtoq katta leytenant, O‘rtoq 1-darajali kapitan**».

Xizmatdan tashqari vaqtda va safdan tashqarida harbiy xizmatchilar ikki yoqlama ma’qulga ko‘ra bir-birlariga nafaqat harbiy unvonlari bo‘yicha, qolaversa, ism-sharifga ko‘ra, shuningdek, umum qabul qilingan hurmatlash tarzlari bo‘yicha murojaat etishlari mumkin.

Harbiy unvonlarni buzib aytish, taqiqlangan so‘zlarni, laqab va nomlarni ishlatalish, qo‘pollik va beodoblik harbiy or-nomus va harbiy xizmatchilar qadr-qimmatiga nomunosibdir.

Safdan tashqarida, buyruq berayotganda yoxud olayotganda, harbiy xizmatchilar qad rostlab turadilar, agar bosh kiyimda bo‘lsalar, unga qo‘lni qadaydilar va so‘ngra tushiradilar.

Bildiruv berar ekan yoxud qabul qilib olar ekan, harbiy xizmatchi bildiruv tugashi bilan qo‘lini bosh kiyimga qadovdan tushiradi. Agar bildiruvdan oldin «**Qaddingni rostla**» komandasini berilgan bo‘lsa, bildiruv beruvchi unda boshliqning «**Erkin tur**» komandasidan so‘ng uni takrorlaydi va qo‘lini bosh kiyimga qadovdan tushiradi.

Komandir (boshliq) yoxud katta ishtirokida boshqa harbiy xizmatchiga murojaat qilayotgan paytda undan bunga ruxsat so‘rash zarurdir.

M a s a l a n: «O‘rtoq polkovnik. Kapitan Tursunovga murojaat etishga ruxsat bering».

Jamoat joylarida, shuningdek, tramvayda, trolleybusda, avtobusda, metro va shaharoldi poezdlarining vagonlarida bo‘sh turgan o‘rinlar bo‘lmagan paytda harbiy xizmatchi boshliqqa (kattaga) o‘z o‘rnini taklif etishga majburdir.

Agar boshliqqa (kattaga) duch kelganda bemalol o‘tib ketish mumkin bo‘lmasa, unda bo‘ysunuvchi (kichik) unga yo‘l berishi va salom bergancha o‘tkazib yuborishi, boshliqqa (kattaga) yetib, uning yonidan o‘tib ketish zarur bo‘lib qolganda, bo‘ysunuvchi (kichik) bunga undan ijozat so‘rashi lozim.

Harbiy xizmatchilar noharbiy aholiga nisbatan odob qoidalariga rioya qilishlari, yoshi katta kishilarga, ayollar va bolalarga alohida e’tibor ko‘rsatishlari, fuqarolar or-nomusi va qadr-qimmatini muhofaza qilishga yordam berishlari, shuningdek, baxtsiz hodisalar, yong‘inlar va tabiiy ofatlar chog‘ida ularga madad ko‘rsatishlari lozim.

Harbiy xizmatchilarga qo‘lni kiyim-kechak cho‘ntaklariga tiqib yurish, boshliqning (kattaning) ishtirokida uning ruxsatisiz o‘tirish yoxud chekish, shuningdek, ko‘chada yurib ketayotganda va bu maqsad uchun ajratilmagan joylarda chekish man etiladi.

Hushyor turmush tarzi barcha harbiy xizmatchilarning kundalik yurish-turish me'yori bo'lishi lozim. Harbiy xizmatchilarning or-nomusi va qadr-qimmatini yerga uruvchi xizmatga mast holda kelish qo'pol intizomiy nojo'ya qilmish sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari uchun kiyim-kechak rusumining zarur turlari joriy etiladi. Harbiy kiyim-kechak rusumi va farqlovchi belgilar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Barcha harbiy xizmatchilar, shuningdek, zahirada turgan yoxud harbiy kiyim-kechak rusumini kiyib yurish huquqi bilan iste'foga chiqarilgan fuqarolar harbiy kiyim-kechak rusumini kiyib yurish huquqiga egadirlar.

Harbiy kiyim-kechak rusumi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri tasdiqlagan qoidalarga qatiy muvofiq ravishda kiyiladi.

Harbiy qism qarorgohidan tashqarida dam olishda, javob berilganda yoxud ta'tilda harbiy xizmatchilarga harbiy kiyimkechak rusumini kiyib yurmaslikka ruxsat beriladi.

Askariy xulq, yurish-turish qoidalari va harbiycha salom berishni bajarish, zahirada turgan va iste'foga chiqqan fuqarolar uchun ular harbiy kiyim-kechak rusumini kiyib yurgan paytda majburiydir. Ular harbiy kiyim-kechak rusumini kiyishning joriy qoidalariqa qat'iy rioya qilishlari lozim.

Harbiy xizmatchilarning lavozimi va maxsus majburiyatlar

Har bir harbiy xizmatchi egallagan lavozimiga binoan unga topshirilgan vakolatlar va vazifalar hajmini va amalda bajarish chegarasini belgilovchi lavozim majburiyatlariga ega bo'ladi. Lavozim majburiyatlaridan faqat xizmat manfaatlari yo'lida foydalaniladi.

Bu majburiyatlar harbiy nizomlar, shuningdek, mazkur Nizomning talablariga muvofiq keluvchi tegishli dasturilamallar, qo'llanmalar, qoidalar yo'l-riqnomalar yoxud bevosita boshliqlarning yozma buyruqlari bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar jangovar navbatchilikda (jangovar xizmatda), sutka va garnizon naryadida turganda, shuningdek, tabiiy ofatlar oqibatlarini tugatishga jalb etilganda va boshqa favqulodda holatlarda maxsus majburiyatlarni bajaradilar.

Bu majburiyatlar va ularni bajarish tartibi qonunchilik hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari va ular asosida ishlab chiqilgan boshqa huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar maxsus majburiatlarni ijro etish uchun qonunchilik hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari bilan belgilangan qo‘srimcha huquqlarga ega bo‘ladilar.

Vaqtning taqsimlanishi va kundalik tartib

Harbiy qismda vaqtning taqsimlanishi uning doimiy jangovar shayligi ta’milnadanigan va shaxsiy tarkib jangovar o‘quvini uyushgan holda o‘tkazish sharoitlari yaratiladigan, tartib, harbiy xizmatchilarning harbiy intizomi va tarbiyasi sakdanadigan, ularning madaniyat darajasi oshiriladigan, har tomonlama maishiy xizmat ko‘rsatiladigan, o‘z vaqtida hordiq va ovqat beriladigan darajada amalga oshiriladi.

Ofitserlar, praporshiklar, shartnoma asosida harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatchi-ayollarning haftalik xizmat vaqtining umumiyligi, odatda, qonunlarda belgilab qo‘yilgan ish vaqt davomiyligiga muvofiq kelishi lozim. Muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar xizmat vaqtining davomiyligi harbiy qismning kun tartibi bilan belgilanadi.

Harbiy xizmat majburiyatlarini ijro etishga dam olish va bayram kunlarida jalb etilgan ofitserlar, praporshik va shartnoma asosida harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga harbiy qism (bo‘linma) komandirining xizmat manfaatlari inobatga olingan qaroriga ko‘ra haftaning boshqa kunlari dam beriladi. Dam olish davomiyligi dam olish va bayram kunlarida xizmatda o‘tkazilgan vaqt dan oshmasligi shartdir.

Harbiy qismda sutka davomida, ba’zi qoidalarga ko‘ra hafta mobaynida vaqt taqsimoti kun tartibi va ichki xizmat reglamenti tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy qismning kun tartibi kundalik faoliyatining asosiy tadbirlarini, harbiy qism bo‘linmalari va shtabi shaxsiy tarkibining o‘quvi va turmushini vaqtga ko‘ra belgilab beradi.

Harbiy qism komandiri kun tartibini Qurolli Kuchlar turi va qo'shinlar turi, harbiy qism oldida turgan vazifalar, yil fasli, mahalliy va iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda belgilaydi. Ular ta'lim davri uchun ishlab chiqiladi va jangovar o'q otish mashqlari, dalaga olib chiqishlar, o'quvlar, manyovrlar o'tkazish, jangovar navbatchilikni (jangovar xizmatni) o'tash, sutkalik naryad, qorovullik xizmati va boshqa tadbirlarni o'tkazish chog'ida ularni bajarishning o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda harbiy qism (qo'shilma) komandiri tomonidan aniqlashtirilishi mumkin.

Harbiy qism kun tartibi sutkalik naryad hujjatlari orasida, shartnoma asosida harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar xizmat vaqtining reglamenti esa harbiy qism shtabi va rota kanselyariyasida turadi.

Kun tartibida tonggi jismoniy mashq, ertalabki va kechki hojat, ertalabki ko'rik, o'quv mashg'ulotlari va ularga tayyorlanish, maxsus (ishchi) kiyimini almashtirish, ovqat yeyishdan oldin poyabzal tozalash va qo'l yuvish, ovqat yeyish, quroq-aslaha va harbiy texnika qarovi, tarbiyaviy va ommaviy-sport ishlari, shaxsiy tarkibga axborot berish, radio tinglash va teledasturlarni tomosha qilish, xastalarni tibbiyot punktida qabul qilish, harbiy xizmatchilarning shaxsiy ehtiyojlari (kamida 1 soat), kechki sayr, yo'qlama va 8 soatlik uyqu uchun vaqt ko'zda tutilgan bo'lishi lozim.

Ovqat tanovullari o'rtasidagi oraliq 7 soatdan oshmasligi kerak. Tushlikdan so'ng yarim soat (30 minut) mobaynida mashg'ulotlar yoxud ishlar o'tkazilmasligi lozim. Yig'ilishlar, majlislar, shuningdek, spektakllar, kinofilmlar va boshqa jamoat tadbirlari soat 19.00 gacha tugatilishi lozim.

Kun tartibida, bundan tashqari, ofitserlar, praporshiklar, shartnoma asosida harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning xizmatga yetib kelishi va undan jo'nab ketish vaqt, ovqat tanovuli (tushlik) uchun tanaffus, mustaqil tayyorgarlik (haftada kamida 4 soat), mashg'ulotlar o'tkazishga kundalik tayyorgarlik uchun vaqt va jismoniy tayyorgarlik (umumiy davomiyligi haftada kamida 3 soat) uchun vaqt ko'zda tutiladi.

Sutkalik naryad tarkibiga kirmaydigan ofitserlar, praporshiklar va michmanlarning harbiy qism va bo‘linmalarda kecha-kunduz navbatchilik qilishi harbiy qism komandiri tomonidan faqat istisno hollarda joriy etilishi mumkin.

Brigadada har hafta qurol-aslaha, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalarga xizmat ko‘rsatish, parklar va o‘quv moddiy negizi inshootlarini jihozlashni tugallash va obodonlashtirish, harbiy shaharchani tartibga keltirish va boshqa ishlarni bajarish maqsadida park-xo‘jalik kuni o‘tkaziladi. Ayni shu kuni odatda barcha xonalarni yalpi yig‘ishtirish, shuningdek, shaxsiy tarkibni hammomda cho‘miltirish o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, qurol-aslaha va harbiy texnikani doimiy jangovar shaylikda saqlash maqsadida brigada butun shaxsiy tarkibini jalgan holda park kunlari o‘tkaziladi. Park-xo‘jalik va park kunlari brigada shtabining boshlig‘i brigada komandirining qurol-aslaha bo‘yicha o‘rribosari bilan hamkorlikda ishlab chiqqan va brigada komandiri tasdiqlagan rejalar bo‘yicha o‘tkaziladi. Rejalardan ko‘chirmalar bo‘linmalargacha yetkaziladi.

Park-xo‘jalik kunlarida, ishlarga, birinchi navbatda qurol-aslaha, harbiy texnika va o‘q-dorilarga xizmat ko‘rsatishga rahbarlik qilish uchun navbatchilik yo‘sinda ofitserlar va praporshiklarning eng kam miqdori tayinlanadi. Hafta davomida ularga dam olish kuni beriladi.

Yakshanba va bayram kunlari, jangovar navbatchilikni (jangovar xizmatni) va sutkalik naryadda xizmatni o‘tayotganlardan tashqari butun shaxsiy tarkib uchun dam olish kunlari sanaladi. Bu kunlarda, shuningdek, mashg‘ulotlardan bo‘sh vaqtarda shaxsiy tarkib bilan madaniy hordiq tadbirlari, sport musobaqalari va o‘yinlar o‘tkaziladi.

Dam olish kunlari arafasida muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar uchun konsertlarni, kinofilmarni va boshqa tadbirlarni odatdagidan 1 soat kech tugatishga, dam olish kunlarida uyg‘otishni odatdagidan kech, harbiy qism komandiri belgilagan soatda o‘tkazishga ruxsat beriladi.

Dam olish kunlarida ertalabki jismoniy mashq o‘tkazilmaydi.

O‘quv mashg‘ulotlari

Jangovar tayyorgarlik harbiy xizmatchilarning tinchlik davridagi kundalik faoliyatining asosiy mazmuni sanaladi. Harbiy xizmatchilarning zamonaviy jangdagi amallar uslublarini egallah maqsadidagi mashg‘ulotlari va o‘quvlari talabchanlik bo‘shashtirilmasdan va soddalashtirilmasdan o‘tkazilishi lozim.

O‘quv mashg‘ulotlarida va o‘quvlarda brigadaning butun shaxsiy tarkibi qatnashishi shart. Mashg‘ulotlardan faqat sutkalik naryadda va brigada bo‘yicha buyruqda ko‘zda tutilgan ishlar naryadida bo‘lgan shaxslar, shuningdek, bayram yoxud dam olish kunlari xizmatni o‘tagani uchun dam olish kuni berilgan harbiy xizmatchilargina ozod etiladilar.

Kasalligiga ko‘ra dala mashg‘ulotlaridan ozod qilingan askarlar va serjantlar bilan rota komandirining buyrug‘iga ko‘ra mashg‘ulotlar sinflarda tashkil etiladi.

Shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarlik bo‘yicha mashg‘ulotlarga ajratib qoldirgan komandirlar (boshliqlar) javobgarlikka tortiladilar.

Jangovar tayyorgarlik rejasи va mashg‘ulotlar jarayonida belgilangan tadbirlar faqat brigada komandiri tomonidan boshqa vaqtga ko‘chirilishi mumkin.

Mashg‘ulotlar kun ichki tartibida belgilangan soatda signal bo‘yicha boshlanadi va tugatiladi.

Mashg‘ulotlarga chiqishdan oddin bo‘lim komandirlari va vzvodlar komandirlarining o‘rinbosarlari bo‘ysunuvchilarning joy-joyidaligini tekshiradilar va rusum bo‘yicha kiyinganlarmi-yo‘qmi, anjom-asлаha to‘g‘ri moslanganmi-yo‘qmi va qurol o‘qlanganmi-yo‘qmi ko‘zdan kechiradilar.

Bo‘linma komandirlari mashg‘ulotlar tugashi bilan butun qurol-asлаha, harbiy texnika va o‘quv-mashq vositalarining, shuningdek, o‘qotar quollar va o‘qdorilarning joy-joyidaligi va butligini shaxsan tekshirishlari lozim. Quollar va magazinlar uchun g‘iloflarni bo‘lim komandirlari tekshiradilar. Tekshirish natijalari komanda bo‘yicha bildiriladi. Sarflanmagan o‘q-dori va gilzalar belgilangan tartibda topshiriladi.

Mashg‘ulotlar va o‘quvlar tugashi bilan quollar va qazuv quollarini tozalash, qurol-aslaha va harbiy texnikaga texnik xizmat ko‘rsatish hamda mashg‘ulotlar o‘tkazilgan joylarni yig‘ishtirish o‘tkaziladi.

Harbiy xizmatchilarning javobgarligi

Barcha harbiy xizmatchilar, ularning harbiy unvoni va mansabidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar va o‘zlarining huquqiy maqomlari xususiyatlarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan javobgarlikni zimmalariga oladilar.

Harbiy xizmatchilar harbiy intizom, axloq va askariy or-nomus me’yorlarini buzish bilan bog‘liq nojo‘ya qilmishlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomida belgilangan asosda va tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

Harbiy xizmatchilar Intizom Nizomiga ko‘ra ma’muriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortiladilar. Yo‘l harakatlari qoidalarini, ov qilish, baliq ovlash va baliq zaxiralarini muhofaza qilish qoidalarini, bojxona qoidalarini buzganliklari uchun bunday shaxslar umumiylasosda javobgarlikka tortiladilar. Ko‘rsatib o‘tilgan shaxslarga nisbatan ma’muriy qamoqqa olish, muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarga esa jarima solish choralari qo‘llanishi mumkin emas.

Harbiy xizmatchi fuqarolik qonunlarida ko‘zda tutilgan majburiyatlarni ijro etmaslik yoxud ko‘ngildagidek ijro etmaslik uchun qonunda ko‘zda tutilganidan boshqa hollarda ham davlatga, fuqarolarga yetkazilgan zarar uchun fuqarolik huquqiy javobgarligiga tortiladi.

Harbiy xizmatchilar harbiy xizmat majburiyatlarini ijro etish chog‘ida davlatga yetkazilgan moddiy zarar uchun harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risidagi qoidalarga muvofiq moddiy javobgarlikka tortiladilar.

Harbiy xizmatchilar sodir etilgan jinoyat uchun O‘zbekiston Respublikasining jinoyat Kodeksiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Harbiy xizmatchilar sodir etilgan huquqbuzarlik uchun, odatda, javobgarlikning bitta turiga tortiladilar.

Sodir etilgan huquqbuzarlik uchun intizomiy ta'zirga tortilgan harbiy xizmatchilar bu huquqbuzarlik uchun jinoiy javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Moddiy zarar yetkazish bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etilgan hollarda, harbiy xizmatchilar huquqiy javobgarlikning boshqa turiga tortilishidan yoxud jamoat ta'siri choralari qo'llanishidan qatiy nazar zararni to'laydilar.

Jamoat ta'siri choralari harbiy xizmatchilarga ularning harbiy intizom va jamoat tartibini buzishi bilan bog'liq nojo'ya harakatlari uchun qo'llanishi mumkin.

Javobgarlikka tortilayotganda harbiy xizmatchilarning or-nomusi va qadr-qimmatini poymol qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar. Yakkaboshchilik.

Komandirlar (boshliqlar) va bo'ysunuvchilar.

Kattalar va kichiklar.

Yakkaboshchilik - O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qurilishining, unga rahbarlik qilishning va harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning prinsiplaridan biri sanaladi. U komandirga (boshliqqa) bo'ysunuvchilarga nisbatan idora qilish hokimiyatining butun to'laligicha berilishida va harbiy qism, bo'linma va har bir harbiy xizmatchining hayoti va faoliyatining hamma jihatlari uchun davlat oldida shaxsiy javobgarlik uning zimmasiga yuklanishida o'z ifodasini topadi.

Yakkaboshchilik komandirning (boshliqning) vaziyatni har tomonlama baholashdan kelib chiqqan holda yolg'iz o'zi qaror qabul qilish, qonun va harbiy nizomlarning talablariga qat'iy muvofiq ravishda buyruqlar berish va ularning bajarilishini talab qilish huquqida mujassamlashgandir.

Buyruqlarning muhokama etilishiga yo'l qo'yilmaydi, bo'ysunmaslik yoxud buyruqni boshqacha ijro etmaslik harbiy jinoyat sanaladi.

O'z xizmat maqomi va harbiy unvoniga ko'ra ayrim harbiy xizmatchilar boshqalarga nisbatan boshliq yoxud bo'ysunuvchi bo'lishi mumkin. Boshliq bo'ysunuvchiga buyruqlar berish va ularning ijrosini talab qilish huquqiga ega.

Boshliq bo‘ysunuvchi uchun xushmuomalalik va bosiqlik namunasi bo‘lishi va takallufsizlikka ham, noxolislikka ham yo‘l qo‘ymasligi lozim. Bo‘ysunuvchining insoniy qadr-qimmatini poymol etuvchi harakatlari uchun boshliq javobgar bo‘ladi.

Bo‘ysunuvchi boshliqning buyruqlarini so‘zsiz bajarishga majburdir. Agar u o‘ziga nisbatan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lingan deb hisoblasa, buyruqni bajarib, shikoyat qilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining noharbiy xodimlaridan bo‘lgan shaxs egallagan lavozimiga muvofiq bo‘ysunuvchilar uchun boshliq hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilar, xizmat yuzasidan, hatto vaqtincha bo‘lsa ham, bo‘ysundirilgan boshliqlar bevosita boshliqlar hisoblanadi. Bo‘ysunuvchiga yaqinroq bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliq bevosita boshliq deb ataladi.

Harbiy xizmatda bo‘lganlar o‘z harbiy unvonlariga ko‘ra boshliqlar hisoblanadi.

O‘z xizmat maqomi va harbiy unvoniga ko‘ra boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan ularning boshlig‘i yoxud bo‘ysunuvchisi sanalmagan harbiy xizmatchilar katta yoxud kichik bo‘lishlari mumkin.

Kattalik harbiy xizmatchilarning harbiy unvoniga qarab belgilanadi. Harbiy unvoni bo‘yicha kattalar, kichiklar harbiy intizomni, jamoat tartibini, axloq, harbiy kiyim-kechakni kiyish va askarchasiga salomlashishni bajarish qoidalarini buzgan hollarda, ulardan bu buzishlarni bartaraf etishlarini talab qilishlari lozim. Unvoni bo‘yicha kichiklar kattalarning bunday talablarini so‘zsiz bajarishga majburidlari.

Bir-biriga bo‘ysunuvchi bo‘lmagan harbiy xizmatchilar majburiyatlarni birgalikda bajaradigan hollarda, ularning o‘zaro xizmat munosabatlari komandir (boshliq) tomonidan belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa, ulardan lavozimiga ko‘ra kattasi, teng mansablarda esa harbiy unvoni bo‘yicha kattasi boshliq sanaladi.

Buyruq (buyurish), uni berish va bajarish tartibi.

Harbiy xizmatchilarning tashabbusi

Buyruq - komandirning (boshliqning) bo‘ysunuvchilarga qaratilgan va ma’lum amallarning majburan bajarilishini, u yoki bu qoidalarga rioya qilinishini talab etadigan yoxud u yoki bu tartib, qoidalarni belgilaydigan ko‘rsatmasidir.

Buyruq bir yoxud guruh harbiy xizmatchilarga yozma, og‘zaki yoxud aloqaning texnik vositalari orqali berilishi mumkin. Yozma buyruq harbiy qismlarning komandirlari (muassasalarining boshliqlari) yakkaboshchilik asosida chiqaruvchi harbiy boshqaruvning asosiy idora xizmat hujjati (huquqiy hujjati) sanaladi. Og‘zaki buyruqlar barcha komandirlar (boshliqlar) tomonidan beriladi.

Buyurish - shtab boshlig‘i harbiy qism komandiri (muassasa boshlig‘i) nomidan yoxud garnizon harbiy komendanti garnizon boshlig‘i nomidan chiqaruvchi idora qilish xizmat hujjati sanaladi.

Komandir (boshliq) buyruq berishdan oldin vaziyatni har tomonlama baholashga va uning bajarilishini ta’minalash bo‘yicha tadbirlarni ko‘zda tutishga majburdir. U berilgan buyruq va uning oqibatlari uchun, buyruqning qonunlarga muvofiq kelishi uchun, shuningdek, berilayotgan buyruqda mansabni suiste’mol qilish va huquq doirasidan yoxud xizmat vakolatlaridan chetga chiqish uchun va uning bajarilishi bo‘yicha tadbirlar ko‘rmaganlik uchun javobgar bo‘ladi. Buyruq aniq shakllantirilgan, ikki xil talqinga yo‘l qo‘ymaydigan va bo‘ysunuvchida shubha uyg‘otmaydigan bo‘lishi lozim. Buyruq (buyurish) qonunlar va harbiy nizomlarning talablariga muvofiq kelishi lozim.

Buyruqlar bo‘ysunganlik yo‘sinida beriladi. O‘ta zarur bo‘lgan hollarda katta komandir bo‘ysunuvchiga uning bevosita boshlig‘ini chetlab o‘tgan holda buyruq berishi mumkin. Shunday hollarda u bu haqda bo‘ysunuvchining bevosita boshlig‘iga xabar qiladi yoxud bo‘ysunuvchiga uning o‘zi bevosita boshlig‘iga bildiruv berishini buyuradi.

Komandirning (boshliqning) buyrug‘i so‘zsiz, aniq va muddatida bajarilishi shart. Buyruq olgan harbiy xizmatchi: «Xo‘p bo‘ladi» deb javob beradi va shundan keyin uni bajaradi.

Komandir (boshliq) o‘zi bergen buyruqning to‘g‘ri tushunilganiga ishonch hosil qilishi zarur bo‘lib qolganda, uni qisqacha takrorlashni talab qilishi, buyruq olgan harbiy xizmatchi esa komandirga (boshliqqa) uni takrorlashni iltimos qilib murojaat etishi mumkin.

Harbiy xizmatchi berilgan buyruqning bajarilishi to‘g‘risida buyruqni bergen boshliqqa va o‘zining bevosita boshlig‘iga bildiruv berishga majburdir.

Harbiy xizmatchilarga harbiy xizmatga aloqasi bo‘lmagan yoxud qonunni buzishga yo‘naltirilgan buyruqlar, buyurishlar berilishi, topshiriqlar yuklanishi mumkin emas.

Agar buyruqni bajarayotgan harbiy xizmatchi xizmat maqomiga ko‘ra, boshqa katta boshlikdan birinchisini bajarishga xalaqit beradigan yangi buyruq olsa, ushbu haqda ikkinchi buyruqni bergen boshliqqa bildiruv beradi va tasdiqlagan taqdirdagina ohirgisini bajaradi.

Yangi buyruqni beruvchi bu haqda birinchi buyruqni bergen boshliqqa xabar qiladi.

Harbiy xizmatchi unga berilgan topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish maqsadida oqilona tashabbus ko‘rsatishga majburdir. Oqilona tashabbus olingan buyruq keskin o‘zgargan vaziyatga to‘g‘ri kelmay qolgan, sharoit esa yangi buyruq olinishini taqozo etmaydigan hollarda nihoyatda zarur hisoblanadi.

Harbiycha salomlashish

Harbiycha salomlashish harbiy xizmatchilarning birodarlarcha jipsligining ifodasi, o‘zaro hurmat va mushtarak madaniyatni namoyon bo‘lishi belgisi sanaladi.

Barcha harbiy xizmatchilar bir-biriga duch kelganda (yetib o‘tib ketganda) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi bilan belgilangan qoidalarga qat’iy rioya qilgan holda bir-biriga salom berishga majburdir.

Harbiy unvoniga ko‘ra, bo‘ysunuvchilar va kichiklar birinchi bo‘lib salom beradi. Maqomlar teng bo‘lgan paytda esa kim o‘zini ko‘proq xushmuomala, tarbiya ko‘rgan deb hisoblasa, o‘sha birinchi bo‘lib salom beradi.

Harbiy xizmatchilar bundan tashqari:

- Noma’lum askar qabriga;

- Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun janglarda shahid bo‘lgan jangchilarning birodarlik qabristoniga;
- Harbiy qismning Jangovar Bayrog‘iga, shuningdek, harbiy kemaga kelganda va undan jo‘nab ketayotganda harbiy Dengiz Bayrog‘iga;
- harbiy bo‘linmalar kuzatib borayotgan dafn marosimlariga salom berishga majburdirlar.

Harbiy qismlar va bo‘linmalar safda turgan paytda komanda bo‘yicha:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisiga va O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriga;
- hududida muayyan qism joylashgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i KenGESi Raisiga va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisiga;
- O‘zbekiston Respublikasi marshallari, armiya generallari, general-polkovniklar va barcha bevosita boshliqlarga, shuningdek, harbiy qism (bo‘linma) inspeksiyasini (tekshirilishini) o‘tkazishga rahbarlik qilish uchun tayinlangan shaxslarga salom beradilar.

Harbiy qismlar va bo‘linmalar komanda bo‘yicha, shuningdek:

- Noma’lum askar qabriga;
- Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun janglarda shahid bo‘lgan jangchilarning birodarlik qabristoniga;
- harbiy qismning Jangovar Bayrog‘iga;
- harbiy bo‘linmalar kuzatib borayotgan dafn marosimiga, duch kelganda bir-biriga salom beradi.

Joyida turgan, safda turgan qo‘sishlarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriga salom berishiga orkestr ijro etayotgan «Qarshilov marshi» va Davlat madhiyasi jo‘r bo‘ladi.

Harbiy qism o‘z qism komandiridan va undan yuqori bevosita boshliqlarni, shuningdek, inspeksiya (tekshiruv) o‘tkazish uchun rahbarlikka tayinlangan shaxslarga salom berayotganda orkestr faqat «Qarshilov marshi»ni ijro etadi.

Safdan tashqari yurganda, mashg‘ulotlar vaqtida ham, mashg‘ulotlardan bo‘sh vaqtarda ham, harbiy qismlar va bo‘linmalarning harbiy xizmatchilari, boshliqlariga «**Qaddingni rostla**» yoxud «**Turilsin**» komandalari bo‘yicha salom beradilar.

Shtab va muassasalarda faqat bevosita boshliqlarga, inspeksiya (tekshiruv) o‘tkazish uchun tayinlangan shaxslarga komanda bo‘yicha salom beriladi.

Safdan tashqari mashg‘ulotlarda, shuningdek, faqat ofitserlar ishtirot etayotgan majlislarda komandirlar boshliqlarga harbiycha salom berish uchun «**O‘rtoq ofitserlar**» komandasini beriladi.

«**Qaddingni rostla**», «**Turilsin**» yoxud «**O‘rtoq ofitserlar**» komandalarini ishtirot etayotgan komandirlardan (boshliqlardan) kattasi yoxud komandirni (boshliqni) birinchi bo‘lib ko‘rgan harbiy xizmatchi beradi.

Bu komanda bo‘yicha barcha ishtirot etuvchilar turadi, kelgan komandir (boshliq) tomonga yuzlanadi va saf turishda bo‘ladi, bosh kiyim kiygan ofitserlar, praporshiklar, michmanlar, bundan tashqari, qo‘lini unga qadaydi.

Ishtirot etayotgan komandirlardan (boshliqlardan) katta keluvchining istiqboliga yetib boradi va unga bildiruv beradi.

Kelgan komandir boshliq bildirishni qabul qilgach «**Erkin**» yoxud «**O‘rtoq ofitserlar**» komandasini beradi. Bildiruvchi esa bu komandani takrorlaydi. Shundan so‘ng barcha ishtirot etuvchilar «**Erkin**» holatiga kiradi.

Boshida kiyimi bo‘lgan ofitserlar, praporshik va michmanlar qo‘lini tushiradi va bundan buyog‘iga kelgan komandirning (boshliqning) ko‘rsatmasi bo‘yicha ish tutadi.

Davlat madhiyasi ijro etilayotgan paytda safda turgan askarlar komanda berilmasdan qad rostlagan holatga o‘tadilar. Vzvod komandiri va undan yuqori bo‘lganlar, bundan tashqari, qo‘llarini bosh kiyimlariga qadaydilar.

Safdan tashqarida bo‘lgan harbiy xizmatchi Davlat madhiyasi ijro etilayotgan paytda safona qadrostan holatiga kiradi, agar bosh kiyimi bo‘lsa, qo‘lini unga qadaydi.

Harbiy qismlar va bo‘linmalar tomonidan salom berilishi uchun komanda berilmaydi:

- harbiy qism yoki bo‘linma trevoga bo‘yicha uyg‘otilganda, shuningdek, taktik mashg‘ulotlar, o‘quvlarda;
- boshqarish punktlari, aloqa tarmoqlari joylashgan va jangovar xizmat o‘taladigan joylarda;
- o‘q otish mashqlari (uchirishlar) o‘tkazilayotgan vaqtida otish jabhasi va o‘t ochish, start berish pozitsiyalarida;
- parvozlar o‘tkazilayotgan paytda aerodromlarda;
- qurilish, xo‘jalik ishlari yoxud o‘quv mashg‘ulotlari bajarilayotgan paytda;
- shuningdek, ustaxonalar, omborlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulot paytlarida;
- sport musobaqalari, o‘yinlar o‘tkazilayotgan paytda;
- ovqat yeish paytida, «**Uyquga**» signalidan «**Uyg‘onilsin**» signaligacha;
- bemorlar uchun xonalarda.

Sanab o‘tilgan hollarda boshliq yoxud katta kelgan boshliqqa faqat bildiruv beradi. Masalan: **«O‘rtoq mayor, 2-motoo‘qchilar rotasi o‘q otishning ikkinchi o‘quv mashqini bajarmoqda. Rota komandiri kapitan Nishonov».**

Dafn marosimida ishtirok etayotgan bo‘linma harbiycha salom berishni bajarmaydi.

Rota, harbiy qismda o‘tkazilayotgan anjumanlarda, shuningdek, spektakl, konsertlarda, kinoda harbiycha salomlashish uchun komanda berilmaydi va komandirga (boshliqqa) bildiruv aytilmaydi.

ICHKI TARTIB

Umumiy qoidalar

Ichki tartib - bu, harbiy xizmatchilarning harbiy qismlar (bo‘linmalar)da joylashishi, kundalik faoliyati, turmushi va sutkalik naryad xizmatini o‘tashning harbiy nizomlarda belgilangan qoidalariga qatiy rioya qilinishidir.

Ichki tartibga:

- qonunlarda va harbiy nizomlarda belgilangan majburiyatlarni barcha harbiy xizmatchilar teran anglashi, ongli va aniq bajarishi bilan;
- komandirlarning (boshliqlarning) bo‘ysunuvchilar va ularning sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida g‘amxo‘rligining yuksak talabchanligi bilan uyg‘unlashgan maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlar bilan;
- jangovar tayyorgarlikni puxta tashkil etish bilan;
- sutkalik naryadning jangovar navbatchilik va xizmatni namunali o‘tashi bilan;
- kun tartibi va xizmat vaqtin tartibotini aniq bajarish bilan;
- qurol-aslaha, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalarning to‘g‘ri ekspluatatsiyasi bilan, harbiy xizmatchilar joylashgan joylarda harbiy nizomlarning talablariga javob beruvchi ularning kundalik faoliyati, hayoti va turmushi uchun sharoitlar yaratish bilan;
- yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilish, harbiy qism faoliyati xududidagi atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish bilan erishiladi.

HARBIY XIZMATCHILARNING JOYLASHISHI

Umumiy qoidalar

Brigada komandiri brigadaning barcha inshootlari va hududini bo‘linmalar o‘rtasida taqsimlaydi. Harbiy shaharchada bir necha harbiy qismlar joylashganida, inshootlar va hudud ular o‘rtasida garnizon boshlig‘i tomonidan taqsimlanadi.

Muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar, kemada bo‘lgan matros va starshinalardan tashqari, kazarmalarda joylashtiriladi.

Har bir rotani joylashtirish uchun quyidagi inshootlar ko‘zda tutilgan bo‘lishi lozim:

- uqlash xonasi;
- ijtimoiy-siyosiy axborot xonasi;
- rota kanselyariyasi;
- qurol saqlash uchun xona;
- qurol tozalash uchun xona (joy);
- sport mashg‘ulotlari uchun xona (joy);
- maishiy xizmat (ko‘rsatish) xonasi;
- rota mulki va harbiy xizmatchilarning shaxsiy buyumlarini saqlash uchun g‘azna;
- chekish va poyabzal tozalash uchun xona (joy);
- kiyim-kechak va poyabzal uchun sushilka;
- yuvinish uchun xona;
- dushxona;
- hojatxona.

Har bir batalon tasarrufiga: batalon komandiri, uning o‘rinbosari, batalon shtabi uchun, mashg‘ulotlarga tayyorgarlik, yig‘ilishlar va ofitserlar dam olishi uchun xonalar ajratiladi.

Mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun brigadada maxsus sinflar jihozланади. Har bir qismda jangovar shon-sharaf (tarix) xonasi jihozланади va harbiy sharaf hurmat Kitobi yuritiladi.

Shartnoma bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar: oilalilari - brigada qarorgohidan tashqarida, oilasizlari esa - brigada qarorgohidagi yotoqxonalar yoxud kazarmalarning xonalarida joylashtiriladi.

Ayni chog'da harbiy xizmatchi ayollar uchun alohida yotoqxona (uxlash inshootlari), mashg'ulotlarga tayyorgarlik, yig'ilishlar va bo'sh vaqt uchun xonalar, dush va hojatxonalar, shuningdek, tashkiliy, xizmat ko'rsatish xonalari va yuvinish uchun xonalar jihozlanadi.

Rota starshinasini lavozimini egallagan praporshchik va michmanlar (oilasi bilan yoxud oilasizlar) brigada qarorgohida yoxud uning yaqinida joylashtiriladi.

Rota starshinasini yoxud ofitserlar va praporshchiklar bilan butlanadigan lavozimlarni egallagan muddatsiz xizmat serjantlari kazarmaning alohida xonalariga joylashtirilishi mumkin.

Harbiy-o'quv muassasalarining kursantlari kazarmalarda muddatli xizmat askarlari va serjantlari uchun belgilab qo'yilgan tartibda joylashtiriladi.

Kim bo'lishidan qatiy nazar oshxonalarda, non zavodlarida, tibbiyot punktlarida, qozonxonalarda, ishlab chiqarish va omborxona inshootlarida, klublarda, parklarda va angarlarda, shuningdek, kazarmaning o'quv va xizmat xonalarida uxlashi man etiladi.

Muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarni uplash xonalarida joylashtirish bir kishiga kamida 12 kub metr hajmda havo to'g'ri kelishi hisobidan o'tkaziladi.

Krovatlar uplash xonalarida rotaning belgilangan lavozim ro'yxatiga muvofiq ketma-ketlilda joylashtiriladi va shunday o'rnatiladiki, ulardan har birining yonida ikki joyda birga siljtilganlari yonida krovatoldi javonchalar uchun joy, krovatlar qatorlari orasida esa shaxsiy tarkib bemalol saf tortishi uchun bo'sh joy qolishi kerak. Krovatlarni bir tekislikka rioya qilgan holda tashqi devordan ko'pi bilan 50 sm uzoqlikda joylashtirish kerak. Krovatlar bir xil (andozali) bo'lishi lozim.

Krovatlarni uplash xonalarida bir yoxud ikki qavatli qilib joylashtirish mumkin.

Ko'rsatgan jasoratlari uchun rota ro'yxatiga abadiy yoxud faxriy askar (matros) sifatida kiritilgan harbiy xizmatchilar uchun uqlash xonasida ko'zga tez tashlanadigan joyda har doim namunali holatda saqlanadigan krovat o'rnatiladi. Krovat ustida ramkada qahramoining surati va uning jasorati tavsifi osib qo'yiladi.

Krovatoldi javonchada: yuqoridagi qutichada atirsovun va ustara, dastro'mollar, ichyoqalar va boshqa mayda shaxsiy buyumlar saqlanadi. Javonchada kitoblar, nizomlar, fotoalbomlar, yozuv qurollari, shuningdek, kiyim va poyabzal tozalash uchun asboblar saqlanishi mumkin.

Kazarmada joylashtirilgan harbiy xizmatchilarning to'shagi adyol, choyshablar, jildli yostiqlar va ko'rpadan iborat bo'lishi kerak. To'shaklar bir xilda to'g'rilab qo'yilgan bo'lishi darkor. To'shakda kiyim-kechakda (dam olayotgan rota navbatchisidan tashqari) va oyoq kiyimda o'tirish, cho'zilish man etiladi.

Shinellar, dalabop paxtali kurtkalar va shimplar, nimshubalar, bosh kiyimlar, to'ldirilgan qopchalar kazarma xonasida o'rnatilgan maxsus javonlarda; po'lat qalpoqlar, gazniqobdan tashqari, shaxsiy himoya vositalari stellajlarda; bayram-dam olish kiyim-kechaklari va ishchi kiyim-kechak rota mulki va harbiy xizmatchilarning buyumlarini saqlash uchun javonlarda saqlanadi. Maxsus kiyim uqlash xonasidan tashqarida saqlanadi. Muvofiq sharoit mavjud bo'lganda kiyim-kechak, sport anjomlari va xizmatchilarning shaxsiy buyumlari individual javonlarda (uyalarda) saqlanishi ham mumkin.

Kiyim-kechakning barcha turlarini saqlash uchun joy harbiy xizmatchiga biriktirib qo'yiladi, harbiy unvoni, familiyasi va ism-sharifi ko'rsatilgan yorliqchalar bilan belgili etiladi.

Kundalik kiyim-kechak va bel kamari uyqudan oldin taburetkaga batartib va bir xilda joylashtiriladi, poyabzal krovatning oyoq uchi tomonida bo'ladi. Kiyimlar, ichkiyim va poyabzal zarur bo'lganda sushilkada quritiladi.

Fotoapparatlar, magnitonlar, radiopriyoniklar va boshqa maishiy radioelektron texnikani saqlash va foydalanish tartibi muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar uchun komandir tomonidan belgilab qo'yiladi.

Xonalarni tutish

Brigadaning barcha imoratlari va xonalari hamda hududi har doim ozoda va tartibli saqlanishi kerak. Har bir boshliq imoratlar va xonalardan to‘g‘ri foydalanilishi uchun, mebellar, anjomlar va jihozlarning yaxshi saqlanishi uchun javob beradi.

Imoratlarning barcha xonalarini va old tomonlari belgilangan tusdagi bo‘yoqlar bilan bo‘yalishi lozim.

Barcha xonalar raqamlab chiqilgan bo‘lishi lozim. Har bir xonaga kiraverishdagi eshikning tashqi tomonida uning raqami va vazifasi ko‘rsatilgan bitik taxtacha (lavha) (14ilova), har bir xonaning ichkarisida esa unda bo‘lgan mulkning (mebellar, anjomlar) va jihozlarning ro‘yxati osib qo‘yiladi.

Xona mebeli, anjomlari va barcha jihozlari ich tomonidan raqamlab chiqiladi va rota kanselyariyasida saqlanuvchi hisob-kitob daftariga qayd etib qo‘yiladi.

Mebel, anjomlar va jihozlar xona uchun zarur bo‘lgan buyumlar sanaladi va brigada komandirining ruxsatisiz bir bo‘linmadan boshqasiga tashib o‘tilishi mumkin emas. Mebel, anjomlar va jihozlarni bir harbiy shaharchadan boshqasiga tashib o‘tish man etiladi.

Uxlash xonalarida yoxud boshqa xonalarda shaxsiy tarkib uchun ko‘zga tashlanib turgan joyda maxsus taxtada kun tartibi, mashg‘ulotlar jadvali, naryadlar varaqalari, shaxsiy tarkib joylashishining tarhi, mulk ro‘yxati va zarur yo‘lyo‘riqlar osib qo‘yilgan bo‘lishi lozim.

Bo‘lmalarda (xonalarda) osib qo‘yiladigan suvratlar va kartinalar yog‘och hoshiyada, plakatlar va boshqa ko‘rgazmali qo‘llanmalar esa ensiz uzun taxtachalarda bo‘lishi lozim. Barcha xonalarga gul o‘sirishga, derazalarga saranjom yakrang pardalar osishga ijozat beriladi. Pastki qavatlarning shahar ko‘chalariga qaragan derazalarining oynalari zarur bo‘lgan balandlikkacha xira bo‘lishi yoxud oq bo‘yoq bilan bo‘yalgan bo‘lishi kerak. Rotaga kiraverishdagi eshik, zarur bo‘lganda, kuzatish tirqishchasi, ishonchli ichki tamba va bo‘linma bo‘yicha posbonga ulangan tovushli jaranglagich bilan jihozlanishi mumkin. Bunday holda pastki qavatlarning derazalariga ichkaridan zanjirlanadigan panjara o‘rnataladi.

Suvvo‘tkazgich quvurlar (vodoprovod) bo‘lgan barcha maishiy xopalarda suv ichish favvorachalari jihozlanadi, suvo‘tkazgich quvurlar bo‘lмаган joyda esa ichimlik suv solingan qulf osib yopilgan bakchalar o‘rnatiladiki, ular ham favvorachalar bilan jihozlanadi. Bakchalar har kuni rota bo‘yicha navbatchi nazorati ostida chayqalib to‘kiladi va toza ichimlik suv bilan to‘lg‘iziladi, haftada bir marta ularning dezinfeksiyasi o‘tkaziladi. Bakchalarning kaliti rota bo‘yicha navbatchida saqlanadi.

Barcha xonalar yetarli miqdorda axlat qutilari, chekish uchun joy esa - suvli (yuqumsizlantiruvchi suyuqlikli) axlat qutisi bilan ta’minlanadi. Xonaga kiraverishdagi tashqi eshiklar yonida poyabzalni loydan tozalash uchun moslamalar va axlat qutilari bo‘lishi lozim.

Xonalarni har kunlik yig‘ishtirish rota bo‘yicha navbatchining to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbarligi ostida navbatchi farroshlar (yig‘ishtiruvchilar) tomonidan o‘tkaziladi. Navbatchi farroshlar mashg‘ulotlardan ozod etilmaydi.

Navbatchi farroshlar krovatlar va krovatoldi tumbochkalar ostidan axlatlarni supurib-sidirishga, krovatlar qatori orasidagi yo‘laklarni supurishga, pollarni ho‘l lagga bilan ishqalab artishga, axlatni belgilangan joyga chiqarib tashlashga, derazalar, eshiklar, javonlar, qutilar va boshqa jihozlarning changini artishga, kechqurundan qo‘lyuvg‘ichlarga suv to‘lg‘izishga, axlat qutilarni tozalashga, bundan tashqari, chekish joylarida ularga suv (yuqumsizlantirilgan suyuqdik) quyishga majburdir.

Mashg‘ulotlar paytida xonalarni ozoda saqlash posbonlar zimmasiga yuklanadi.

Umumiylig‘ishtirish vaqtida to‘sak uchun zarur buyumlar (ko‘rpalar, yostiqlar, adyollar) shamollatish uchun hovliga chiqarilishi mumkin. Pollarni mastika surtib ishqalashdan oldin ular bulg‘anchdan tozalanadi va ho‘l latta bilan ishqalab yuviladi.

Agar polar mastika surtib ishqalanmasa, unda ularni yuvish haftada kamida bir marta o‘tkaziladi. Pollarni suv ko‘llatib qo‘yib yuvish man etiladi.

Oshxonalarda, novvoyxonalarda va non zavodlarida barcha uskuna va anjomlarga tamg‘a bosiladi, ozoda va tartibli tutiladi; idish-tovoq ovqat yeyilgandan keyin tozalanishi, yuvilishi, qaynoq suv bilan bug‘latilishi va quritilishi lozim. Idish-tovoq so‘kchaklarda yoxud maxsus javonlarda saqtanadi.

Binolarning tuynuklari qishda berkitilgan, yozda esa ochiq, ammo maxsus panjaralar bilan to‘silgan bo‘lishi kerak.

Chordoqlarda, mo‘rillardan uzoqroq joylarda faqat qishki deraza panjaralari saqlanib qolishi mumkin.

Chordoqlar, sushilkalar, yerto‘lalar qulflanadi, ularning kalitlari bu xonalarni tutish uchun mas’uliyat yuklangan bo‘linmaning navbatchisida saqlanadi.

Hojatxonalar 10-12 kishiga bitta unitazli (yopiladigan kabina) va bitta siydkchanoq mo‘ljallangan holda jihozlanadi. Hojatxonalar toza saqlanishi, har kuni dezinfeksiya qilinishi va yaxshi ventilyatsiyaga va yoritqichga ega bo‘lishi lozim. Ularni yig‘ishtirish asbob-anjomlari buning uchun maxsus ajratilgan joyda (javonda) saqlanadi. Hojatxonalar tutilishi ustidan kuzatib turish bo‘linma starshinalariga, sanitariya yo‘riqchilariga va rotalar bo‘yicha navbatchilar zimmasiga yukланади. Chuqur, suv o‘tkazmaydigan axlatxonali tashqi hojatxonalar maishiy xonalardan, oshxona va novvoyxonalardan (non zavodlaridan) 40-100 metr uzoqlikda quriladi. Bu masofa shimoliy tumanlarda birmuncha qisqa bo‘lishi mumkin. Tashqi hojatxonalarga olib boradigan yo‘laklar tun paytida yoritiladi. Zarur bo‘lib qolganda (tunda) yilning sovuq mavsumida maxsus ajratilgan xonalar siydkchanoq)lar bilan jihozlanadi.

Axlatxona xandag‘i o‘z vaqtida tozalab turiladi va dezinfeksiya qilinadi.

Uy-xo‘jalik va o‘t o‘chirish organlarining ruxsatisiz xonalarning rejasini o‘zgartirish, mavjud va yangi tiklangan qo‘srimcha qurilishlarni, ichki elektr tarmoqlari joylashishini, aloqa simlarini, signalizatsiya va televizion to‘lqintutarlarning (antennalarning) o‘rnini ko‘chirish va qismlarga ajratib buzish, shuningdek, vaqtinchalik pechlarni o‘rnatish va yangilarini jihozlash man etiladi.

Energiya ta’mnoti, gaz ta’mnoti, markaziy isitish uskunalari va tarmoqlarining ta’miri uy-xo‘jalik xizmati kuchlari yoxud uni bajarish uchun maxsus tayyorgarlik va ruxsatga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan o‘tkaziladi.

Kazarma xonasida shaxdam qadam tashlovchi safda yurish man etiladi.

Xonalarning isitilishi

Isitish davrining boshlanishi va tugashi garnizon boshlig‘ining buyrug‘i bilan e’lon qilinadi. Pech bilan isitilganda xonalarni isitish tartibi, vaqt, yoqilg‘i qabul qilish va berish brigada komandiri tomonidan belgilanadi.

Barcha qozonxonalar, markaziy isitish tizimlari, pechlar va mo‘rilar isitish davri boshlangunga qadar tekshirilgan, buzuqlari esa ta’mirlangan bo‘lishi lozim. Mo‘rilarni tozalash belgilangan vaqtda o‘tkaziladi.

Qishda maishiy xonalardagi havo harorati $+18^{\circ}$ S dan, tibbiyot muassasalarida esa $+20^{\circ}$ S dan past bo‘lmagan, qolgan xonalarda esa belgilangan me’yorlarga muvofiq saqlanadi. Harorat o‘lchagichlar xonalarning ichkari devorlarida, pechlar va isitgich asboblardan uzoqda, poldan 1,5 m yuqorida o‘rnataladi.

Xonalarni shamollatib turish

Kazarma xonalarini shamollatish posbon tomonidan va rota bo‘yicha navbatchining kuzatuvi ostida:

- uqlash xonalarida;
- uyqudan oldin va uyqudan keyin, sinflarda;
- mashg‘ulotlardan oldin va ular orasida tanaffuslarda o‘tkaziladi.

Sovuq paytda deraza darchalari (piramonlari) yozgi mavsumda derazalar odamlar xonalardan tashqarida bo‘lgan vaqtarda ochiladi. Agar odamlar xonalardan chiqmay tursa, darchalar (piramonlar) yoxud deraza xonalarning faqat bir tomonida ochiladi. Ochiq darchalar va deraza tokchalari ilgak bilan mustahkamlanadi.

Oshxonalar, tibbiyot punktlari, hojatxonalarning derazalari yozgi mavsumda hasharotlardan himoya qiluvchi kichik uyali to‘rlar bilan jihozlanadi.

Mavjud ventilyatsiya tizimlari ishga yaroqli xonada saqlanishi lozim. So‘rish-puflash ventilyatsiyasi brigada komandiri tomonidan belgilangan vaqtda o‘tkaziladi.

HARBIY QASAMYOD QABUL QILDIRISH MAROSIMI

O‘zbekiston Respublikasining birinchi marta harbiy xizmatga qabul qilingan yoxud harbiy xizmatni o‘tamagan va birinchi marta harbiy yig‘inlarga chaqirilgan fuqarosi harbiy qismning Jangovar Bayrog‘i oldida harbiy qasamyodni qabul qiladi.

Harbiy qasamyodni:

- madadga kelgan askarlar va matroslar - ular tegishli dasturlarni o‘tganlaridan va askar (matros)larning asosiy majburiyatlarini, Harbiy qasamyodning, harbiy qism Jangovar Bayrog‘ining va harbiy intizomning ahamiyatini o‘zlashtirgandan so‘ng, harbiy qismga yetib kelgan kundan boshlab ikki oydan kechiktirmasdan;
- harbiy bilim yurtlarining avval qasamyod qabul qilmagan kursantlari va tinglovchilari - aynan o‘sha muddat davomida qabul qiladilar.

Madadga kelgan askarlar va matroslar, harbiy xizmatchi ayollar, harbiy bilim yurtlarining ilgari harbiy qasamyod qabul qilmagan kursantlari va tinglovchilari uni harbiy qism komandiri, harbiy bilim yurti boshlig‘i rahbarligi ostida qabul qiladilar.

Harbiy qasamyod qabul qilish vaqtি harbiy qism komandirining buyrug‘ida e’lon qilinadi. Bungacha Harbiy qasamyod qabul qiladiganlar bilan Harbiy qasamyodning ahamiyati va qonunlarning Vatan himoyasi bo‘yicha talablari to‘g‘risida bo‘linmalarda tushuntirish ishlari o‘tkaziladi.

Harbiy qasamyod qabul qilish tartibi. Harbiy qasamyod qabul qilish uchun harbiy qism Jangovar Bayroq oldida va orkestr bilan oddiy askarlar safida qurol bilan tantanali kiyim-kechak rusumida safga tiziladi. Qism rota yoxud vzzvod kolonnalari chizig‘ida saf tortadi. Qism komandiri qisqa nutqida harbiy xizmatchilarga harbiy qasamyodning ahamiyatini va o‘z xalqiga sodiq bo‘lishga qasamyod qabul qilganlarning zimmasiga yuklanadigan faxrli va mas’uliyatli majburiyatlarni eslatadi.

Tushuntirish nutqidan so‘ng qism komandiri «Erkin tur» deb komanda qiladi va bo‘linma komandirlariga harbiy qasamyod qabul qildirishga kirishish ko‘rsatmasini beradi.

Bo‘linma komandirlari qasamyod qabul qiladigan harbiy xizmatchilarni navbatli bilan safdan chaqiradi. Har bir harbiy qasamyod qiluvchi bo‘linma safi oldida Harbiy qasamyod matnini o‘zbek yoxud rus tilida ovoz chiqarib o‘qiydi va maxsus ro‘yxatdagi o‘z familiyasi qarshisidagi bandga o‘z qo‘li bilan imzo chekkandan so‘ng safdagisi o‘z o‘rniga borib saflanadi.

Qasamyod qabul qilish tugashi bilan harbiy qasamyodni qabul qilganlarning shaxsiy imzolari bo‘lgan ro‘yxatlar bo‘linma komandirlari tomonidan Harbiy qism komandiriga topshiriladi. Harbiy qism komandiri shaxsiy tarkibni Harbiy qasamyod qabul qilish bilan tabriklaydi, shundan so‘ng orkestr O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasini ijro etadi va harbiy qism tantanali marsh bilan yurib o‘tadi.

U yoki bu sabablarga ko‘ra belgilangan kunda Harbiy qasamyodni qabul qilmagan barcha harbiy xizmatchilar uni keyingi kunlarda qism komandiri rahbarligida qism shtabida alohida qabul qiladilar.

Harbiy qasamyod qabul qilish tarixiy joylarda, jangovar va mehnat shuhrati joylarida, shuningdek, Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun janglarda shahid bo‘lgan jangchilarining qardoshlik mozorlarida ham o‘tkazilishi mumkin. Harbiy qasamyod qabul qilish tantanalari o‘tkaziladigan joylarga bunday hollarda odatda faqat uni qabul qiladigan harbiy xizmatchilar olib chiqiladi.

Harbiy qasamyod qabul qildirish kuni ushbu qism uchun ish qilinmaydigan kun sanaladi va bayram kuni sifatida o‘tkaziladi.

Harbiy qasamyod qabul qilganlarning ro‘yxatlari harbiy qism shtabida raqamlab chiqilgan, ip o‘tkazib bog‘lab qo‘yilgan va surg‘uchli muhr bilan muhrlangan alohida papkalarda saqlanadi. Ro‘yxatlar belgilangan muddat o‘tishi bilan arxivga topshiriladi.

Harbiy xizmatchining harbiy guvohnomasi va hisob-kitob varaqasida harbiy qism shtabining boshlig‘i tomonidan: «Harbiy qasamyodni (kui, oy, yil) qabul qilgan» qaydi yozib qo‘yiladi.

Birinchi marta harbiy yig‘inlarga chaqirilgan va ilgari Harbiy qasamyod qabul qilmagan fuqarolar harbiy qismga yetib kelgan kundan boshlab besh kundan kechiktirmasdan uni qabul qiladilar.

Yalpi yoxud qisman safarbarlik e’lon qilinishi bilan tinchlik davrida Harbiy qasamyod qabul qilmagan fuqarolar harbiy qismga yetib kelishi bilan uni qabul qiladilar.

Harbiy xizmatga qabul qilingan harbiy xizmatchi ayollar Harbiy qasamyodni harbiy qism komandiri rahbarligi ostida qism shtabida qabul qiladilar.

Marosim o‘z vaqtida, aniq bajarilishi va harbiy qasamyod qilgan harbiy xizmatchilarning hisobi, shuningdek, Harbiy qasamyod qabul qilganlar ro‘yxatining saqlanishi uchun harbiy qism komandiri javob beradi.

2 -§. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining intizom Nizomi

Umumiy qoidalari

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Intizom nizomi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan.

Ushbu nizom harbiy intizomning mohiyatini, harbiy xizmatchilarning unga rioya qilish bo‘yicha majburiyatlarini, rag‘batlantirish va intizomiy ta’zirlarning ko‘rinishlarini, komandirlarning (boshliqlarning) ularni qo‘llash bo‘yicha huquqlarini, shuningdek, taklif, ariza va shikoyatlar berish, ularni ko‘rib chiqish tartiblarini aniqlab beradi.

Harbiy qismlarning, kemalarning, shtablarning, boshqarmalarning, muassasalarning, korxonalarning, tashkilotlarning va harbiy bilim yurtlarining barcha harbiy xizmatchilari o‘z harbiy unvonlari, mavqelari va xizmatlaridan qat’iy nazar ushbu Nizomning talablariga qat’iyan rioya qilishlari lozim.

Nizom O‘zbekiston Respublikasi chegara qo‘sishlari, Davlat xavfsizlik xizmati qo‘sishlari, Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘sishlari, boshqa tegishli vazirliklar va idoralarning harbiy xizmatchilariga nisbatan bir hil kuchga egadir.

Bundan tashqari, Intizom nizomi qoidalari harbiy xizmatdan harbiy ust-bosh kiyib yurish huquqi bilan bo‘shatilgan fuqarolarga nisbatan harbiy ust-bosh kiyib yurgan paytda o‘z kuchiga egadir.

Harbiy intizom - bu barcha harbiy xizmatchilarning qonun, harbiy Nizomlar tomonidan, komandirlar (boshliqlar) buyruqlari bilan belgilangan tartib va qoidalarga qat’iy va aniq rioya etilishidir.

Harbiy intizom har bir harbiy xizmatchining O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga bo‘lgan **harbiy burch** va **shaxsiy mas’uliyat**, o‘z xalqiga **mislsiz sadoqatini** his qilishiga asoslanadi.

Harbiy xizmatchilarda yuksak intizomni tarbiyalashning asosiy usuli ishontirishdir. Ammo ishontirish o‘z harbiy burchiga sidqidildan yondashmaganlarga nisbatan majburiy choralar ko‘rishni istisno etmaydi.

Harbiy intizom har bir harbiy xizmatchidan:

- Harbiy qasamyodga sodiq bo‘lishni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Konstitutsiyasiga qat’iy bo‘ysunishni;
- o‘z harbiy burchini mohirlik va jasorat bilan bajarishni, harbiy ishni sidqidildan o‘rganishni, harbiy va davlat mulkini asrashni;
- harbiy xizmat qiyinchiliklarini mardonavor yengishni, harbiy burchini bajarish uchun o‘z jonini ham ayamaslikni;
- sergak bo‘lishni, harbiy va davlat sirlarini qat’iy saqlashni;
- harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi harbiy nizomlarda ko‘rsatib berilgan o‘zaro munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashni, jangovar birodarlikni mustahkamlashni;
- komandirlarga (boshliqlarga) va bir-biriga hurmat ko‘rsatish, harbiy salom-alik va xushfe’lllik qoidalariga rioya qilishni;
- jamoat joylarida o‘zini munosib tutishni, nomunosib xatti-harakatlardan o‘zini va boshqalarni tiyib qolishni va fuqarolarning or va nomusini himoya qilishni talab etadi.

Yuksak harbiy intizomga:

- harbiy xizmatchilarda yuksak axloqiy-ruhiy va jangovar fazilatlarni tarbiyalash, komandirlariga (boshliqlariga) ongli tarzda bo‘ysunish;
- harbiy xizmatchining o‘z majburiyatlari va harbiy nizomlar talablarini bajarishga shaxsiy mas’uliyati;
- harbiy qismda (bo‘linmada) ichki tartibga bo‘ysunish, barcha harbiy xizmatchilar tomonidan kundalik rejimga qat’iy rioya qilish;
- jangovar tayyorgarlikni puxta tashkil etish va u barcha shaxsiy tarkibni qamrab olishi;
- komandirlarning (boshliqlarning) o‘z qo‘l ostidagilarga kundalik talabchanligi va ularning ijrochilagini nazorat qilish, harbiy xizmatchilarning sha’nini hurmat qilish va bu haqda doimiy qayg‘urish, ishontirish, majburlash, jamoatchilik ta’siri kabi omillarni to‘g‘ri uyg‘unlashtirish va o‘rnida qo‘llash;
- harbiy qismda (bo‘linmalarda) zarur moddiy-maishiy sharoitlarni yaratish orqali erishiladi.

Harbiy qismdagi intizomning ahvoliga komandir va uning shaxsiy tarkib bilan ishslash bo‘yicha o‘rnbosari javobgardir, ular doimo yuqori harbiy intizomni ushlab turishi, o‘z qo‘l ostidagilardan unga rioya qilishni talab etishlari, munosiblarni taqdirlab, layoqatsizlarga qattiq, lekinadolatli ta’zir choralarini ko‘rmoqlari kerak.

Harbiy qismda (bo‘linmada) yuqori harbiy intizom joriy etish uchun komandir:

- qo‘l ostidagilarning shaxsiy fazilatlarini o‘rganishi, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni harbiy nizomlarda ko‘rsatib berilgan qoidalar asosida qo‘llab-quvvatlashi; harbiy jamoani jipslashtirish, turli millatga mansub harbiy xizmatchilar o‘rtasida do‘slikni mustahkamlashi;

- shaxsiy tarkibdagi harbiy intizom va axloqiy-ruhiy holatni bilishi, qo‘l ostidagilarning komandirlar (boshliqlar) talabi va harbiy intizomni mustahkamlash bo‘yicha vazifa va usullarini yaxdil anglab yetishlariga erishishi, ularning harbiy intizomni mustahkamlashiga rahbarlik qilishi va shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini bilishi, rag‘batlantirish va intizomiy ta’zir choralarini qo‘llash amaliyotiga o‘rgatishi;

- xizmatni o‘tash qoidalarining buzilishi hollarini zudlik bilan bartaraf etishi, harbiy qism (bo‘linma) jangovarligiga raxna soluvchi har qanday xatti-harakatning qat’iyat bilan oldini olishi, huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borishi va jinoyat, boshqa kor-hol va xatti-harakatlarni ogohlantirish bo‘yicha ish olib borishi;

- qo‘l ostidagilarni harbiy intizom talablarini so‘zsiz bajarish va yuksak ijrochilik ruhida tarbiyalash, ularda shaxsiy g‘urur, harbiy sha’n va harbiy burch tuyg‘usini o‘stirishi va qo‘llab-quvvatlashi;

- harbiy qism (bo‘linma)da harbiy intizomning, ayniqsa harbiy xizmatchilar orasida o‘zaro munosabatlarda Nizom qoidalarining, ijtimoiyadolat ko‘rinishlarining buzilishiga murosasizlik kayfiyati yaratilishi va bunda oshkoralikdan keng foydalanishi;

- o‘z qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati va harbiy intizomini muntazam tahlil qilib borishi;

- o‘z vaqtida va xolislik bilan bu haqda o‘zidan yuqori lavozimdagagi komandir (boshliq)ga hisobot berishi, jinoyat va korhollarda esa zudlik bilan xabar qilishi lozim.

Harbiy xizmatchining huquqiy va ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida qayg‘urish, uning shaxsiyatini, milliy g‘ururini hurmat qilish komandir (boshliq)ning muhim vazifasidir. Harbiy intizomning buzilishi, jinoyat va boshqa xatti-harakatlarni xaspo‘splashga xizmat qilgan komandir (boshliq) javobgarlikka tortiladi.

Komandir (boshliq) o‘z qo‘l ostidagilarga yaqin bo‘lishi, ularning talab va ehtiyojini bilishi va uning qondirilishiga erishishi, qo‘l ostidagilarning shaxsiy g‘ururini toptalmasligi va yerga urilmasligini ta‘minlashi, ularga doimo qonun, harbiy nizom va buyruqlarni qat’iy bajarishda namuna bo‘lishi, axloqiy pokizalik, halollik, kamtarlik va to‘g‘rilikda o‘rnak bo‘lishi lozim. Har bir harbiy xizmatchi uning huquqlari va qonuniy ehtiyojlarining himoya qilinishiga to‘la ishonishi, komandir (boshliq) tomonidan uning shaxsiyatiga dahlsizlik ta‘minlanishiga, o‘z sha’ni va g‘ururi hurmatlanishiga g‘amxo‘rlikni his qilishi kerak.

Komandir (boshliq)ning harbiy intizomni ta‘minlash borasidagi faoliyati harbiy qism (bo‘linma)dagi qonunbuzarliklarning umumiy miqdori bilan emas, balki ular tomonidan qonunlar va harbiy nizomlarga to‘la rioya qilish, o‘zining intizomiy hokimiyatidan to‘la foydalanishi va tartib o‘rnatish uchun o‘z vazifasini bajarishi hamda harbiy intizom buzilishining o‘z vaqtida oldini olishi bilan belgilanishi kerak.

Harbiy intizomni buzgan biror kimsa ham javobgarlikdan bo‘yin tovlamasligi va begunoh biror kimsa nohaq jazoga tortilmasligi kerak.

Harbiy intizom nizomi tartiblari va talablariga rioya qilish uchun zarur shart-sharoit yaratib bermagan, ularni amalga oshirish tadbirlarini ko‘rmagan komandir (boshliq) javobgarlikka tortiladi.

Komandir (boshliq) faoliyatining bevosita natijasi sifatida yuz bermagan jinoyat, hodisa va kor-hol uchun yoki ularning oldini olish to‘g‘risidagi ogohlantirishidan so‘ng ham chora ko‘rilmagan hollarda, u javobgar bo‘lmaydi.

Har bir harbiy xizmatchi tartib va intizom o‘rnatalishida komandirga (boshliqqa) ko‘makchi bo‘lishi kerak. Bu ishdan bo‘yin tovlagan harbiy xizmatchi javobgarlikka tortiladi.

Yakkaboshliqlikning asosiy prinsipi komandir (boshliq)ning buyruq berish huquqi va uning qo‘l ostidagilarning so‘zsiz bajarishiga asoslanadi. Komandir (boshliq)ga ochiqchasiga bo‘yin egmaslik yoki qarshilik ko‘rsatish hollari yuz berganda, tartib va intizomni tiklash uchun u aybdorni qonun va harbiy nizom doirasida barcha majburlash choralarini qo‘llash, hatto qamoqqa olishi va uni jinoiy javobgarlikka tortishi mumkin. Bunday holda qurol jangovar vaziyatda, tinch davrda esa favqulodda holatlarda, noilojlik sharoitida, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat Nizomi talablari doirasida qo‘llanishi mumkin.

Rag‘batlantirish va intizomiy ta’zirlar ko‘rishga «alohida holatlarda intizomiy ta’zirlar ko‘rish» qismida bevosita boshliq va boshliqlargina ega.

Kichik lavozimdagи boshliqlarga berilgan intizomiy vakolatlar har doim katta boshliqqa ham taalluqlidir.

Vaqtincha vazifasini bajarish hollarida komandir (boshliq)lar buyruqqa ko‘rsatilgan lavozim bo‘yicha intizomiy hokimiyatga ega bo‘ladilar.

Bo‘linma, harbiy qism va qo‘shin komandirining o‘rinbosarlari, kema komandirining yordamchilari o‘z qo‘l ostidagilarga nisbatan intizomiy hukm o‘tkazishda bevosita boshliqlariga nisbatan bir pog‘ona past huquqlarga egadirlar.

Brigada komandiri o‘rinbosari va undan quyи lavozimdagи ofitserlar bo‘linmalar yo komandalar bilan boshliq sifatida safarga chiqqanlarida, shuningdek, o‘z qismi turgan joydan tashqarida harbiy qism komandiri buyrug‘ida belgilangan topshiriqlarni mustaqil bajarayotgan hollarda o‘zi egallab turgan lavozimidан bir pog‘ona yuqori intizomiy hokimiyatga ega bo‘ladi.

Boshliqlar tomonidan tayinlangan harbiy xizmatchilar quyidagi intizomiy hokimiyatga ega bo‘ladilar: askarlar, matroslar, serjantlar va starshinalar - rota (komanda) starshinasи hokimiyatiga; starshina, kema bosh starshinasи, praporshchik va michman unvonidagilar - vzvod (guruh) komandiri hokimiyatiga;

vzvod (guruh) komandiri unvonidagi praporshiklar va michmanlar - rota komandiri hokimiyatiga ega bo'ladilar.

Harbiy bilim yurtlari tinglovchilari va kursantlarining komandirlari - ofitserlari o'z qo'l ostidagilarga nisbatan intizomiy hukm chiqarishda o'z lavozimlaridan bir pog'ona yuqori lavozim hokimiyatiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilariga nisbatan, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Raisi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o'z qo'l ostidagi qo'shinlar harbiy xizmatchilariga nisbatan ushbu Nizomdagi intizomiy hokimiyatga to'la egadirlar.

Rag'batlantirishlar va intizomiy tazirlar

Rag'batlantirish harbiy xizmatchilarni tarbiyalashning va harbiy intizomni mustahkamlashning muhim vositasidir.

Har bir komandir (boshliq) ushbu Nizomda berilgan huquqlar doirasida o'z qo'l ostidagi harbiy xizmatchilarni ko'rsatgan jasorati, foydali tashabbusi, tirishqoqlik va a'lo xizmati uchun rag'batlantirishi lozim.

Agar komandir (boshliq) o'rnak ko'rsatgan harbiy xizmatchilarni rag'batlantirish bo'yicha o'z huquqlarini yetarli deb hisoblamasa, u rag'batlantirish bo'yicha o'zidan katta komandir (boshliq)ga murojaat qilishi mumkin.

Harbiy burchini bajarishdagi jasorati va mardligi, qo'shnlarga namunali rahbarligi va boshqa O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlati oldidagi beqiyos xizmatlari uchun, jangovar tayyorgarlikdagi yuqori natijalari, yangi quroslasha va harbiy texnikalarning namunalarini a'lo darajada o'zlashtirganligi uchun boshliqlar brigada komandiri tomonidan, unga tenglar va undan yuqori lavozimdagilar, shuningdek, intizomiy hokimiyatga ega bo'lgan batalon komandiri mavqeидаги, alohida harbiy qism komandirlari o'z qo'l ostidagi harbiy xizmatchilarni davlat mukofotlariga taqdim etish uchun tavsiya berish huquqiga egadirlar.

Rag‘batlantirishlarni qo‘llash tartibi

Komandirlar (boshliqlar) rag‘batlantirishni alohida harbiy xizmatchiga nisbatan hamda bo‘linmaning shaxsiy tarkibi, harbiy qismga nisbatan ham qo‘llashlari mumkin.

Bitta namunali ish uchun faqat bir marta rag‘batlantiriladi. Rag‘bat shakli tanlanganda harbiy xizmatchining namunali jihatlari yoki xizmatining o‘rni, shuningdek, xizmatga bo‘lgan munosabati e’tiborga olinadi.

Oldin intizomiy ta’zir olgan harbiy xizmatchi uning bekor qilinishi bilan taqdirlanadi. Intizomiy ta’zirning bekor qilinishi huquqi uni joriy etgan komandirda (boshliqda), shuningdek, undan kam intizomiy hokimiyatga ega bo‘lmagan bevosita boshliqda bo‘ladi.

Bir vaqtning o‘zida harbiy xizmatchidan bitta intizomiy ta’zir bekor qilinishi mumkin.

Komandir (boshliq) intizomiy ta’zirni, qachonki u tarbiyaviy rol o‘ynagach va harbiy xizmatchi harbiy burchni bajarishda namunali xulqi bilan o‘zini ko‘rsatgach bekor qilish huquqiga ega.

Intizomiy ta’zirning bekor qilinishi - harbiy unvon (lavozim)dan pasaytirish - chaqiriq bo‘yicha xizmat o‘tayotgan, harbiy unvon (lavozim)dan pasaytirilganiga kamida uch oy bo‘lgan harbiy xizmatchilarga nisbatan joriy etiladi.

Intizomiy ta’zirning bekor qilinishi - harbiy lavozimdan pasaytirish - shartnoma asosida xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilarda va ofitserlarda quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- askar, matros, serjant va starshinalarda - olti oydan keyin;
- praporshik, michman va ofitserlarda - lavozimidan pasaytirilgandan kamida bir yil keyin.

Chaqiriq bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan, harbiy unvoni pasaytirilgan serjant va starshinalar egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar oldingi harbiy unvoniga intizomiy chorani bekor qilish bilan bir vaqtda tiklanadilar.

Intizomiy ta'zir - harbiy xizmatchining lavozimidan pasaytirish bekor qilinishi uning oldingi lavozimiga tiklanishi bilan bir vaqtda yuz bermasligi ham mumkin.

Rag'batlantirish - **minnatdorchilik bildirish** - alohida harbiy xizmatchiga nisbatan, shuningdek, bo'linmaning, harbiy qismning barcha shaxsiy tarkibiga nisbatan ham qo'llaniladi.

Rag'batlantirish - harbiy xizmatchining yurtiga yoki xizmatgacha bo'lgan ish (o'quv) joyiga uning harbiy burchni namunali bajarayotgani va rag'batlantirish olganligi to'g'risida xabar berish orqali, shuningdek, u muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarga nisbatan ham qo'llaniladi, bunda uning yurtiga yoki oldingi ish (o'quv) joyiga harbiy burchni namunali bajarayotgani va rag'batlantirish olganligi to'g'risida minnatdorchilik xati tarzida jo'natiladi.

Rag'batlantirish - **Faxriy yorliq bilan, qimmatbaho sovg'a yoki pul bilan mukofotlash** - barcha harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladi va u minnatdorchilik bildirish bilan bir vaqtda o'tkazilishi, bunda faxriy yorliq bilan alohida harbiy xizmatchilar ham, bo'linmaning, harbiy qismning barcha shaxsiy tarkibi mukofotlanishi ham mumkin, qoidaga ko'ra bunday taqdirlash o'quv davrining yakunida (o'quv yilining), zahiraga bo'shatilganda (iste'foga chiqqanda), shuningdek, musobaqa (tortishuv) yakunlari chiqarilganda amalga oshiriladi.

Rag'batlantirish - harbiy qism Jangovar Bayrog'i oldida harbiy xizmatchining shaxsiy suratini olish bilan mukofotlash - soldat, matros, serjant va starshinalarga nisbatan qo'llaniladi.

Bu rag‘batlantirish qo‘llanilgan har bir harbiy xizmatchiga ikki dona surat topshiriladi (harbiy xizmatchi parad-bayram libosida, qurollangan holda suratga tushadi), suratning orqa tomonida kimga va nima uchun berilgani yozib qo‘yiladi.

Rag‘batlantirish - muddatidan oldin harbiy unvon berish va shtat bo‘yicha egallab turgan lavozimidagi harbiy unvonidan bir pog‘ona yuqori unvon berish - davlatni himoya qilishda ko‘rsatilgan yuksak axloqiy-jangovar fazilatlari, jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) faoliyati yoki harbiy xizmatning boshqa vazifalarini bajarishda jangovar tayyorgarlikdagi a’lo ko‘rsatkichlar va harbiy intizomni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun beriladi.

A’lochingning ko‘krak nishoni bilan butun o‘quv davrida a’lochi bo‘lgan soldat, matros, serjant, starshinalargina va butun o‘quv yili mobaynida a’lochi bo‘lgan harbiy bilim yurtining kursantlari taqdirlanadi.

Rag‘batlantirish - harbiy qism Hurmat kitobiga kiritish - quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- muddatli xizmatdagi askar, matros, serjant va starshinalarga xizmatni o‘tashdagi yuqori intizom va onglilik namunasi va jangovar tayyorgarlikdagi a’lo natijalari uchun zahiraga bo‘shatishdan oldin (harbiy o‘quv yurtlari kursant va tinglovchilari - o‘quv yili yakunida);

- shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchi Qurolli Kuchlar safidagi namunali xizmati uchun, shuningdek, xizmat burchini bajarishdagi alohida o‘rnak ko‘rsatgan barcha harbiy xizmatchilar - xizmatning butun muddati ichida.

Harbiy qism (kema) Hurmat kitobiga nomi yozilishi to‘g‘risida e’lon qilinganda harbiy xizmatchiga harbiy qism (kema) komandirining imzosi bilan maqtov yorlig‘i topshiriladi, muddatli xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchining familiyasi, ismi, otasining ismi harbiy qism (kema) Hurmat kitobiga kiritilishi to‘g‘risida uning yurtiga yoki xizmatdan oldingi ish (o‘quv) joyiga xabar qilinadi.

Rag‘batlantirish - muddatli xizmatdagi soldat, matros, serjant va starshinalarga (harbiy o‘quv yurti kursantlari bundan istisno) **qisqa muddatli ta’til berish** - yo‘lga ketgan vaqt hisobga olinmasdan 10 sutkagacha ta’til jangovar tayyorgarlikdagi a’lo natijalari, xizmatdagi tirishqoqligi va o‘rnak bo‘lganligi uchun beriladi.

Nomi yozilgan sovuq va o‘qotar qurol bilan taqdirlash O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat oldidagi alohida xizmatlari va jangovar jasorati uchun alohida o‘rnak ko‘rsatgan ofitserlar uchun faxrli mukofot hisoblanadi. Nomi yozilgan qurol qilich, kortik, pistolet yoki ov miltig‘i bo‘lishi mumkin. Qurolda tegishli yozuvdan tashqari mukofotlanganning familiyasi, ismi, otasi ismining bosh harflari va harbiy unvoni ko‘rsatiladi. Yozuv qurolning o‘ziga yoki qurolga biriktirilgan metall plastinaga, qin yoxud qopchiqqa bajarilishi mumkin.

Rag‘batlantirish saf oldida, harbiy xizmatchilarining yig‘ilishida (kengashida) buyruq bilan yoki shaxsan e’lon qilinadi.

Rag‘batlantirishlar to‘g‘risidagi buyruqlarni e’lon qilish, shuningdek, o‘rnak ko‘rsatganlarni mukofotlash odatda tantanali vaziyatda amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risidagi buyruq bilan bir vaqtda qoidaga ko‘ra, faxriy yorliqlar, qimmatbaho sovg‘alar yoki pul, harbiy qism Jangovar Bayrog‘i oldida olingan harbiy xizmatchining shaxsiy surati, a’lochining ko‘krak nishonlari topshiriladi, shuningdek, xizmat burchini namunali o‘tkazayotgani to‘g‘risida harbiy xizmatchining yurtiga yoki oldingi ish (o‘quv) joyiga yuboriladigan xatning matni o‘qib eshittiriladi.

Harbiy xizmatchi tegishli komandir (boshliq) tomonidan intizomiy ta’zir chorasi bekor qilingach yoki unga ohirgi ta’zirdan so‘ng bir yil o‘tgach va bu muddatda u boshqa nojo‘ya xatti-harakatga yo‘l qo‘ymagan bo‘lsa (ushbu Nizomning 38-moddasidagi holatlardan tashqari), u intizomiy ta’zirga tortilmagan hisoblanadi.

Intizomiy tazirlar

Harbiy intizomni buzgani va ma'muriy qonunbuzarlik uchun harbiy xizmatchi shaxsan javobgardir.

Harbiy xizmatchi tomonidan harbiy intizom buzilganda yoki ma'muriy qonunbuzarlik sodir etilganda komandir (boshliq) uning mas'uliyati va harbiy burchi to'g'risida ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin, zarurat taqozo etganda esa intizomiy ta'zir berishi mumkin. Bunda u berilgan ta'zir intizomni mustahkamlash va harbiy xizmatchilarni tarbiyalash chorasi sifatida sodir etilgan nojo'ya xatti-harakati og'irligi va qilingan aybi darajasi komandir (boshliq) tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijasiga ko'ra mos kelishini inobatga olishi kerak.

Harbiy xizmatchilarning harbiy intizomni buzishi, jamoatchilik muhokamasi va ma'muriy qonunbuzarlik xatti-harakatlariga yo'l qo'yganligi komandir (boshliq)ning qarori bilan quyidagi tarzda ko'rib chiqiladi va muhokama qilinadi:

askar va matroslar - shaxsiy tarkib yig'ilishida;

serjant va starshinalar - serjant va starshinalar yig'ilishida;

praporshik va michmanlar - praporshik va michmanlar yig'ilishida;

harbiy xizmatchi ayollar - xatti-harakati muhokama qilinayotgan harbiy xizmatchi ayollar harbiy unvoni (lavozimi)dan past bo'limgan harbiy unvon (lavozim)dagi harbiy xizmatchi ayollar yig'ilishlarida;

ofitserlar — ofitserlar yig'ilishlarida.

Bundan tashqari, ofitserlar, praporshiklar, michmanlarning xatti-harakati ofitserlar, praporshiklar va michmanlarning o'rtoqlik nomus sudlarida ko'riliши mumkin.

Ofitserlar, praporshiklar va michmanlarning xatti-harakatlarni o'rtoqlik nomus sudlarida ko'rib chiqish to'g'risidagi qaror sud tashkil qilingan harbiy qism komandirlari tomonidan, shuningdek, ularning katta boshliqlari tomonidan qabul qilinadi.

Ofitser, praporshik, michmanlarning nojo‘ya xatti-harakatini o‘rtoqlik nomus sudlarida ko‘rib chiqish to‘g‘risida qaror qabul qilish va ularga bir vaqtning o‘zida shu xatti-harakati uchun intizomiy ta’zir berish taqiqlanadi.

Orqaga surib bo‘lmaydigan holatlarda zabitni o‘z lavozimidan bo‘shatish mumkin.

Ofitserlarni o‘z lavozimidan bo‘shatish, ularni shu lavozimga tayinlash huquqi berilgan komandirlar (boshliqlar) tomonidan amalga oshiriladi.

O‘z qo‘l ostidagini lavozimidan chetlatgan komandir (boshliq) bu haqda zudlik bilan lavozimdan chetlatishga sabab bo‘lgan holatlar haqida batafsil bayon etib hisob berishi lozim.

Qo‘l ostidagini o‘z lavozimidan yetarli asossiz chetlatgan komandir (boshliq) bu uchun javobgarlikka tortiladi.

Intizomiy ta’zir berish tartibi

Harbiy intizomni buzgan yoki ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan harbiy xizmatchiga faqat ushbu Nizomda belgilangan va uning harbiy unvoniga tegishli intizomiy ta’zirlar va uni intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risida qaror qabul qilgan komandir (boshliq)ning intizomiy hokimiyati doirasida chora ko‘riladi.

Komandir (boshliq) tomonidan o‘z qo‘l ostidagiga intizomiy ta’zir berishdan oldin bu hol muhokama etilishi kerak. U aybdor shaxslarni voqeа sodir bo‘lishiga olib kelgan sabab va sharoitlarni aniqlash uchun o‘tkaziladi.

Muhokamada komandir (boshliq) quyidagilarni aniqlaydi:

- chindan ham voqeа sodir bo‘lganmi;
- qachon va qaerda, qay vaziyatda va qanday maqsad bilan u sodir etildi;
- u qanday yuz berdi;
- konkret shaxslar xatti-harakatidagi ayb va voqeа bir necha kishi tomonidan sodir etilganda har birining aybi;
- voqeaning asoratlari qanday, aybdorning javobgarligini yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar;

- voqeani sodir etishga xizmat qilgan sabab va sharoitlar.

Muhokama chog‘ida harbiy xizmatchining xatti-harakatida jinoyat tarkibi borligi aniqlansa, harbiy qism komandiri harbiy prokurorni xabardor qiladi, zarurat taqozosidan jinoiy ish qo‘zg‘ab, tergov boshlaydi.

Intizomiy ta’zir chorasi va aybi aniqlanayotganda quyidagilar e’tiborga olinadi: xatti-harakatning xarakteri, u sodir etilgan holat, uning oqibatlari, aybdorning oldingi xulqi, shuningdek, uning harbiy xizmatni o‘tash davomiyligi va uning xizmat o‘tash tartibini bilish darajasi.

Intizomiy ta’zirning qattiqligi, agar voqeа jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) va boshqa xizmat vazifalarini bajarishda, mast holatda yoki tartibni jiddiy buzishga olib kelsa, kuchayadi.

Nojo‘ya xatti-harakatga yo‘l qo‘ygan harbiy xizmatchiga intizomiy ta’zir berish yoki tavsiya qo‘zg‘ash 89-moddaga binoan qoida bo‘yicha 1 sutkadan keyin, lekin bu voqeа haqida komandirga (boshliqqa) ma’lum bo‘lgandan keyin, 10 kun ichida amalga oshirilishi kerak. Komandir (boshliq) intizomiy ta’zir qo‘llash chog‘ida o‘z qo‘l ostidagining shaxsiy izzat-nafsi yerga urmasligi va qo‘pollikka yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Komandir (boshliq)ning o‘z qo‘l ostidagi harbiy xizmatchiga ogohlantirish, tanbeh yoki qattiq ko‘rsatma berishi xizmatdagi yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun intizomiy ta’zir hisoblanmaydi.

O‘zini aybdor bilmagan harbiy xizmatchi intizomiy ta’zir berilgan muddatdan boshlab 10 sutka ichida shikoyat qilishi mumkin.

Sutkalik naryad tarkibidagi (harbiy jangovar navbatchilik) o‘tayotgan xizmatni bajarish vaqtida sodir etgan xatti-harakati uchun intizomiy ta’zir berish naryad (jangovar navbatchilik) smenasi almashgandan so‘ng yoki uni boshqa harbiy xizmatchi bilan almashtirilgandan so‘ng, lekin bir sutkadan keyin amalga oshiriladi.

Mast holatdagi harbiy xizmatchiga intizomiy ta’zir qo‘llash, shuningdek, undan biror bir tushuntirish olish u hushiga kelguncha kechiktiriladi. Bunday holda zarurat taqozo qilganda u gauptvaxtaga yoki vaqtincha ushlanganlar kamerasiga 1

sutka muddat bilan yotqiziladi, shundan keyin uning javobgarligi to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Bir nojo‘ya xatti-harakat uchun bir necha intizomiy ta’zir berish yoki bir ta’zirni ikkinchisi bilan qo‘shib yuborish, bevosita aybdorlarni jazolash o‘rniga butun shaxsiy tarkibga ta’zir berish, shuningdek, noma’lum muddatga bandi qilish taqiqlanadi.

Agar komandir (boshliq) o‘z qo‘l ostidagi sodir etgan xatti-harakatining og‘irligidan kelib chiqib, o‘z intizomiy hokimiyatini yetarli deb bilmasa, unda aybdorga ta’zir berish uchun katta komandir (boshliq) hokimiyatiga tavsiya beradi.

Komandir (boshliq) o‘ziga berilgan intizomiy hokimiyatni oshirib yuborsa, buning uchun javobgarlikka tortiladi.

Katta komandir (boshliq) kichik komandir (boshliq) tomonidan berilgan intizomiy ta’zirni qattiqqo‘llik nuqtai nazaridan unga berilgan hokimiyat darajasidan oshmagan bo‘lsa, ta’zirni bekor qilish yoki yumshatish huquqi berilmaydi.

Katta komandir (boshliq) kichik komandir (boshliq) tomonidan berilgan ta’zir sodir etilgan xatti-harakat og‘irligiga to‘g‘ri kelmaydi, deb bilsa, uni bekor qilish huquqiga ega va qattiqroq ta’zir berishi mumkin.

Sodir etgan jinoyati va davlatga yetkazgan zarari uchun intizomiy ta’zirga tortilgan harbiy xizmatchi jinoiy va moddiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Intizomiy ta’zirlarni ijro etish tartibi

Intizomiy ta’zirlar qoidagi ko‘ra zudlik bilan ijro etiladi va favqulotda holatlarda 1 oy ichida ijro etiladi. Bir oylik muddat tugagach, ta’zir ijro etilmaydi, lekin u haqdagi qayd xizmat varaqasida saqlanadi. Ushbu holatda berilgan ta’zir ijro etilmay qolishiga aybdor bo‘lgan shaxs javobgar bo‘ladi.

Shikoyat berilgan taqdirda intizomiy ta’zirni ijro etish to‘xtatilmaydi, katta komandir (boshliq)ning uni bekor qilish haqidagi buyrug‘idan so‘ng to‘xtatiladi.

Berilgan intizomiy ta’zirlarning tartibi va qo‘llanilishi ushbu Nizomda ko‘rsatilmagan bo‘lsa, unda:

- askar, matroslarga - shaxsan va saf oldida;

- serjant va starshinalarga - shaxsan, yig‘ilishda yoki serjant va starshinalar safi oldida;

- praporshik va michmanlarga - shaxsan, praporshik va michmanlarning yig‘ilishida, shuningdek, praporshik, michman va ofitserlar yig‘ilishda;

- ofitserlarga - shaxsan, ko‘rsatma orqali yoki yig‘ilishda (katta ofitserlarga - katta ofitserlar ishtirokida, oliy ofitserlarga - oliy ofitserlar ishtirokida). Bundan tashqari, intizomiy ta’zirlar buyruq orqali ham e’lon qilinishi mumkin.

Komandirlar (boshliqlar)ga o‘z qo‘l ostidagilar huzurida intizomiy ta’zir berish taqiqlanadi.

Harbiy xizmatchiga intizomiy ta’zir e’lon qilinganda jazolashga olib kelgan sabablar va harbiy intizomni yoki jamoat tartibini buzilish sabablari ko‘rsatiladi.

“Hayfsan” dastlabki intizomiy ta’zir hisoblanadi va ushbu Nizomning 91-moddasiga ko‘ra harbiy xizmatchiga e’lon qilinadi.

“Qattiq hayfsan” faqat saf oldida, yig‘ilishda yoki buyruq orqali e’lon qilinadi.

“Harbiy qism hududidan navbatdagi javob berishdan mahrum qilish” muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarni xizmat zaruratisiz harbiy qism hududidan 7 sutkagacha chiqishini taqiplaydi, jumladan (bo‘linma tarkibida) jamoa bo‘lib harbiy shaharchadan tashqarida joylashgan madaniy istirohat o‘choqlariga va dam olish joylarda qatnashishini man etadi.

Intizomiy ta’zir – **“ish uchun navbatdan tashqari naryadga jo‘natish”** - rota (komanda) starshinasи yoki vzzvod komandirining o‘rinbosari tomonidan ijro etiladi.

Muddatli xizmatdagi askar va matroslar, shuningdek, harbiy o‘quv yurtining kursantlari ishga navbatdan tashqari naryadga tayinlanganda o‘z bo‘linmasi yoki harbiy qismda mashg‘ulotlardan bo‘sh vaqtida, haftaning har qanday kuni bu ishni bajarishga jalb etiladilar. Bir ish naryadining vaqt vaqtida 4 soatdan oshmasligi kerak. Ish tungi uyqu vaqtigacha bajarilishi lozim.

“Gauptvaxtada ushlab turish uchun bandi qilish” eng og‘ir ta’zir choralaridan hisoblanadi va harbiy xizmatchi tomonidan qo‘pol intizomiy xatti-harakat sodir etilganda yoki komandir (boshliq)ning boshqa choralari samarasiz bo‘lganda qo‘llaniladi.

Harbiy qasamyod qabul qilmagan harbiy xizmatchiga nisbatan gauptvaxtada ushlab turish uchun bandi qilish qo‘llanilmaydi.

Gauptvaxtada ushlab turish uchun bandi qilish tartibi 5-ilovada bayon qilingan.

“A’lochingin ko‘krak nishonidan mahrum qilish” tegishli intizomiy hokimiyatga ega bo‘lgan komandir (boshliq)ning yozma buyrug‘i bilan e’lon qilinadi va quyidagi tarzda ijro etiladi:

- askar va matroslarga nisbatan harbiy qism safi oldida;
- serjant va starshinalarga nisbatan - serjant va starshinalar safi oldida.

Intizomiy ta’zir – **“xizmatga notamom noloyiqligi to‘g‘risida ogoohlantirish”** - harbiy xizmatchi shtat bo‘yicha egallab turgan lavozimi davrida bir marta qo‘llaniladi.

Agar bir yil muddat ichida ushbu ta’zir qo‘llanilgandan keyin harbiy xizmatchi o‘z xulqini, harbiy burchini namunali bajarish bilan to‘g‘rilamagan bo‘lsa va ta’zir o‘zining tarbiyaviy rolini o‘tkazolmagan bo‘lsa, u o‘rnatilgan tartibda lavozimidan pasaytirish yoki harbiy xizmatdan muddatidan oldin zahiraga bo‘shatishga tavsiya etiladi.

- Intizomiy ta’zir – **“harbiy unvonidan pasaytirish, shu jumladan uni quyi lavozimga o‘tkazish”** - tegishli intizomiy hokimiyatga ega bo‘lgan komandir (boshliq) buyrug‘i bilan qo‘llaniladi. Harbiy unvonidan bir pog‘ona pasaytirish - intizomiy ta’zir qo‘llanilganda u e’lon qilingach, tegishli nishonlarni almashtirish uchun fursat ajratiladi. Pogonlarni uzish, yorliqlarni kesib olish va harbiy xizmatchining shaxsini tahqirlovchi boshqa harakatlar taqiqlanadi.

Intizomiy ta’zir – “**serjant va starshinalarni serjant va starshinalik unvonidan mahrum qilish**” - bosh starshina va quyidagilarni - shu jumladan past lavozimga o’tkazish muddatli harbiy xizmatni o’tayotgan harbiy xizmatchilarga nisbatan qo’llaniladi va tegishli intizomiy hokimiyatga ega bo’lgan komandir (boshliq) buyrug‘i bilan e’lon qilinadi.

- Intizomiy ta’zir – “**harbiy xizmatdan muddatdan oldin zaxiraga bo’shatish**” - harbiy xizmatchi sha’niga dog‘ tushiruvchi xatti-harakat uchun qo’llaniladi va harbiy xizmatchi O‘zbekiston Respublikasining «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi» Qonuni talablariga javob berolmay qolgan taqdirda qo’llaniladi.

3-§. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi Umumiylar qoidalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 oktabrdagi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovullik xizmatlari nizomi tasdiqlangan.

Ushbu Nizom garnizon va qorovulaik xizmatlarini tashkil qilish va o‘tash, ushbu xizmatni o’tayotgan garnizon mansabdor shaxslari va harbiy xizmatchilarining huquq va majburiyatlarini, shuningdek, qo‘sishlar ishtirokida garnizon tadbirlari o’tkazish tartiblarini o‘z ichiga oladi.

Nizom chegara qo‘sishlari va milliy xavfsizlik xizmati qo‘sishlari, Ichki ishlar vazirligi ichki qo‘sishlari, O‘zbekiston Respublikasining boshqa shunga daxldor vazirliklari va idoralari harbiy xizmatchilariga ham dasturilamaldir.

O‘zbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlari harbiy qismlari shtablari, boshqarmalari, muassasalari va harbiy bilim yurtlarining barcha harbiy xizmatchilari va mansabdor shaxslari garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Aholi punktida yoki undan tashqarida doimiy yoki vaqtinchalik joylashgan harbiy qismlar garnizonni tashkil qiladi.

Katta garnizonlar safiga, odatda, shu aholi punkti atrofida joylashgan barcha harbiy qismlar kiradi.

Har bir garnizonda garnizon va qorovullik xizmatlari tashkil qilinadi.

Garnizon xizmatining maqsadi garnizonda harbiy intizomni ta'minlash, qo'shnlarning hayoti va tayyorgarligi uchun zarur sharoit, trevoga bo'yicha ularning xatti-harakat qilishini hamda qo'shnlar ishtirokida garnizon tadbirlari o'tkazishni ta'minlashdan iboratdir.

Qorovullik xizmati jangovar bayroqlarni, harbiy va boshqa materiallar saqlanadigan, quroq-aslaha omborlarini, harbiy va davlat ob'ektlarini, shuningdek, gauptvaxta hamda axloq tuzatish batalonlarida saqlanayotgan shaxslarni qo'riqlash uchun tashkil qilinadi.

Garnizon xizmati tashkil etiladigan hudud chegarasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri buyrug'i bilan belgilanadi.

Bu chegaraga qo'shnlar joylashgan punktlardan tashqari garnizon harbiy qismi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadigan yaqin atrofdagi bir necha aholi punktlari va tumanlar ham kirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida Harbiy Kuchlardagi garnizon va qorovullik xizmatlariga rahbarlik Mudofaa vaziri tomonidan, garnizon hududida esa garnizon boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

Tinchlik o'rnatish uchun O'zbekiston Respublikasi Harbiy Kuchlari boshqa davlat chegarasiga kirgan paytda garnizon va qorovullik xizmatlariga rahbarlik, garnizon chegarasi O'zbekiston Respublikasi va o'sha davlat o'rtasida xalqaro shartnomaga binoan O'zbekiston qo'shnlarining o'sha davlatda bo'lishi maqomida belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Garnizon va qorovullik xizmatlarining holatiga javobgarlik o'sha qo'shnlarning bevosita boshliqlari zimmasiga yuklatiladi. Boshliqlar bevosita o'ziga qarashli qo'shnlarda garnizon va qorovullik xizmatining holatini doimiy ravishda tekshirib turishga, shuningdek, garnizonlarning boshliqlari va harbiy

komendantlar bilan garnizonlarda harbiy intizom va qoidalarni yana ham mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar o‘tkazib turishga majburdir.

Garnizon boshlig‘ining garnizon va qorovullik xizmatini tashkil etish haqidagi buyrug‘i shu garnizon hududida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi harbiy qismlari, jamoalari va har bir harbiy xizmatchisi tomonidan so‘zsiz bajarilishi shart.

Qo‘sishinlar poligon va lagerlarda joylashgan paytlarda harbiy intizomga amal qilish tadbirlari, poligon va lagerlarni qo‘riqlash O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ichki xizmat Nizomi va ushbu Nizom asosida amalga oshiriladi.

Garnizon va qorovullik xizmatlarini amalga oshirishga garnizon tarkibiga kirgan harbiy qismlar jalb etiladi.

Bundan buyon qisqacha «harbiy qism» deb yuritiladi

Garnizon va qorovullik xizmatlariga jalb etilmaydigan harbiy qismlar ro‘yxati Mudofaa vazirligi Bosh shtabi tomonidan e’lon qilinadi.

Garnizon harbiy qismlar tomonidan navbatma-navbat garnizon va qorovullik xizmatlarini o‘tash tartibi qismlarning tarkibi va vazifasiga qarab garnizon boshlig‘i tomonidan belgilanadi.

Harbiy-o‘quv yurtlari garnizon va qorovullik xizmatlariga o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan vaqtlardagina jalb etiladilar.

Harbiy xizmatchi-ayollar harbiy xizmatchilarni dafn etish marosimida harbiy hurmat ko‘rsatishda, yodgorliklarga, Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun halok bo‘lgan askarlar qabriga gullar qo‘yishda hamda garnizon tadbirlaridagina ishtiroy etadilar. Ular garnizon va qorovullik xizmatlariga jalb etilmaydi.

Har bir harbiy xizmatchi garnizon va qorovullik xizmatlarini o‘tayotganlarga yordam ko‘rsatishga majbur.

Patrul, harbiy avtomobil nazorati yoki qorovul xizmati paytida qoida buzilganini sezgan harbiy xizmatchi bu haqda garnizon harbiy komendantiga yoki garnizon navbatchisiga (harbiy qism navbatchisiga, qorovul boshlig‘iga) va o‘zining bevosita boshlig‘iga zudlik bilan xabar berishi shart.

Qorovullik xizmatini tashkil etish va qorovullarni tayyorlash

Qorovullik xizmatini o‘tash jangovar vazifani bajarish hisoblanadi va shaxsiy tarkibdan ushbu Nizomning barcha qoidalariga to‘la amal qilishni, yuksak hushyorlik, bukilmas matonat va tashabbuskorlikni talab etadi. Qorovullik xizmati talablarini buzgan aybdorlar axloq tuzatishga va jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Qorovullik xizmatini o‘tash uchun qorovullar tayinlanadi. Jangovar Bayroqni, harbiy va davlat ob’ektlarini ko‘riqlash va himoya qilish bo‘yicha jangovar vazifani bajarayotgan, shuningdek, gauptvaxta va axloq tuzatish batalonlarida saqlanayotgan shaxslarni qo‘riqlayotgan qurollangan bo‘linma qorovul deb ataladi. Qorovullar garnizon qorovuli va ichki qorovul turlariga bo‘linadi; ular doimiy va vaqtinchalik bo‘lishi mumkin.

Garnizon qorovuli korpusga va markazga bo‘ysunadigan ob’ektlarni qo‘riqlash va himoya qilish, o‘zining qo‘riqlash bo‘linmasiga ega bo‘lмаган umumgarnizon ahamiyatiga molik ob’ektlarni, bir-biriga yaqin joylashgan harbiy qismlar va bo‘linmalar ob’ektlarini, shuningdek, garnizon gauptvaxtasida saqlanayotgan shaxslarni qo‘riqlash uchun tashkil qilinadi.

Ichki qorovul har bir harbiy qism ob’ektlarini qo‘riqlash va himoya qilish uchun tayinlanadi.

Samolyotlar (vertolyotlar) va aerodromdagi aviatsiya qismining boshqa ob’ektlari aviatsiya-texnika qismidan tayinlangan ichki qorovul tomonidan qo‘riqlanadi va himoya qilinadi.

Doimiy qorovullar qorovullar jadvalida bo‘ladi. vaqtinchalik qorovullar qorovullar jadvaliga yozilmaydi; ular ortilayotgan va tushirilayotgan yoki vaqtincha omborda turgan harbiy mollarni qo‘riqlash va himoya qilish, turli transport vositalarida tashilayotgan harbiy mulklarni kuzatish, shuningdek, bandilar va mahbuslarni qo‘riqlash uchun garnizon boshlig‘i yoki harbiy qism boshlig‘ining buyrug‘i bilan tayinlanadi.

Garnizon qorovuli garnizon boshlig‘iga, garnizon harbiy komendantiga, garnizon bo‘yicha navbatchi va uning yordamchisiga bo‘ysunadi; garnizon gauptvaxtasi qorovuli ulardan tashqari gauptvaxta boshlig‘iga ham bo‘ysunadi.

Ichki qorovul harbiy qism komandiriga, harbiy qism bo‘yicha navbatchiga va agar ofitser bo‘lsa harbiy qism bo‘yicha navbatchi yordamchisiga bo‘ysunadi. Harbiy qism bo‘linmalaridan alohida joylashgan batalon (divizion) ob’ektlarini qo‘riqlayotgan ichki qorovul yuqoridagilardan tashqari o‘scha batalon (divizion) komandiriga va harbiy unvoni jihatdan teng yoki katta bo‘lsa, o‘scha batalon (divizion) bo‘yicha navbatchiga bo‘ysunadi.

Praporshchiklardan tayinlangan harbiy qism bo‘yicha navbatchi yordamchisiga boshliqlari ofitser bo‘lmagan qorovullar bo‘ysunadi, serjantlardan tayinlangan harbiy qism bo‘yicha navbatchi yordamchisiga esa boshliqlari serjant bo‘lgan qorovullar bo‘ysunadi. Tarqatish paytida garnizon (harbiy qism) bo‘yicha navbatchini qarshi olish uchun «Qaddingni rost-la» komandasasi berilgan fursatdan boshlab qorovullar yuqoridagi shaxslar ixtiyoriga o‘tadi. Almashuvdan so‘ng o‘z harbiy qismiga (bo‘linmasiga) yo‘lga chiqish uchun qorovul boshlig‘ining «Qadam bos» komandasasi berilgan fursatdan boshlab ularning ixtiyoridan chiqadi.

Qorovul tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ladi: qorovul boshlig‘i, post va almashuv soni bo‘yicha qorovullar, tarqatuvchi, zarurat tug‘ilsa qorovul boshlig‘i yordamchisi, qorovul boshlig‘ining texnik vositalar bilan qo‘riqlash bo‘yicha yordamchisi (operator) yoki operatorlar smenasi (uch-o‘rt kishi, ulardan bittasini qorovul boshlig‘ining texnik vositalar bilan qo‘riqlash bo‘yicha yordamchisi etib tayinlashi mumkin), qorovul boshlig‘ining qo‘riqchi itlar xizmati bo‘yicha yordamchisi va transport vositalari haydovchilari.

Birlashmalar va undan yuqorining shtab va boshqarma punktlarini qo‘riqlash, shuningdek, muassasalarni qo‘riqlash bo‘yicha qorovullar safida yuqorida sanalgan shaxslardan tashqari nazorat-o‘tkazish postlari qorovullari, gauptvaxtadagi qorovul safida esa tashqariga chiqaruvchi bo‘ladi.

Ob'ektlarni bevosita qo'riqlash va himoya qilish uchun qorovullar safidan soqchilar chiqariladi. O'ziga topshirilgan postni qo'riqlash va himoya qilish bo'yicha jangovar vazifani bajaruvchi qurollangan qorovul soqchi deb ataladi. Qo'riqlash va himoya qilish uchun soqchiga topshirilgan barcha narsa, shuningdek, u o'z vazifasini bajarayotgan joy yoki yer uchastkasi post deb ataladi, texnik himoya vositalari yordamida qorovul qo'riqlayotgan ob'ektlar va bu himoya vositalari o'rnatilgan yer uchastkasi ham postga qaraydi.

Soqchi ob'ektlar himoyasini ob'ekt atrofida ichki va tashqi devor o'rtasida, agar ob'ekt bitta devor bilan o'ralganbo'lsa, devorning ichki tomoni bo'ylab patrullik qilish yo'li bilan amalga oshiradi. Shuningdek, soqchilikni minoradan turib amalga oshirsa ham bo'ladi. Ayrim postlarni soqchilar joyida turib qo'riqlashlari ham mumkin.

Muhim ahamiyatga molik davlat va harbiy ob'ektlar qo'riqpanganda soqchilar o'z vazifasini kuzatuv minorasida turib amalga oshirishi mumkin. Bunday hollarda ular uzoqligi 500 metrgacha bo'lgan ob'ektlarni qo'riqlashi va himoya qilishi mumkin.

Garnizon boshliqlari, harbiy qismlar va bo'linmalar komandirlari, harbiy ob'ektlar boshliqlari, shuningdek, barcha bevosita boshliqlar doimo ob'ektlarni qo'riqlash uchun kerak bo'ladigan shaxsiy tarkib sonini qisqartirishga erishishi kerak. Quyidagi hollarda bunga erishish mumkin:

- texnik vositalardan foydalangan holda soqchi qo'ymasdan qo'riqchi itlar bilan postlarni qo'riqlashga o'tish bilan;
- turli xil harbiy qismlarga qaraydigan yonma-yon, bir devor ichida joylashgan ombor, park va boshqa qo'riqlanadigan ob'ektlarni bir qorovul himoyasiga birlashtirish bilan;
- bir joyda turib qo'riqlanadigan postlarni qisqartirish hamda piyoda va transport vositasida patrullik yo'li bilan ob'ektlarni himoya qilishni tashkil etish bilan.

Ob'ektlarni patrulllik yo'li bilan qo'riqlashni tashkil qilishda ob'ektlarning o'ralishi va yerning shart-sharoitlariga qarab qo'riqlash va himoya qilish uchun soqchiga quyidagicha qo'shimcha uchastkalar beriladi:

Kunduzi - 1000 metrgacha, kechasi - 500 metrgacha, texnik himoya vositalari bilan jihozlangan ob'ektlarda esa kunduzi - 2 kilometrgacha, kechasi - 1 kilometrgacha. Noqulay ob-havo (qalin tuman, yomg'ir, qor yog'ganda) ob'ektlar himoyasini kuchaytirish uchun garnizon boshlig'ining (harbiy qism boshlig'ining) buyrug'iga ko'ra qo'shimcha qorovul yoki transport vositasida yuruvchi patrul tayinlanishi mumkin. Bunday hollarda qo'shimcha qorovullar xizmat tartibi va patrulllik tartibi garnizon boshlig'i (harbiy qism boshlig'i) tomonidan belgilanadi.

Ob'ektni mustahkam qo'riqlashni ta'minlash uchun harakat yo'nalishi bo'yicha zudlik bilan yurib ketayotgan soqchi atrofni va devorlarni kuzatish uchun, shuningdek, xizmatining borishi haqida aloqa vositasi orqali qorovul boshlig'iga xabar berish uchun bir oz to'xtab oladi.

Atrof yaxshi ko'ringanda va joy sharoiti yo'l qo'ysa, soqchi xizmatini kuzatuv minorasida o'tashi ham mumkin.

Soqchiga yordam berish uchun har bir qorovulkxonada sergaklardan va dam olayotgan guruhdan zaxira guruhi tuziladi. Ular qorovulning «Qurollan» degan chaqirig'ini eshitishi bilan qorovul boshlig'i, uning yordamchisi yoki tarqatuvchi rahbarligida tartib buzilgan joyga yetib keladi va vaziyatga qarab ish ko'radi. Bu guruhni tartib buzilgan joyga zudlik bilan yetkazish zarur bo'lgan paytlarda ular transport vositasi bilan ta'minlanadilar. Ayrim hollarda esa bronetransportyor (jangovar mashinalar) bilan ta'minlanadilar.

Qorovul shaxsiy tarkibi qorovul kiyimida (8-ilova) bo'lishi kerak. Ular otishga yaroqli nayza-pichoqli avtomat yoki nayzali karabin bilan qurollanadilar. Nazorat-o'tish posti soqchisi to'pponcha bilan qurollanishi mumkin. Qorovul boshlig'i va uning yordamchilari shtatlari bo'yicha qurollanadilar.

Qorovullar quyidagicha jangovar patronlar bilan ta'minlanadilar: har bir to'pponcha va avtomatga - ikkitadan to'ldirilgan o'qdon; har bir karabinga - o'ttizta patron solingan bitta oboyma.

Bundan tashqari, garnizon boshlig‘ining (harbiy qism komandirining) buyrug‘iga binoan qorovullarning har biri pulemyot, uchta to‘ldirilgan o‘qdoni bilan va granata (har bir qorovulga ikkitadan) bilan qurollanishi mumkin.

Qorovul shaxsiy tarkibiga o‘q-dorilar, to‘pponcha bilan qurollanganlardan tashqari, qorovullik maydonchasidagi amaliy mashg‘ulotdan so‘ng beriladi.

Qurollarni o‘qlash tergovchi yoki dastlabki tergov organlari tomonidan qamalgan va ushlangan harbiy xizmatchilarni, sudlanganlarni va mahbuslarni qo‘riqlash uchun, shuningdek, qorovullarni tekshirgani kelgan shaxslarga hamrohlik qilish uchun postlarga chiqish oldidan amalga oshiriladi.

Qurollarni o‘qlash va o‘qsizlantirish qorovul boshlig‘i va uning yordamchisi (tarqatuvchi) buyrug‘i bilan va ularning bevosita kuzatuvi ostida qorovulxonada, o‘qtutgich o‘rnatilgan, maxsus jihozlangan yorug‘ joyda, qorovullarni almashtirish uchun mashinada yo‘lga chiqqan paytlarda esa qorovul boshlig‘i yo‘riqnomasida ko‘rsatilgan, zarurat bo‘lsa o‘qgutgich bilan jihozlangan joylarda amalga oshiriladi. O‘qlash va o‘qsizlantirish paytida qurol stvolining holati atrofdagi uy-joy binolari va qo‘riqlanayotgan ob’ektlarga qaratilmagan holda 45-60 gradusli burchakni tashkil etishi kerak. Agar qorovulxonada atrofida uy-joylar va xizmat binolari joylashgan bo‘lsa, qurollarni o‘qlash va o‘qsizlantirish qorovulxonaning o‘qtutgich o‘rnatilgan maxsus joyida amalga oshiriladi. Qurollarni o‘qsizlantirish va ko‘zdan kechirish qorovulxonaga yoki qorovul boshlig‘i yo‘riqnomasida ko‘rsatilgan joyga qaytgan zahoti amalga oshiriladi.

To‘pponchalarni o‘qlash bo‘linmalar patron olgandan so‘ng, o‘qsizlantirish esa qorovul almashuvidan so‘ng bo‘linmaga yetib kelgach amalga oshiriladi.

Qurollar har bir qurol uchun belgilangan ko‘rsatmalarga amal qilingan holda o‘qlanadi. Bunda o‘q solinmaydi.

Avtomat o‘q solingan o‘qdon bilan o‘qlanali. O‘qlashdan oldin u ko‘zdan kechiriladi (tepki tushiriladi) va saqlagichga qo‘yiladi. o‘qdon o‘rnatilgan zatvor ramasini orqaga tortmaslik kerak.

Karabin o‘q to‘la o‘qdon bilan o‘qlanali. Karabin o‘qlangandan so‘ng zatvor silliq yopiladi (bunda o‘q solinmaydi), saqlagich ochiladi, tepki qo‘yib yuboriladi va karabin saqlagichga qo‘yiladi.

To‘pponcha o‘q solingan o‘qdon bilan o‘qlanadi, o‘qlanganda zatvor orqaga qaytarilmaydi. To‘pponcha o‘qlashdan oldin saqlagichga qo‘yiladi. To‘pponcha ishlatishdan oldin o‘qlanadi.

Garnizon boshlig‘ining (harbiy qism komandirining) buyrug‘iga binoan qorovulxonada quyidagi miqdorda jangovar o‘qlar zaxirasi tashkil qilinadi: har bir avtomat yoki karabinga 150 tadan o‘q, har bir to‘pponchaga esa 16 tadan o‘q. Ular sinkada, temir qutida saqlanadi.

Granatalar alohida metall qutilarda saqlanadi, piltasi esa granatadan alohida suv o‘tmaydigan maxsus qutilarda saqlanadi. Qorovulning jangovar o‘q zaxirasi (7-ilova) hisobga olinadigan daftar, qo‘lda otiladigan granatalar va ularning piltalari hisobga olinadigan daftar, olingan o‘q-dorilar dalolatnomalari va tuldirligmagan blankalar, shuningdek, sinkalarni ochadigan pichoq ham o‘sha qutilarda saqlanadi. Qutilar qulflanadi, garnizon harbiy komendant (harbiy qism shtabi boshlig‘i) tomonidan muhrlanadi va qorovulxonada joylashgan qorovulning anjomlari va jihozlari ro‘yxatiga kiritiladi. Uq-dorilar solingan qutining kaliti, surg‘uchli muhr qorovul boshlig‘ining seyfida (qulflanadigan qutida) saqlanadi. Kalitni boshqa shaxslarga berish taqiqlanadi.

Qorovul boshlig‘i jangovar o‘qlar zaxirasi, granata va piltalari solingan qutilarning saqlanishiga shaxsan javobgardir.

O‘q-dorilar zaxirasining miqdori va holati oyda kamida bir marta, garnizon qorovulligida - garnizon harbiy komendant tomonidan, ichki qorovullarda - harbiy qism shtabi boshlig‘i tomonidan tekshiriladi.

Tekshiruv natijalari zaxiradagi o‘q-dorilar daftar va post axborotlari daftariga yozib qo‘yiladi.

Ushbu Nizomda ko‘rsatilganlarga muvofiq qorovulxona va postlarni turli anjomlar, texnik himoya vositalari va aloqa vositalari bilan ta’minalash, qo‘riqlanayotgan ob’ektlarni (5 va 6-ilova) devorlar bilan o‘rash va ularni

inventarlar bilan ta'minlash harbiy ob'ekt boshlig'i (harbiy qism boshlig'i) zimmasiga yuklanadi. Shuningdek, harbiy ob'ekt boshlig'i (harbiy qism boshlig'i) zimmasiga qorovulkxonalarini yoritish, ularni issiqlik va postda kiyiladigan kiyimlar bilan ta'minlash ham yuklanadi.

Qorovulning haqiqatan ham almashuvga kelganini, shuningdek, garnizon boshlig'i yoki garnizon bo'yicha navbatchi (harbiy qism bo'yicha navbatchi) buyrug'i bilan kelgan shaxs haqiqatan ham shular tomonidan yuborilganini tasdiqlash uchun parol (maxfiy so'z yoxud ibora) joriy etiladi.

Parol biror-bir shaharning nomi bilan belgilanadi, har kuni har bir qorovul uchun alohida, garnizon qorovullariga - garnizon harbiy komendanti, ichki qorovulga harbiy qism shtabi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Parollar ko'pi bilan 10 kun oldin belgilanadi va parollar daftariга yozib qo'yiladi. Bu daftar garnizon harbiy komendantida (harbiy qism shtabi boshlig'ida) muhrlangan bog'ichda, seyfda saqlanadi.

Qorovullar naryadi

Qorovullar naryadi qorovullar naryadiga asosan amalga oshiriladi. Qorovullar har kuni almashib turishi kerak. Harbiy qism o'quv mashg'ulotlarida bo'lgan paytda qorovullar jadvalini tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan boshliqning buyrug'iga binoan ofitser boshchiligida tayinlangan qorovullar 7 kungacha almashmasdan qorovullikda turishi mumkin.

Garnizon qorovulligi jadvalini garnizon harbiy komendanti, ichki qorovullik jadvalini esa garnizon boshlig'ining (harbiy qism boshlig'ining) ko'rsatmasiga asosan harbiy qism shtabining boshlig'i tuzadi. Bunda u qo'riqlanayotgan va himoya qilinayotgan ob'ektning ahamiyatini, texnik qo'riqlash qurollari bilan qurollangan yoki qurollanmaganini, to'siqlar, iloji boricha kam soqchilar bilan qo'riqlanishini hisobga oladi. O'zining qo'riqlash bo'linmalariga ega bo'lgan, korpus va markazga bo'ysunadigan ob'ektlarni qo'riqlaydigan qorovullar jadvalini harbiy ob'ekt (ombor, baza) boshlig'i tuzadi.

Harbiy o‘quv yurtlarining garnizon va ichki qorovullik jadvali O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri, harbiy qismlarning ichki qorovullik jadvali esa qo‘silma komandiri tasdig‘iga taqdim etiladi.

Korpusga va markazga bo‘ysunadigan harbiy qismlar ichki qorovullarining, shuningdek, o‘zining qo‘riqlash bo‘linmalariga ega bo‘lgan, yuqorida qayd etilganlarga bo‘ysunadigan ob’ektlarni qo‘riqlash va himoya qiladigan ichki qorovullar jadvali bevosita o‘ziga tegishli boshliqlar tasdig‘iga taqdim etiladi.

Jadvalga har bir qorovulning joylashuv posti sxemasi ilova qilinadi.

Qorovullik jadvali bilan bir vaqtida postlarning joylashuvi sxemasi, postlar raqami, qorovul boshlig‘iga yo‘riqnomalar, trevoga paytida almashadigan qorovullarga esa, bundan tashqari, har ehtimolga qarshi trevoga e’lon qilinganda foydalaniladigan hujjatlar, safida qorovul boshlig‘ining texnik qo‘riqlash vositalari bo‘yicha yordamchisi (operator) bor qorovullarga esa qorovul boshlig‘ining texnik qo‘riqlash vositalari bo‘yicha yordamchisi (operatori) hujjatlari ham tuziladi.

Postlarning joylashuv sxemasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

postlarning chegarasi va taqiqlangan zonalar, taqiqlangan chegaralar, to‘siqlarning turi;

texnik qo‘riqlash qurollari bilan jihozlangan ob’ektlar;

navbatchilarning postga borish va patrullarning transport vositalarida yurish yo‘nalishi;

soqchi va nazorat-qo‘riqlash yo‘nalishi, okoplar, kuzatuv minoralari, aloqa va o‘t o‘chirish vositalari, itlarning qo‘riqchilik postlari joylashgan joylar;

postlarga borishdagi xavfli joylar.

Postlar raqamida quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘ladi:

har bir post nimani qo‘riqlashi va himoya qilishi kerakligi;

soqching postda xizmat qilish vaqtida ma’lum sharoitdan kelib chiqadigan muhim majburiyatlar va aloqa vositalari orqali axborot berib turish muddati;

soqchi kuzatuv minorasidan kuzatuv olib borish mumkin bo‘lgan vaqt, soqchi chet kishilarni o‘ziga yaqinlashtirishi mumkin bo‘lmagan masofa o‘lchovi;

postga, qo'shni postga hujum bo'lganda yoki postda yong'in chiqqanda soqchi bajarishi lozim bo'lgan ishlar;

qanday sharoitda soqchi qurol ishlatishi mumkinligi.

Qorovul tarkibida serjantlardan (starshinalardan) yoki yefreytorlardan (katta matroslardan) tarqatuvchi tayinlanadi.

Tarqatuvchilarning soni postlar soni va masofasiga bog'liq bo'ladi. Har bir tarqatuvchi postlarga ko'pi bilan beshta soqchi tarqatishi yoki qorovullarni navbatga olib borish va qaytish bir soatdan ko'p vaqt olmasligi kerak.

Qorovullikda bir nechta tarqatuvchi bo'lsa, ular quyidagicha ataladi: birinchi tarqatuvchi, ikkinchi tarqatuvchi va shunday davom etadi.

Agar qorovul bitta postni qo'riqlayotgan bo'lsa tarqatuvchi tayinlanmaydi, uning vazifasini qorovul boshlig'i bajaradi.

Qorovullar askarlardan (matroslardan) tayinlanadi. Askarlar (matroslar) oz bo'lgan paytda majburiy xizmat serjantlaridan (starshinalardan) ham tayinlanishi mumkin. Bunday paytlarda postning (postlarning) barcha almashuvlari, nazorat-qo'riqlash guruhining barcha tarkibi tuziladi, harbiy unvoni jihatidan qorovuldan kichik bo'limgan harbiy xizmatchi esa tarqatuvchi etib tayinlanadi.

Qorovullar soni mazkur qorovullar uchun belgilangan postlar soniga qarab belgilanadi. Bir kecha-kunduzda soqchilar uch marta almashtiriladi. Postlarni faqat tunda qorong'ilik tushgandan tong yorishguncha yoki ombor va saqlagichlarni yopgandan ochguncha qo'riqlash uchun esa soqchilar ikki marta almashtiriladi.

Naryadga kiradigan tunda qorovullikka tayinlangan harbiy xizmatchilar hech qanday xizmatga, mashg'ulotga yoki ishga jalb etilmasligi kerak.

Naryadga kirayotgan kun qorovul shaxsiy tarkibiga kun tartibida belgilangan soatlarda xizmatni o'tashga tayyorgarlik ko'rish uchun kamida 3 soat vaqt berilishi kerak. Qorovullikka turgandan so'ng bir kun o'tgach esa 4 soat, jumladan, 1 soat uslashga vaqt berilishi kerak.

Qorovullik xizmatini o'tashga tayyorgarlik uch bosqichda olib boriladi:

- birinchi - naryadga kirishdan ikki-uch kun oldin postlar raqami bo'yicha qorovul shaxsiy tarkibi tanlanadi va bo'linadi;

- ikkinchi - naryadga kirishdan bir kun oldin kun tartibida ko'rsatilgan soatlarda qorovul shaxsiy tarkibi bilan harbiy Nizom qoidalarini, qo'rikdanadigan ob'ektlar maketiga post raqamini qo'ygan holda postdagi soqchining asosiy majburiyatlari va harakat turlarini o'rganish, shuningdek, xavfsizlik talablarini bajarish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi;
- uchinchi - qorovulikka kira digan kun postdagi soqchining vazifasi haqida amaliy mashg'ulot o'tkaziladi.

Qorovulning huquq va majburiyatlari.

Qorovul boshlig'inining umumiy majburiyatlari

Qorovul boshlig'i qorovulga topshirilgan ob'ektlarni qo'riqlash va himoya qilishga, qorovul shaxsiy tarkibining jangovar tayyorgarligiga, ularning to'g'ri xizmat qilishiga, texnik qo'riqlash vositalari, to'siqlar, aloqa vositalari va postlardagi hamda qorovulkxonalardagi o't o'chirish vositalari, transport vositalarining, shuningdek, ro'yxat bo'yicha qorovulkxonada saqlanayotgan qurol va o'q-dorilarning saqlanishi va to'g'ri ishlashiga javob beradi.

Qorovul boshlig'i o'zi yoki qorovul tarkibida qo'riqlanayotgan ob'ektlarga, soqchiga, qorovul navbatchilariga (nazorat-qo'riqlash guruhiga) yoki qorovulkxonaga hujum bo'lganda, shuningdek, bandilar o'rtasidagi tartibsizliklarni to'xtatish yoki qochmoqchi bo'lgan bandiga nisbatan qurol ishlatishi mumkin.

Qurolni ishlatishdan oldin qurolni ishlatish to'g'risida ogohlantirishi kerak.

Kutilmaganda yoki qurolli hujum bo'lganda, harbiy texnika, transport vositalari, uchuvchi apparatlar, daryo va dengiz kemalaridan hujum bo'lganda, shuningdek, qorovul qurol bilan yoki harakatda transport vositasidan qochganda ogohlantirishsiz qurol ishlatish mumkin.

Tarqatuvchi

Tarqatuvchi o‘ziga bo‘ysunuvchi soqchilarning to‘g‘ri va hushyor xizmat qilishiga, o‘z vaqtida almashuv bo‘lishiga va soqchilarning postlarga qo‘yilishiga, soqchilarning postlarni to‘g‘ri topshirishiga va qabul qilib olishiga javob beradi. U qorovul boshlig‘iga va uning yordamchisiga bo‘ysunadi va faqat ularning buyrug‘ini bajaradi.

Tarqatuvchi o‘zi yoki qorovul tarkibida qo‘riqlanayotgan ob’ektga, soqchiga, navbat almashishga borayotgan yoki navbat almashishdan qorovulkxonaga qaytayotgan qorovullarga hujum bo‘lganda qurol ishlatish huquqiga ega.

U quyidagilarga majburdir:

- o‘z postlarini, ularning joyini va chegarasini; ularga borish yo‘llarini, qo‘riqlash va himoya qilish shartlarini (kuzatish, otish, o‘rash) va har bir postdagi soqchining asosiy majburiyatlarini bilishga;
- eski qorovul tarqatuvchisidan muhr (plomba) nusxasini qabul qilib olishga, soqchilarni postlarga qo‘yishda esa postlar raqamiga binoan qo‘riqlashda bo‘lgan ob’ektlarni qabul qilib olishga va bu haqda qorovul boshlig‘iga axborot berishga;
- qorovullarni postlarga jo‘natishdan oldin ularni o‘z majburiyatları haqidagi bilimlarini sinab ko‘rishga, shuningdek, ular o‘zlarining chekadigan va o‘t oldiradigan narsalarini qorovulkxonada qoldirganligini tekshirib ko‘rishga;
- qorovullar tomonidan postga jo‘nashdan oldin qurolning to‘g‘ri o‘qlagani va postdan qaytgach, to‘g‘ri o‘qsizlantirganini kuzatib turishga;
- har bir qorovullar almashuvidan qaytgach, almashuv bo‘lgani, postlarning ahvoli haqida, barcha kamchiliklar va ularni bartaraf etish uchun ko‘rilgan chora-tadbirlar haqida qorovul boshlig‘iga axborot berishga;
- qorovul boshlig‘ining ruxsati bilan o‘ziga bo‘ysunadigan soqchilarning xizmatini o‘tashni tekshirib ko‘rishga.

Soqchi

Soqchi daxlsiz shaxsdir. Uning daxlsizligi quyidagilarda ko‘rinadi:

- uning huquqlari va insoniy qadr-qimmati qonun bilan himoya qilinishida;
- uning qat’iy ma’lum shaxslarga - qorovul boshlig‘iga, uning yordamchisiga va o‘zining tarqatuvchisigagina bo‘ysunishida;
- xizmati bo‘yicha barcha shaxslar uning talablarini so‘zsiz bajarishlarida;
- ushbu Nizomda ko‘rsatilgan hollarda qurol ishlatish huquqi berilishida.

Faqat qorovul boshlig‘i, qorovul boshlig‘i yordamchisi va soqchi bo‘ysunadigan tarqatuvchi soqchini postdan almashtirish va olish huquqiga ega. Qorovul boshlig‘i, uning yordamchisi va tarqatuvchi vafot etsa yoki jismoniy jihatdan o‘z vazifasini bajara olmay qolsa, qorovullarni postdan olish va almashtirishni garnizon (harbiy qism) bo‘yicha navbatchi o‘z rotasi (batareyasi) yoki bataloni (divizioni) komandiri ishtirokida amalga oshiradi.

Qorovul postni qabul qilib olishdan oldin tarqatuvchi (qorovul boshlig‘i yoki uning yordamchisi) va navbatchi topshirayotgan soqchi bilan shaxsan tabel raqami bo‘yicha qo‘riqlashga qabul qilinayotgan barcha narsaning mavjudligini tekshirishi; bandilarni qo‘riqlash uchun - postda turayotgan paytda esa qulflarning, panjaralarning ahvolini va kameralarda saqlanayotgan bandilarning sonini tekshirishi kerak.

Soqchi quyidagilarga majburdir:

- o‘z postini sergaklik bilan qo‘riqlashga va tik turgancha himoya qilishga;
- sergak xizmat qilishga, hech narsaga chalg‘itmaslikka, qurolini qo‘lidan qo‘ymaslikka va hech kimga, hatto o‘zi bo‘ysunadigan shaxslarga ham bermaslikka;
- ko‘rsatilgan yo‘nalish bo‘yicha harakat qilib yoki kuzatuv minorasida turib postga keladigan yo‘llarni, to‘sqliarni diqqat bilan kuzatishga va post raqamida ko‘rsatilgan vaqtarda xizmatning borishi haqida aloqa vositalari orqali xabar qilib turishga;

- navbat almashmasa yoki uni postdan olishmasa, hayotiga xavf tug‘ilgan paytda ham postni tashlab ketmaslikka; postni o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish harbiy jinoyat hisoblanadi;
- postda 99-moddaga binoan, doimo o‘qlangan qurol olib turishga va doimo hamma narsaga tayyor bo‘lib turishga;
- post raqamida ko‘rsatilgan va maxfiy chegara ko‘rsatkichlari bilan ajratilgan joydan ichkariga, post yaqiniga qorovul boshlig‘i, uning yordamchisi va o‘zining tarqatuvchisi va ular boshlab kelgan shaxslardan boshqa hech kimni qo‘ymaslikka;
- qorovul transport vositalari harakat yo‘nalishini va tashish, shuningdek, uning tanitish belgi va signallarini bilishga;
- postdagi o‘t o‘chirish vositasini ishlata olishga;
- ob’ekt (post) to‘sıqlarida biror buzilgan joy, o‘z posti yaqinida yoki qo‘shni postda tartib buzilganini sezsa, qorovul boshlig‘ini chaqirishga;
- qo‘riqchi itning hurganini eshitgan zahoti bu haqda qorovulkxonaga xabar beradi.

Soqchi postda nayza ulangan qurol bilan turishi kerak (buklanadigan qo‘ndoqli avtomat pichoq-nayzasiz bo‘ladi, uning pichoq-nayzasi kamardagi qinda turadi);

tunda tik turib otishga tayyor turgan holda;

kunduz-«tasma yelkaga» yoki tik turib otishga tayyor turgan holda (9-ilova);

ichki postlarda va Jangovar Bayroq qo‘riqlanayotgan postda yog‘och qo‘ndoqli avtomat «tasma-yelkaga», buklanadigan qo‘ndoqli avtomat «ko‘krakka», karabin «oyoq-qa» holatida ushlanishi lozim; o‘q to‘ldirilgan o‘qdan (oboyma) solingan sumka tugmalangan bo‘lishi kerak.

To‘pponchalar og‘zi yopilgan g‘ilofda bel kamariga osib qo‘yiladi. Yong‘inni o‘chirish yoki tabiiy ofat oqibatlarini tugatish paytida soqchiga qurolni «qurol orqaga» holatida olib yurishiga ruxsat beriladi.

Soqchiga quyidagilar taqiqlanadi: uqlash, o‘tirish, biror narsaga enkayish, yozish, o‘qish, gaplashish, yeyish, ichish, chekish, tabiiy ehtiyojlarga borish,

kimligidan qat’iy nazar birovga bir narsa berish va birovdan bir narsa olish, keraksiz paytda patronnikka patronni jo‘natish.

Soqchi faqat qorovul boshlig‘ining, uning yordamchisining, o‘z tarqatuvchisining va tekshirish uchun kelgan shaxsning savollariga javob berishi kerak.

Soqchi o‘ziga yoki qo‘riqlanayotgan ob’ektiga aniq hujum bo‘lgan hollarda ogohlantirishsiz qurol ishlatishga majbur.

U qorovul boshlig‘i, qorovul boshlig‘i yordamchisi, o‘zining tarqatuvchisi va ular kuzatuvida kelgan shaxslardan boshqa postga yoki taqiqlangan chegaraga yaqinlashgan barchani baqirib «Tuxta, orqaga» yoki «To‘xta, o‘ngdan (chapdan) aylanib o‘t» deb to‘xtatishga haqli.

Agar postga yoki taqiqlangan chegaraga yaqinlashayotgan tartibbuzar uning bu talabini bajarmasa, soqchi uni «*To‘xta, otaman*» deb ogohlantiradi va zudlik bilan qorovul boshlig‘ini yoki tarqatuvchini chaqiradi. Agar tartibbuzar shunda ham post va taqiqlangan chegaraga yaqinlashishda davom etsa, soqchi patronnikka patron yuboradi, osmonga qarab ogohlantiruvchi o‘q uzadi. Tartibbuzar shunda ham uning talabini bajarmasa va postga kirishga (taqiqlangan chegarani kesib o‘tishga) harakat qilsa yoki qochishga urinsa, soqchi unga nisbatan qurol ishlatadi.

Ko‘rinish yomon bo‘lganda post raqamida ko‘rsatilgan masofadan postga va taqiqlangan chegaraga yaqinlashganlar ko‘rinmay qolganda soqchi ularni «*To‘xta, kim kelayapti*» deb baqirib to‘xtatadi. Agar javob bo‘lmasa, soqchi uni «*To‘xta, otaman*» deb ogohlantiradi va ushlaydi. Ushlangan tartibbuzar haqida qorovulxonaga xabar beradi, uning o‘zini tutishini kuzatadi, shu bilan birga diqqatini bo‘lmay, o‘ziga biriktirilgan postni qo‘riqlashda davom etadi.

Soqchi baqirganda «Qorovul boshlig‘i (qorovul boshlig‘ining yordamchisi, tarqatuvchi) kelayapti» degan javob bo‘lsa, soqchi quyidagicha buyruq beradi: «Qorovul boshlig‘i (qorovul boshlig‘ining yordamchisi, tarqatuvchi) mening oldimga, qolganlar joyida qolsin». Zarurat bo‘lsa soqchi o‘ziga yaqinlashayotgan shaxsdan yuzini yoritishni talab qiladi. Soqchi o‘ziga yaqinlashayotgan shaxs

haqiqatan ham qorovul boshlig‘i (qorovul boshlig‘ining yordamchisi, tarqatuvchi) ekanligiga ishonch hosil qilgach, qolganlarni ham o‘z oldiga qo‘yadi.

Agar o‘zini qorovul boshlig‘i (qorovul boshlig‘i yordamchisi, tarqtuvchi deb tanishtirgan shaxs boshqa kishi bo‘lsa va u bilan birga kelganlar soqchining «qolganlar joyida qolsin» degan talabini bajarmasa, soqchi baqirib «To‘xta, otaman» deya ogohlantiradi. Tartibbuzarlar soqchining bu talabini bajarmasa, ularga nisbatan qurol ishlatadi.

Qo‘riqlanayotgan ob’ektni va o‘zini himoya qilish uchun qo‘l jangiga kirishga to‘g‘ri kelsa, soqchi qo‘ndoq va nayza bilan bemalol harakat qilishi kerak.

Postda yong‘in chiqqanda soqchi bu haqda zudlik bilan qorovulxonaga xabar beradi va o‘zi qo‘riqlayotgan ob’ektlarni kuzatishda davom etgan holda yong‘inni o‘chirish choralarini ko‘radi. Qo‘riqlanayotgan ob’ektning texnik hududida yoki ichki va tashqi devorlar bilan o‘ralgan ob’ektlarda, shuningdek, post yaqinida yong‘in bo‘lsa, u bu haqda qorovulxonaga xabar beradi va postdagi xizmatini davom ettiradi.

To‘satdan kasal bo‘lib qolsa (jarohatlansa), soqchi o‘z xizmatini davom ettirgan holda tarqatuvchi yoki qorovul boshlig‘ini chaqiradi.

Chidab bo‘lmaydigan so‘nggi holatda yoki aloqa vositalari ishlamay qolgan paytlarda soqchi osmonga o‘q otish bilan qorovul boshlig‘ini chaqirishi mumkin.

Soqchi o‘zi bo‘ysunadigan boshliqlarga va ular bilan postga kelgan boshqa boshliqlarga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomida ko‘rsatilgan holatda salom beradi. Bunday paytda avtomat otishga shay holatdan «tasma yelkaga» holatiga olinadi, karabin esa «oyoqqa» olinadi.

Jangovar Bayroq oldida turgan soqchi «Erkin» turgan holda o‘z vazifasini bajaradi, harbiy xizmatchilar Jangovar Bayroqqa salom berganda soqchi tik qotgan holda turadi. Soqchi Jangovar Bayroqni qo‘riqlashga qabul qilib olayotganda g‘ilofi (javon) va undagi muhri buzilmaganiga e’tibor berishi kerak. Jangovar Bayroqni topshirish faqat qorovul boshlig‘i ishtirokida va uning buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Jangovar Bayroq turgan postga xavf solinsa (yong‘in chiqsa yoki tabiiy ofat ro‘y bersa), soqchi Jangovar Bayroqni xavfsiz joyga olib chiqadi va qorovul boshlig‘ini chaqiradi.

Soqchilarni almashtirish

Soqchilarni almashtirish har 2 soatda, juft yoki toq soatlarda amalga oshiriladi.

Havo harorati - 20°S va undan ham past darajada, shamol va kuchsiz sovuqda ochiq havodagi postda hamda isitilmaydigan binolarda turgan soqchilar har 1 soatda almashtiriladi. Havo harorati $+30^{\circ}\text{S}$ va undan (soyada) yuqori bo‘lganda ham soqchilar har 1 soatda almashtiriladi. Mana shunday sharoitlarda soqchilarni har 1 soatda almashtirish haqida garnizon bo‘yicha (harbiy qism bo‘yicha) navbatchi buyruq beradi.

Agar soqchilar almashtirish har 1 soatda amalga oshirilgan bo‘lsa, qorovul boshlig‘i post axborot daftariga soqchilar falon soatdan e’tiboran har 1 soatda, falon soatdan va falon qorovul navbatidan boshlab har 2 soatda almashtirildi, deb yozib qo‘yadi.

Patrul

Patrullar bo‘linmaning sutkalik maxsus xizmat bajaruvchilari tarkibiga kiradi, bo‘linma komandiri, starshina va bo‘linma bo‘yicha navbatchiga, navbatchi smenasi boshlig‘iga (katta texnikka) bo‘ysunadi va soqchi kabi harbiy qism komandiri tasdiqlagan qo‘llanmaga muvofiq xizmatini o‘taydi.

Bo‘linma bo‘yicha navbatchi va patrulga qo‘llanmani bo‘linma komandiri, ob’ekt va uni qo‘riqlash shart-sharoitidan kelib chiqib tuzadi.

Qo‘llanmada ob’ektlarni qo‘riqlash va himoya qilish bo‘yicha bo‘linma navbatchisi va patrullarning majburiyatları bayon etiladi; qo‘riqlash vaqtı va tartibi, patrullar soni, alohida yo‘nalishdagi patrullarning o‘ziga xos majburiyati, qo‘riqlanayotgan ob’ektga hujum bo‘lganda ularning harakat qilish tartibi, qo‘riqlash vositalarining bexosdan yong‘in, tabiiy ofat oqibatida, qo‘zg‘alish chaqirig‘i tufayli ishlab ketishi; patrulga qurol ishlatish, qo‘rqlanayotgan qurol-aslahaga, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalarga, shuningdek, qo‘riqlanayotgan hududga shaxslarni kiritish qanday hollarda ruxsat etilishi uqgiriladi.

Bo‘linma bo‘yicha navbatchi qo‘llanmasiga bo‘linma komandiri tomonidan tasdiqlangan patrullarning harakati sxemasi, omborlarni ochishga haqi bor va qurol-aslahan, harbiy texnika hamda boshqa moddiy vositalarni qabul qilib olishga ijozat berilgan shaxslar ro‘yxati, rasmiylashtirilgan ruxsatnoma namunalari va muhrlardan tushirilgan nusxalar (qurg‘oshin tamg‘alar izlari) qo‘shimcha qilinadi.

Patrulning xizmatni o‘tashi uchun vaqt bo‘yicha patrullarning bir zaylda harakat qilishga o‘rin qoldirmaydigan bir necha jadval tuziladi.

Qo‘riqlash va himoya qilish rejalari bo‘linma komandiri tomonidan tasdiqpanadi va bo‘linma navbatchisida berkitilgan qutida (javonda) saqlanadi. Har bir rejaning qo‘llanish vaqtini bo‘linma komandiri tomonidan belgilanadi.

Patrul bo‘linma o‘rnashgan joyni, patrullar harakati sxemasida ko‘rsatilgan yo‘l bo‘yicha, aylanib yurib xizmatini o‘taydi.

Patrullar harakati yo‘lida aloqa vositalari o‘rnatiladi, u orqali patrul bo‘linma navbatchisiga xizmatni qanday o‘tayotganidan xabar berib turadi.

Kunduz kunlari patrul qo‘riqchilikni aloqa vositalari o‘rnatilgan qulay joydan yoki minorada turib amalga oshirishi mumkin.

Patrul quyidagilarga majbur:

- ob’ektlarni, qurol-aslahani, harbiy texnika va bo‘linmaning boshqa moddiy vositalarini hushyor turib qo‘riqlash hamda himoya qilishga, almashtirilguncha yoki xizmatdan olib tashlanguncha qo‘yilgan vazifani to‘xtovsiz bajarishga;

- bo‘linma bo‘yicha navbatchi bilan o‘rnatilgan aloqa signallarini bilishga, ob’ekt to‘siqlarining buzilgani va har qanday buzilishlarni payqaganida uni chaqirishga;

- o‘ziga belgipangan reja va harakat yo‘li tartibiga qat’iy rioya qilishga;

- xizmatni o‘tayotgan vaqtida ko‘rsatilgan qoidalarga ko‘ra, o‘qpangan qurolga ega bo‘lishga va doimo harakat qilishga shay turishga.

Patrulga xizmatni o‘tayotgan vaqtida zimmasidagi vazifalarni bajarishdan chalg‘ish (uxlash, o‘tirish, o‘qish, yozish, ovqat yeyish, ichish, qo‘sish aytish, chekish, begonalar bilan gaplashish) taqiqlanadi.

Patrul o‘zi bo‘ysunadagin va ular hamkorligida tekshirish uchun kelgan shaxslar savoliga javob berishi kerak.

II -BOB. SAF TAYYORGARLIGI

*O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklari,
O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy
xavfsizlik xizmatining 2013 yil*

28 oktabrdagi 13/34/6/84- sonli qo‘shma qarori bilan kuchga kiritilgan

1-§. Saf va uning boshqarilishi

Saf – harbiy xizmatchilar, bo‘linma va harbiy qismlarning piyoda va mashinalarda birgalikda yurish uchun mazkur Nizomda belgilangan tartibda joylashuvi.

Sherenga – harbiy xizmatchilar bir chiziqda, belgilangan intervalga amal qilgan holda yonma-yon turgan saf.

Mashinalar chizig‘i – mashinalar bir chiziqda yonma-yon joylashgan saf.

Qanot – safning o‘ng (chap) tomoni. Saf burilganda, qanot nomi o‘zgarmaydi.

Front – safning harbiy xizmatchilar yuzlanib turgan (mashinalar old tomoni bilan qaratilgan) tomoni.

Saf orti – safning frontga qarama-qarshi tomoni.

Interval – harbiy xizmatchilar (mashinalar), bo‘linma va harbiy qismlar o‘rtasidagi front bo‘ylab masofa.

Distansiya – harbiy xizmatchilar (mashinalar), bo‘linma va harbiy qismlar o‘rtasidagi saf uzunligi bo‘yicha masofa.

Saf eni – qanotlar o‘rtasidagi masofa.

Saf uzunligi – birinchi sherenga bilan oxirgi sherenga (oldinda turgan harbiy xizmatchi bilan ortda turgan harbiy xizmatchi) o‘rtasidagi masofa. Harakat mashinalar vositasida bajarilayotgan bo‘lsa, birinchi mashinalar chizig‘i bilan oxirgi mashinalar chizig‘i (oldinda turgan mashina bilan oxirida turgan mashina) o‘rtasidagi masofa.

Ikki sherengali saf – birinchi va ikkinchi sherenga, deb nomlanadigan, ikkinchi sherengadagi harbiy xizmatchilar birinchi sherengadagi harbiy xizmatchilar ortida, bir qadamga teng distansiya qoldirgan holda (oldinda turgan

harbiy xizmatchining yelkasiga kafti qo‘yilib uzatilgan qo‘l masofasida) turgan saf. Saf burilganida sherenga nomi o‘zgarmaydi.

Qator – ikki sherengali safda ketma-ket turgan ikki nafar harbiy xizmatchi. Agar birinchi sherengada turgan harbiy xizmatchi ortida harbiy xizmatchi bo‘lmasa, bunday qator to‘lмаган qator, deb nomlanadi.

Ikki sherengali saf ortga burilsa, to‘lмаган qatordagi harbiy xizmatchi oldingi sherengaga o‘tadi.

Bir yoki ikki sherengali safning orasi jips yoxud ochiq bo‘lishi mumkin.

Orasi jips saf sherengasida turgan harbiy xizmatchilar front bo‘yicha yonmayon, tirsaklar orasida bir kaft eniga teng interval qoldirib joylashadi.

Orasi ochiq saf sherengasida turgan harbiy xizmatchilar front bo‘yicha bir-biridan bir qadamga yoki komandir tomonidan tayinlangan masofaga teng interval qoldirgan holda joylashadi.

Kolonna – harbiy xizmatchilar va bo‘linmalar (mashinalar) bir-birining ortida, mazkur Nizomda belgilangan yoki komandir tomonidan tayinlangan distansiya qoldirgan holda joylashgan saf.

Bir, ikki, uch, to‘rt kolonnali va undan ortiq kolonnali saf bo‘lishi mumkin.

Bo‘linma va harbiy qismlar yurish safida harakatlanishi yoki yonma-yon tizilishi uchun kolonna qo‘llaniladi.

Yonma-yon tizilgan saf – bo‘linmalar bir yoki ikki sherengali safga (mashinalar chizig‘iga) front bo‘ylab bir chiziqda tizilgan yoxud kolonnalar chizig‘iga, mazkur Nizomda belgilangan yoki komandir tomonidan tayinlangan interval qoldirgan holda tizilgan saf.

Yonma-yon tizilgan saf yo‘qlama, sanoq, ko‘rik, parad o‘tkazish uchun va shu kabi, boshqa zaruriy hollarda qo‘llaniladi.

Yurish safi – bo‘linma kolonnaga tizilgan yoki kolonnaga tizilgan bo‘linmalar ketma-ket, mazkur Nizomda belgilangan yoki komandir tomonidan tayinlangan distansiya qoldirgan holda joylashgan saf.

Yurish safi bo‘linmalar marsh davomida harakatlanishi, tantanali yurishi, saf qo‘sish‘i bilan o‘tishi uchun va shu kabi, boshqa zaruriy hollarda qo‘llaniladi.

Yetakchi – tayinlangan yo‘nalishda bosh bo‘lib borayotgan harbiy xizmatchi (bo‘linma, mashina). Qolgan harbiy xizmatchilar (bo‘linma yoki mashinalar) o‘z harakatini yetakchiga qarab moslashtiradi.

Oxirda boruvchi – kolonnaning oxirida borayotgan harbiy xizmatchi (bo‘linma, mashina).

Saf boshqarish amallari og‘zaki, signal vositasida yoki komandir tomonidan shaxsan ko‘rsatib beriladigan, shuningdek, texnik va harakatchan vositalar orqali uzatiladigan komanda va buyruqlar orqali bajariladi.

Komanda va buyruqlar kolonna bo‘yicha bo‘linma komandirlari (mashina kattalari) va tayinlangan kuzatuvchilar orqali uzatilishi mumkin.

Mashinada boshqarish amali og‘zaki beriladigan yoki aloqa vositalari orqali uzatiladigan komanda va buyruqlar orqali bajariladi.

Safda katta komandir saf boshqarish uchun o‘ziga qulay bo‘lgan joyda bo‘ladi. Qolgan komandirlar komandalarni mazkur Nizomda belgilangan yoki katta komandir tayinlagan joyda qolib berishadi.

Batalon va brigadaning yurish safidagi vzvod va undan katta bo‘linma komandirlariga safdan chiqishga faqat komanda berib, uning ijrosini tekshirish uchungina ruxsat beriladi.

Komanda **dastlabki** va **ijro** komandalariga bo‘linadi. Faqat ijro komandasini ham bo‘lishi mumkin.

Dastlabki komanda aniq, baland va safda turganlar komandir qanday harakat bajarilishini talab qilayotganini anglab yetishlari uchun cho‘ziq beriladi.

Safda turgan harbiy xizmatchilar har qanday dastlabki komandaga binoan qad rostlaydi, yurish davomida esa shaxdam qadam tashlay boshlashadi, safdan tashqarida bo‘lishsa, boshliq tomon o‘girilib, qad rostlab turishadi.

Ijro komandasini (mazkur Nizom matnida ijro komandasini bosh harflar bilan yozilgan) dastlabki komandadan keyingi tanaffusdan so‘ng, baland, qisqa va aniq beriladi. Ijro komandasini zudlik bilan, aniq bajariladi.

Bo‘linma yoki alohida harbiy xizmatchining e’tiborini jalg etish uchun dastlabki komandada, zarurat bo‘lsa, bo‘linma nomi yoki harbiy xizmatchining harbiy unvoni va familiyasi aytib chaqiriladi. Misol uchun, «**Guruh, TO‘XTA**», «**Oddiy askar To‘raev, ort-GA**».

Saf amallari qurol bilan bajarilayotgan bo‘lsa, dastlabki komandada, zarurat bo‘lsa, qurol nomi aytildi. Misol uchun, «**Avtomat ko‘krak-KA**», «**Pulemyot tasma-GA**» va hokazo.

Komanda berayotgan komandirning ovozi saf eni va uzunligiga mutanosib bo‘lishi, komandani ijro etayotgan harbiy xizmatchi esa ovozni keskin ko‘tarmay, aniq bildiruv berishi lozim.

Saf boshqarish va mashina boshqarish signallari mazkur Nizomning 1- va 2- ilovalarida keltirilgan.

Zarurat bo‘lsa, komandir qo‘sishimcha saf boshqarish signallarini joriy etadi.

Barcha bo‘linmalarga taalluqli komandalar jamiki bo‘linma komandirlari va mashina kattalari (komandirlari) tomonidan qabul qilinib, zudlik bilan bajariladi.

Komanda signal vositasida beriladigan bo‘lsa, dastlab «**DIQQAT**» signali uzatiladi. Agar komanda bo‘linmalardan faqat bittasiga taalluqli bo‘lsa, tegishli bo‘linma raqamini anglatadigan signal uzatiladi.

Komandani signal vositasida qabul qilishga shay holat ham «**DIQQAT**» signali uzatilgan holda bildiriladi.

Signalning qabul qilinganligi, uni takrorlash yoki o‘z bo‘linmasiga tegishli signal uzatish orqali tasdiqlanadi.

Saf amalini bekor qilish yoki ijrosini to‘xtatish uchun «**QAYTARILSIN**» komandasi beriladi. Ushbu komandaga binoan saf amali ijrosiga qadar bo‘lgan holat qabul qilinadi.

Mazkur Nizomda zikr etilgan saf amallari va harakatlarining ijrosini o‘zlashtirish mobaynida, ularni qismlarga bo‘lib, sanoq ostida, shu jumladan, tayyorlov mashqlari yordamida bajarishga yo‘l qo‘yiladi, misol uchun: «**Avtomatni ko‘krakka olish, sanoq ostida bajarilsin: amal – BIR, amal – IKKI, amal – UCh**», «**O‘ngga burilish sanoq ostida bajarilsin: amal – BIR, amal – IKKI**».

Terma komandalar bo‘linma bo‘yicha saf taqsimoti bajarilib tuziladi. Taqsimlanish uchun harbiy xizmatchilar bir yoki ikki sherengali saf tortib, mazkur Nizomning 89-moddasida bayon etilgan kabi, umumiylar raqamlanish bo‘yicha sanalib chiqishadi. Shundan so‘ng, komandadagi odam soniga bog‘liq holda vzwod va guruhlarga izchil taqsimlanib, ushbu bo‘linmalarning komandirlari tayinlanadi.

Paradda ishtirok etish va shu kabi, boshqa holatlarda, bo‘linma, o‘z komandirining buyrug‘iga muvofiq uch, to‘rt va undan ortiq kolonnali umumiylar saf tortadi. Bunda, harbiy xizmatchilar safga, odatda, bo‘yma-bo‘y turishadi.

Bo‘linma «**SAFLAN**» komandasiga binoan saf tortadi. Ushbu komandadan oldin saf tortish tartibi ko‘rsatib o‘tiladi, misol uchun: («**Guruh, bir sherengaga SAFLAN**»). Bunday komandaga binoan, bo‘linma harbiy xizmatchilari safdagi o‘z o‘rnini belgilangan interval va distansiyaga amal qilgan holda egallab, qad rostlab turishi lozim.

Qo‘shin turi va maxsus qo‘shinlarga mansub bo‘linmalarga komanda berish mobaynida «gruppa», «vzwod», «batalon» va «brigada» so‘zлари o‘rniga bo‘linma va harbiy qismlarning Qurolli Kuchlar turi tasarrufidagi qo‘shin turlari va maxsus qo‘shinlarda qabul qilingan nomlari aytib o‘tiladi.

***Komandir va harbiy xizmatchilarining saf tortishdan oldin
va safdagi majburiyatları***

Komandirning majburiyatları jumlasiga:

saf tortish joyi, vaqtি, tartibi, harbiy kiyim va aslaha rusumi, shu jumladan qanday qurol-aslaha va harbiy texnika bilan qurollanishni belgilash, zarurat bo'lsa, kuzatuvchi tayinlash;

o'z bo'linmasiga (harbiy qismiga) qarashli bo'ysunuvchilar, qurol-aslaha, harbiy texnika, o'q-dori, shaxsiy himoya vositalari va ko'makchi asbob-uskunalarini tekshirib chiqib, safdagi sonini bilish;

bo'ysunuvchilarning tashqi ko'rinishi, shuningdek, ularning egnidagi aslaha va anjomlar soni va tanasiga to'g'ri moslashtirilganini tekshirish;

saf intizomini saqlab borish, bo'linmalardan komanda va signallar, harbiy xizmatchilardan safdagi majburiyatlar aniq bajarilishini talab qilish;

yerda turib komanda berayotganida qaddini rostlab turish;

saf tortgan bo'linmalarining qurol-aslaha va harbiy texnikasini tashqi ko'rikdan o'tkazish, odam tashish uchun mo'ljallangan texnika soni va uning sozligini, tashiladigan (shataffa olinadigan) moddiy vositalar va mulkning transportga to'g'ri taxlanganini tekshirib chiqish, shaxsiy tarkibga xavfsizlik qoidalarini eslatib o'tib, yurish davomida belgilangan distansiya, harakat tezligi va qoidalariga amal qilish kiradi.

Harbiy xizmatchining majburiyatları jumlasiga:

o'z quroli, mas'uliyatiga biriktirilgan qurol-aslaha, harbiy texnika, o'q-dori, shaxsiy himoya vositalari, ko'makchi asbob-uskunalar, kiyimi va anjom-aslahalarning sozligini tekshirib chiqish;

kiyimni batartib kiyib, anjom-aslahalarni tanaga moslab taqish, o'rtog'ida ko'rgan kamchiliklarni bartaraf etishga yordam berish;

safdagi o'z o'rnini bilib, hovliqmasdan tez egallay olish, yurish davomida muvozanatni saqlab, belgilangan interval va distansiyaga, shu jumladan, xavfsizlik qoidalariga amal qilish, safdan (mashinadan) ruxsatsiz chiqmaslik (tushmaslik);

safda ruxsatsiz gaplashmaslik, chekmaslik, komandirning buyruq va komandalarini diqqat bilan eshitib, boshqalarga xalal bermagan holda tez va aniq bajarish;

buyruq va komandalarni buzmasdan, saf bo‘ylab baland va aniq uzatish kiradi.

2-§. Qurolsiz bajariladigan saf amallari va harakatlari

Qad rostlab turish



1-rasm. Qad rostlangan holat

Qad «SAFLAN» yoki «ROSTLAN» komandasiga binoan rostlanadi (1-rasm). Ushbu komandaga binoan harbiy xizmatchi zo‘riqmasdan to‘g‘ri turib, poshnalarini birga, oyoq uchlarini front bo‘ylab bir chiziqqa, oyoq kafti kengligida qo‘yadi, tizzasiga zo‘r bermay, to‘g‘ri tutadi, ko‘krak qafasini bir oz ko‘tarib, tanasini old tomon sal og‘diradi, qorin sohasini ichkariga tortadi, yelkasini to‘g‘ri tutib, kafti tanaga qaratilgan qo‘lini tushirib, biroz bu–kilgan barmoqlarini sonining yon tomoniga, o‘rtasiga taqaydi, boshini baland ko‘tarib, iyagini oldinga chiqarmay, to‘g‘ri tutadi, to‘g‘riga qarab, tegishli harakatni zudlik bilan bajarishga shay turadi.

Joyda turganda, buyruq berayotgan yoki olayotganda, bildiruv berayotganda, harbiycha salom berayotganda, komanda berilayotganda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi ijro etilayotganida qad, komandasiz rost tutiladi.

Bosh kiyimsiz safdan tashqarida turgan harbiy xizmatchi O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi ijro etilayotganida o‘ng qo‘lini ko‘krak sohasining chap tomoniga qo‘yadi. Bunda, kaft ko‘krakka qaratilib, uzatilgan barmoqlar birga tutiladi.

«**ERKIN**» komandasi berilganda, harbiy xizmatchi o‘zini erkin tutib, chap yoki o‘ng tizzasini bo‘sh qo‘yadi, lekin joyidan jilmaydi, gaplashmay, diqqat-e’tiborini chalg‘itmay turadi.

«**TO‘G‘RILAN**» yoki «**TO‘G‘RILANSIN**» komandasiga binoan, harbiy xizmatchi safdag'i joyini tark etmagan holda, o‘z quroli, kiyimi, anjom-aslahalarini to‘g‘rilab oladi. Buning uchun safdan chiqish kerak bo‘lsa, bevosita boshlig‘iga ruxsat so‘rab, murojaat qiladi.

«**TO‘G‘RILAN**» yoki «**TO‘G‘RILANSIN**» komandasidan oldin «**ERKIN**» komandasi beriladi.

Bosh kiyimni yechish uchun «**Bosh kiyim YECHILSIN**» komandasi, kiyish uchun esa «**Bosh kiyim KIYILSIN**» komandasi beriladi. Zarurat bo‘lsa, yakka turgan harbiy xizmatchi bosh kiyimini komandasiz yechib, kiyadi.

Yechilgan bosh kiyim erkin tushirilgan chap qo‘lga, nishoni old tomon qaratilgan holatda olinadi (2- rasm).

Bosh kiyimsiz yoki qurol «orqaga» olingan holatda bosh kiyim o‘ng qo‘l bilan, qurol «**tasmaga**», «**ko‘krakka**» va «**oyoqqa**» olingan holatda chap qo‘l bilan yechilib, kiyiladi. Karabin «**yelkaga**» olingan holatda bosh kiyim yechiladigan bo‘lsa, karabin dastlab «**oyoqqa**» holatiga keltiriladi.



2- rasm. Yechilgan bosh kiyimni tutib turish holati
a) furajka yechilgan; b) dala bosh kiyimi yechilgan;

Joyda turib burilish

Joyda turib burilish amallari «O‘ng-GA», «Chap-GA», «Ort-GA» komandalariga binoan bajariladi.

Ortga va chapga burilish amallari chap poshna va o‘ng oyoq uchida turgan holda, chap qo‘l tomon, o‘ngga burilish amali esa o‘ng poshna va chap oyoq uchida turgan holda, o‘ng qo‘l tomon burilib, bajariladi.

Burilish uchun ikkita amal bajariladi.

Birinchi amal. Tananing tik holati saqlanib, tizzani bukmay burilgancha, tana vazni oldinda turgan oyoqqa o‘tkaziladi.

Ikkinci amal. Ortda qolgan oyoq to‘g‘ri tortilib, oldingi oyoqqa taqaladi.

Harakat

Harbiy xizmatchi qadamlab yurib yoki yugurib harakatlanadi.

Qadamlab yurish harakati daqiqada **110 – 120** qadam tezlikda baja-riladi. Bunda, har bir qadam uzunligi **70 – 80** sm bo‘lishishi lozim.

Yugurish harakati daqiqada **165–180** qadam tezlikda bajariladi. Bunda, har bir qadam uzunligi **85 – 90** sm bo‘lishi lozim.

Qadamlab yurish harakati shaxdam qadam va oddiy qadam tashlab yurishga farq qiladi.

Shaxdam qadam tashlash harakati bo‘linma tantanali yurib o‘tayotganida, yurish davomida harbiycha salom berilayotganida, harbiy xizmatchi boshliq oldiga yaqinlashayotgan yoki undan nari ketayotganida, saf tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulot jarayonida safdan chiqayotgan yoki safga qaytayotganda, shuningdek, tantanali va motamli harbiy taomillar davomida bajariladi.

Poligon (jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlari o‘tkazilayotgan joy), jangovar mashinalar parki va bino ichida boshliq oldiga yaqinlashish yoki undan nari ketish, safdan chiqish yoxud safga qaytish amali oddiy qadam tashlab bajariladi.

Shaxdam qadam tashlash harakati «**Shaxdam qadam BOS**» komandasiga, oddiy qadam tashlab yurilayotganda «**Shaxdam BOS**» komandasiga, oddiy qadam tashlab yurish harakati esa «**Qadam BOS**» komandasiga binoan boshlanadi.

Dastlabki komanda berilganda tana biroz oldinga og‘dirilib, uning asosiy vazni, muvozanat saqlangan holda, o‘ng oyoqqa olib o‘tiladi. Ijro komandasi berilganda harakat chap oyoqdan, to‘liq qadam tashlab boshlanadi.

Shaxdam qadam tashlab yurganda, uchi oldinga uzatilgan oyoq 15–20 santimetrga ko‘tarilib, yerga butun kafti bilan bosiladi.

Qo‘lning yelkadan boshlanadigan harakati tana yaqinida bajariladi.

Bunda:

oldinga chiqarilgan qo‘l bukilib, panjasি kamar to‘qasidan bir kaft enida, tanadan bir kaft uzunligida, tirsak panja bilan barobar tutilgan holda ko‘tariladi; orqaga oxirigacha tortilgan qo‘l to‘g‘ri uzatiladi.

Barmoqlar yarim bukilgan bo‘lib, bosh to‘g‘ri tutilgancha oldinga qarab boriladi.

Oddiy qadam tashlab borilayotganda oyoqning uchi uzatilmaydi, oldinga erkin chiqarilib, yerga, oddiy yurib borilganday, bosiladi. Qo‘l tana yaqinida erkin harakatlanadi.



3- rasm. Shaxdam qadam tashlab yurish

Oddiy qadam tashlab yurish davomida berilgan «ROSTLAN» komandasiga binoan shaxdam qadam tashlash harakatiga, shaxdam qadam tashlash harakati davomida berilgan «ERKIN» komandasiga binoan esa oddiy qadam tashlab yurish harakatiga o‘tiladi.

Yugurish harakati «**Yugurib qadam BOS** (Yugur)», misol uchun, «**Guruh, yugurib qadam BOS**» komandasiga binoan boshlanadi.

Yugurish harakati joyda turgan holatda boshlanadigan bo‘lsa, dastlabki komanda berilganida tana oldinga og‘dirilib, biroz bukilgan qo‘l tirsagi ortga tortiladi. Yugurish harakati ijro komandasiga binoan, chap oyoqdan boshlanib, qo‘l harakati yugurish vaznida, erkin bajariladi.

Qadamlab yurish harakatidan yugurish harakatiga o‘tish uchun tirsagi ortga tortilgan qo‘l biroz bukiladi. Chap oyoq yerga bosilishi barobarida beriladigan ijro komandasiga binoan, o‘ng oyoq yerga bosilib, chap oyoqdan yugurish harakati boshlanadi.

Yugurish harakatidan qadamlab yurish harakatiga o‘tish uchun «**Qadam BOS**» komandasiga binoan, yana ikki qadam yugurib, chap oyoqdan qadamlab yurish harakati boshlanadi.

Joyda qadam bosish harakati «**Joyingda, qadam BOS**», komandasiga, yurish davomida esa «**JOYINGDA**» komandasiga binoan bajariladi.

Ushbu komandaga binoan joyda turgan holatda qadam bosilib, oyoq yerdan **15 – 20** santimetrga ko‘tariladi. Bunda, oyoq kafti yerga uchidan boshlab bosiladi, qo‘l harakati qadam vaznida bajariladi (4- rasm).



4- rasm. Joyda qadam bosish

Chap oyoq yerga bosilishi barobarida beriladigan «**TO‘G‘RIGA**» komandasiga binoan, o‘ng oyoq bilan joyda turgan holda yana bir qadam bosilib, harakat chap oyoq bilan to‘liq qadam tashlangancha boshlanadi. Bunda, dastlabki uchta qadam shaxdam bosiladi.

Harakatni to‘xtatish uchun, masalan: «**Oddiy askar Ibrohimov, TO‘XTA**» komandasasi beriladi. Yerga o‘ng yoki chap oyoq bosilishi barobarida beriladigan ijro komandasiga binoan, yana bir qadam bosilib, oyoqlar yonma-yon taqalgach, qad rost tutiladi.

Harakat tezligini o‘zgartirish uchun «**YIRIK QADAM BOS**», «**QISQA QADAM BOS**», «**YARIM QADAM BOS**», «**TO‘LIQ QADAM BOS**» komandalari beriladi.

Yakka turgan harbiy xizmatchi bir necha qadam chetga surilishi uchun, masalan: «**Oddiy askar Ibrohimov. O‘ngga (chapga) ikki qadam BOS**» komandasasi beriladi.

Ushbu komandaga binoan, harbiy xizmatchi har qadam tashlaganda bir oyog‘ini ikkinchisiga taqab borgan tarzda o‘ngga (chapga) ikki qadam tashlaydi.

Bir necha qadam oldinga yoki orqaga surilish uchun, masalan: «**Oldinga (orqaga) ikki qadam BOS**» komandasasi beriladi. Ushbu komandaga binoan, ikki qadam oldinga (orqaga) tashlanib, oyoqlar yonma-yon taqaladi.

O‘ngga, chapga va orqaga surilayotganda qo‘l harakati bajarilmaydi.

Yurish davomida burilish

Yurish davomida burilish amallari «**O‘ng-GA**», «**Chap-GA**», «**Ort-GA**» komandalariga binoan bajariladi.

O‘ngga (chapga) burilish uchun ijro komandasasi o‘ng (chap) oyoq yerga bosilishi bilan bir vaqtda beriladi. Ushbu komandaga binoan, chap (o‘ng) oyoq bilan yana bir qadam bosilib, uning uchida o‘ngga (chapga) buriladi va harakat, o‘ng (chap) oyoq oldinga uzatilgancha, yangi yo‘nalishda davom ettiriladi.

Ortga burilish uchun ijro komandasasi o‘ng oyoq yerga bosilishi bilan bir vaqtda beriladi. Ushbu komandaga binoan, chap oyoq bilan yana bir qadam (bir sanog‘i bo‘yicha) bosilib, o‘ng oyoq yarim qadam oldinga, biroz chapga bosiladi va ikkala oyoq uchida turgancha, chap qo‘l tomon keskin ortga (ikki sanog‘i bo‘yicha) burilgach, chap oyoq bilan (uch sanog‘i bo‘yicha) harakat davom ettiriladi.

Burilish amallari davomida qo‘l harakati qadam vaznida bajariladi.

3-§. Qurolsiz joyda turib va yurish davomida harbiycha salom berish

Harbiycha salom mazkur Nizomda belgilangan qad rostlab turish va yurish qoidalariga aniq amal qilgan holda beriladi.

Safdan tashqarida, bosh kiyimsiz, joyda turib harbiycha salom berish uchun uch-to‘rt qadamga yaqin kelgan boshliq (katta) tomon yuz–lanib, qad rostlanadi va uning yuziga, boshni burib borgancha, qarab turiladi.

Agar harbiy xizmatchi bosh kiyim kiygan bo‘lsa, bundan tashqari, kafti va birlashtirilgan barmoqlari to‘g‘ri uzatilgan o‘ng qo‘lini, o‘rta barmoqni chakkaga tekkizib, yelka chizig‘i va balandligida ko‘taradi (5-rasm). Boshni boshliq (katta) tomon burish mobaynida chakka yaqinidagi qo‘l holati o‘zgarmas qoladi.

Boshliq (katta) harbiycha salom berayotgan harbiy xizmatchining yonidan o‘tib ketgach, bosh to‘g‘ri tutilishi barobarida, o‘ng qo‘l tushiriladi.

5-rasm. Joyda turib
harbiycha salom berish

6-rasm. Yurish davomida
harbiycha salom berish

Safdan tashqarida, bosh kiyimsiz yurish davomida harbiycha salom berish uchun qo‘l harakati boshliqqa (kattaga) uch-to‘rt qadam qolganda navbatdagi qadam tashlash barobarida to‘xtatiladi, boshni boshliq (katta) tomon burib, yuziga qaragancha, yurib boriladi. Boshliqning (kattaning) yonidan o‘tgach, to‘g‘riga qarab, qo‘l harakati davom ettiriladi.

Agar harbiy xizmatchi bosh kiyim kiygan bo‘lsa, navbatdagi qadam tashlash barobarida, o‘ng qo‘lini chakkaga keltiradi, chap qo‘lini esa soni yaqinida tutib, harakatdan to‘xtatadi (6-rasm). Boshliqning (kattaning) yonidan o‘tgach, chap oyoqni yerga bosish barobarida to‘g‘riga qarab, qo‘lini chakkadan tushiradi.

Boshliqni (kattani) quvib o‘tish fursatida harbiycha salom quvib o‘tishning birinchi qadami barobarida beriladi. Ikkinci qadam tashlangach, to‘g‘riga qarab, qo‘l tushiriladi.

Agar harbiy xizmatchining qo‘li band bo‘lsa, harbiycha salom, boshni boshliq (katta) tomon burish tarzida beriladi.

4-§. Safdan chiqish va safga qaytish.

Boshliq oldiga kelish va uning oldidan ketish

Harbiy xizmatchi safdan chiqishi uchun, masalan: «**Oddiy askar To‘raev. Safdan falon qadam chiqing**» yoki «**Oddiy askar To‘raev. Oldimga** (oldimga yuguring)» komandasini beriladi.

O‘z familiyasini eshitgan harbiy xizmatchi «**Men**» deya, safdan chiqish komandasini eshitgach esa «**Xo‘p bo‘ladi**», deya javob beradi.

Birinchi komandaga binoan, harbiy xizmatchi birinchi sherengadan boshlab sanagancha, safdan tayinlangan qadamga shaxdam yurib chiqadi va to‘xtab, saf tomon yuzlanadi.

Ikkinci komandaga binoan, harbiy xizmatchi birinchi sherengadan boshlab bir-ikki qadam tashlagach, yurish davomida boshliq tomon burilib, uning oldiga qisqa yo‘l bilan shaxdam qadam tashlab yoki yugurib boradi. Boshliq oldiga yetishga ikki-uch qadam qolganda to‘xtab, oyoqlarni yonma-yon taqash bilan bir vaqtida, o‘ng qo‘lni chakkaga keltirgancha, yetib kelgani haqida bildiruv beradi, misol uchun: «**O‘rtoq serjant, oddiy askar To‘raev buyrug‘ingizga binoan keldi**».

Agar safdan chiqish buyrug‘ini olgan harbiy xizmatchi ikkinchi sherengada turgan bo‘lsa, safdan chiqishdan oldin qo‘lini oldinda turgan harbiy xizmatchining yelkasiga qo‘yadi. Oldingi sherengada turgan ushbu harbiy xizmatchi bir qadam oldinga tashlab, o‘ng oyog‘ini chap oyog‘iga taqamay, o‘ng tomon bir qadam o‘tib, safdan chiqayotgan harbiy xizmatchini oldinga o‘tkazib yuboradi va o‘z joyini egallaydi.

Agar safdan chiqish buyrug‘ini olgan harbiy xizmatchi birinchi sherengada turgan bo‘lsa, ikkinchi sherengada turgan harbiy xizmatchi uning bo‘shagan o‘rnini egallaydi.

Agar safdan chiqish buyrug‘ini olgan harbiy xizmatchi ikki, uch (to‘rt) kolonnali safda turgan bo‘lsa, safning yaqin qanoti tomon o‘ngga (chapga) buriladi. Uning yonida turgan harbiy xizmatchi esa o‘ng (chap) oyog‘i bilan bir qadam yonga tashlab, chap (o‘ng) oyog‘ini o‘ng (chap) oyog‘iga taqamay, bir qadam orqaga o‘tadi va safdan chiqayotgan harbiy xizmatchini o‘tkazib yuborgach, o‘z joyini egallaydi.

Agar safdan chiqish buyrug‘ini olgan harbiy xizmatchi qurollangan bo‘lsa, «yelkaga» holatidagi karabindan tashqari, boshqa quroq turining holati o‘zgarmas qoladi. «Yelkaga» holatidagi karabin safdan chiqishdan oldin «oyoqqa» holatiga tushiriladi.

Harbiy xizmatchi safga qaytishi uchun, masalan: «**Oddiy askar To‘raev. Safga turing**» yoki faqat: «**Safga turing**» komandasi beriladi.

Safga yuzlanib turgan harbiy xizmatchi dastlabki «**Oddiy askar To‘raev**» komandasiga binoan, ya’ni o‘z familiyasini eshitgach, boshliq tomon burilib: «**Men**» deya, «**Safga turing**» ijro komandasi binoan esa agar u quolsiz yoki quroli «orqaga» holatida bo‘lsa, o‘ng qo‘lini chakkaga keltirib: «**Xo‘p bo‘ladi**», deya javob beradi. Shundan so‘ng, yurish yo‘nalishi tomon burilib, birinchi qadam tashlash barobarida qo‘lini chakkadan tushiradi. Qisqa yo‘l bilan shaxdam qadam tashlab borib, safdag'i joyini egallaydi.

Agar faqat «**Safga turing**» ijoro komandasasi berilgan bo‘lsa, harbiy xizmatchi boshliq tomon burilmay, safdagi o‘z o‘rniga qaytadi.

Safdan chiqish amali qurol bilan bajarilgan bo‘lsa, qurol, safdagi harbiy xizmatchilar quroli qanday holatda bo‘lsa, shu holatga keltiriladi.

Safdan tashqarida boshliq oldiga yaqinlashayotgan harbiy xizmatchi boshliqqa besh-olti qadam qolganida shaxdam qadam tashlay boshlaydi va ikki-uch qadam qolganida to‘xtab, oyoqlarni yonma-yon taqash barobarida, o‘ng qo‘lini chakkaga keltiradi va yetib kelgani haqida bildiruv beradi. Bildiruv berib bo‘lgach, qo‘lini chakkadan tushiradi.

Boshliq oldiga qurol bilan yaqinlashganda, «yelkaga» holatidagi karabindan tashqari, boshqa qurol turining holati o‘zgarmas qoladi. «Yelkaga» holatidagi karabin boshliq qarshisida to‘xtalgach, «oyoqqa» holatiga tushiriladi. Agar qurol «orqaga» holatiga keltirilmagan bo‘lsa, qo‘l chakkaga ko‘tarilmaydi.

Boshliq oldidan ketadigan harbiy xizmatchi, ketishga ijozat olgach, o‘ng qo‘lini chakkaga keltirib: «**Xo‘p bo‘ladi**», deya javob beradi. Shundan so‘ng, yurish yo‘nalishi tomon burilib, birinchi qadam tashlash barobarida o‘ng qo‘lini chakkadan tushiradi. Uch-to‘rt shaxdam qadam tashlagach, erkin yurib ketadi.

Boshliq oldidan ketadigan harbiy xizmatchi qurollangan bo‘lsa, «oyoqqa» holatidagi karabindan tashqari, boshqa qurol turining holati o‘zgarmas qoladi. Agar zarur bo‘lsa, harbiy xizmatchi «**Xo‘p bo‘ladi**», deya javob bergenidan so‘ng, qurolini boshqa holatga keltiradi.

Boshliq harbiy xizmatchiga safga qaytish komandasini yoki ketishga ijozat berayotganda, o‘ng qo‘lini chakkaga keltiradi. Komanda (ijozat) berib bo‘lgach, qo‘lini tushiradi.

5-§. Guruh safi

Yonma-yon tizilgan saf

Guruhning yonma-yon tizilgan safi bir yoki ikki sherengali bo‘lishi mumkin.

Guruh yonma-yon tizilib saf tortishi uchun «**Guruh, bir sherengaga SAFLAN**» komandasi beriladi.

Komanda bergen guruh komandiri qad rostlab, saf fronti tomon yuzlanib turadi. Guruh shaxsiy tarkibi o‘z komandirining chap tomonida saf tortadi. Ikki sherengali safning oxirgi qatori to‘liq bo‘lishi lozim.

Shaxsiy tarkib saf torta boshlagach, guruh komandiri safdan chiqib, o‘z bo‘ysunuvchilarining xatti-harakatlarini kuzatib boradi.

Guruh safini tekislash zarur bo‘lsa «**TEKISLAN**» yoki «**Chapga TEKISLAN**» komandasi beriladi.

«**TEKISLAN**» komandasiga binoan, o‘ng qanotda turgan harbiy xizmatchidan tashqari hamma boshini chapga (o‘ng quloqni chap quloqqa nisbatan balandroq, iyakni biroz ko‘targan holatda) burib, har bir harbiy xizmatchi o‘zini birinchi sanab, to‘rtinchi kishining ko‘kragini ko‘rishi lozim. «**Chapga TEKISLAN**» komandasiga binoan, chap qanotda turgan harbiy xizmatchidan tashqari hamma boshini chapga (chap quloqni o‘ng quloqqa nisbatan balandroq, iyakni biroz ko‘targan holatda) burib, har bir harbiy xizmatchi o‘zini birinchi sanab, to‘rtinchi kishining ko‘kragini ko‘rishi lozim.

Tekislanayotgan harbiy xizmatchilar biroz oldinga chiqishi, ortga yoki yon tomonga surilishi mumkin.

«Oyoqqa» holatidagi karabin (pulemyot) bilan tekislanayotganda, bundan tashqari, ijro komandasi berilganda qurol nayzasi (stvolining og‘zi) tana tomon tortilib, o‘ng yonboshga siqib olinadi.

Tekislanib bo‘lgach, «**ROSTLAN**» komandasi beriladi. Ushbu komandaga binoan, barcha harbiy xizmatchilar to‘g‘riga qaraydi, karabinni (pulemyotni) esa oldingi holatga keltiradi.

Guruuh ortga burilib, tekislanayotganida komanda berayotgan komandir tekislanish tomonini ko‘rsatib o‘tishi lozim, misol uchun: «**O‘ngga** (chapga) **TEKISLAN**».

Joyda turganda berilgan «**ERKIN**» va «**TO‘G‘RILAN** (TO‘G‘RILANSIN)» komandalariga binoan, shaxsiy tarkib mazkur Nizomning 28- moddasida ko‘rsatilgan kabi, ish tutishi kerak.

«**Guruuh TARQAL**» komandasiga binoan, harbiy xizmatchilar har tomon tarqab ketadi. Guruuh shaxsiy tarkibini yig‘ish uchun «**Guruuh OLDIMGA**» komandasi beriladi. Ushbu komandaga binoan, harbiy xizmatchilar komandirning oldiga yugurib kelib, uning qo‘srimcha komandasiga binoan saf tortadi.

Guruuh tarkibida burilish amallari barcha harbiy xizmatchilar tomonidan bir vaqtda, saf tekisligi saqlangan holda, mazkur Nizomda bayon etilgan komanda va qoidalarga binoan bajariladi.

Guruuh ikki sherengali saf tarkibida o‘ngga (chapga) burilsa, guruuh komandiri yarim qadam o‘ngga (chapga), ortga burilsa, bir qadam oldinga tashlaydi.

Guruuh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofani kengaytirish uchun «**Guruuh, o‘ngga** (chapga, o‘rtadan) **falon qadamga YOYILSIN** (yugurib - YoYILSIN)» komandasi beriladi.

Ijro komandasiga binoan, guruuh shaxsiy tarkibi, oraliq masofa kengaytirilishi uchun saf o‘rtasidagi harbiy xizmatchi sifatida tayinlangan harbiy xizmatchidan tashqari, tayinlangan tomon burilib, oyoqlarni yonma-yon taqash barobarida, boshni front tomon burgancha, izma-iz kelayotgan harbiy xizmatchiga yelka uzra qarab, undan uzoqlashmay, tezlashgan yarim qadam bosib (yugurib) boradi. Har bir harbiy xizmatchi, uning ortidan kelayotgan harbiy xizmatchi to‘xtagach, komandada tayinlangan qadam tashlab, o‘ngga (chapga) buriladi.

Guruuh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofa saf o‘rtasidan boshlab kengaytirilayotganida, saf o‘rtasida turgan harbiy xizmatchi tayinlanadi. Saf o‘rtasidagi harbiy xizmatchi sifatida tayinlangan harbiy xizmatchi o‘z familiyasini eshitib: «**MEN**», deya javob bergancha, o‘ng qo‘lini oldinga uzatib, tushiradi.

Guruuh safi tekislanar ekan, oraliq masofa kengaytirilganda tayinlangan interval saqlanadi.

Guruh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofani qisqartirish uchun «**Guruh, o'ngga** (chapga, o'rtaga) **falon qadamga JIPSLAN** (yugurib - JIPSLAN)» komandasasi beriladi.

Ijro komandasiga binoan, guruh shaxsiy tarkibi, oraliq masofa qisqartirilishi uchun saf o'rtasidagi harbiy xizmatchi sifatida tayinlangan harbiy xizmatchidan tashqari, jipslashish tomon burilib, tezlashgan yarim qadam bosgancha (yugurgancha) komandada tayinlangan intervalga yaqinlashadi. Ushbu intervalga yetib kelgach, mustaqil ravishda to'xtab, o'ngga (chapga) buriladi.

Guruh harakat boshlashi uchun, agar shaxsiy tarkib qurollangan bo'lsa: «**Guruh, tasma-GA** (yelka-GA)», «**Qadam** (shaxdam, yugurib qadam) **BOS**» komandalari beriladi. Zarurat bo'lsa, komandada harakat yo'nalishi va tekislanish tomoni tayinlanadi, misol uchun: «**Guruh, tasma-GA** (yelka-GA)» (shaxsiy tarkibi qurollangan bo'lsa); «**Falon yo'nalishga, tekislanish o'ngga** (chapga), **qadam** (shaxdam, yugurib qadam) **BOS**».

«**BOS**» ijro komandasiga binoan, jamiki shaxsiy tarkib tekislikni saqlagan, interval va distansiyaga rioya etgan holda, chap oyoqdan harakat boshlaydi. Tekislanish tomoni tayinlanmagan bo'lsa, boshni burilmay, nigoh-la o'ng qanotga tekislanib boriladi.

Guruh harakatini to'xtatish uchun «**Guruh, TO'XTA**» komandasasi beriladi.

Harbiy xizmatchilar qurolning har xil turlari bilan qurollangan bo'lib, ulardan birini boshqacha holatga keltirish zarur bo'lsa, komandada tegishli qurol turi ko'rsatib o'tiladi, misol uchun: «**Avtomat ko'krak-KA**»; «**Pulemyot tasma-GA**»; «**Karabin yelka-GA**» va h.

Safda, bir joyda turgan guruh bir necha qadamga surilishi uchun «**Guruh, o'ng-GA** (chap-GA)» komandasasi beriladi. Gurh burilgach, «**Oldinga falon qadam BOS**» komandasasi beriladi. Harbiy xizmatchilar tegishli masofaga surilgach, «**Chap-GA**» («o'ng-GA») komandasiga binoan, oldingi holat qabul qilinadi.

Oldinga yoki orqaga surilish amali mazkur Nizomning 37-moddasida belgilangan tarzda bajariladi.

Erkin yurish zarurati tug‘ilsa «**ERKIN YURILSIN**» komandasi, bir xil qadamlab yurish kerak bo‘lsa, «**BIR XIL QADAM TASHLANSIN**» komandasi beriladi.

Harakat yo‘nalishini o‘zgartirish uchun «**Guruh, o‘ng** (chap) **yelka oldinga, qadam BOS**» komandasi, yurish davomida esa «**Guruh, o‘ng** (chap) **yelka OLDINGA**» komandasi beriladi.

Ushbu komandaga binoan, guruh o‘ng (chap) yelkani oldinga burib harakat boshlaydi, xususan:

burilayotgan qanotdagi harbiy xizmatchi boshini front bo‘yicha burib, boshqalarni harakatsiz qanot tomon siqib qo‘ymay, to‘liq qadam tashlab boradi;

harakatsiz qanotdagi harbiy xizmatchi turgan joyida qadam tashlab, burilayotgan qanot harakatiga mos ravishda chapga (o‘ngga) asta burilib boradi;

qolganlar esa burilayotgan qanot tomon boshni burmay qarab, harakatsiz qanot tomondagi tirsagini qo‘sning tirsagiga tekkizgancha front tekisligini saqlab, harakatsiz qanotga qancha yaqin bo‘lsa, shuncha qisqa qadam tashlab boradi.

Guruh harakatining yo‘nalishi tegishlicha o‘zgargach, «**TO‘G‘RIGA**» yoki «**Guruh TO‘XTA**» komandasi beriladi.

Bir sherengaga saf tortgan guruh ikki sherengaga saf tortishi uchun dastlab shaxsiy tarkib birinchi va ikkinchi raqamlarga bo‘linadi. Buning uchun «**Guruh, birinchi va ikkinchiga bo‘linib SANA**» komandasi beriladi.

Ushbu komandaga binoan, o‘ng qanotdagi harbiy xizmatchidan boshlab hamma, navbat bilan, boshini chap tomonda turgan qo‘sni tomon burgancha, o‘z raqamini talaffuz etib, yana to‘g‘riga qarab turadi. Chap qanotdagi harbiy xizmatchi boshini burmaydi.

Ketma-ket raqamlar tartibidagi sanoq ham xuddi shu tarzda amalga oshiriladi va buning uchun «**Guruh, raqamlar tartibi bilan SANA**» komandasi beriladi.

Ikki sherengali saf sanog‘i yakuniga yetgach, ikkinchi sherenganing chap qanotida turgan harbiy xizmatchi «To‘liq» yoki «To‘lmagan», deya bildiruv beradi.

Bir sherengaga saf tortgan guruh joyda ikki sherengali safga qayta tizilishi uchun «**Guruh, ikki sherengaga SAFLAN**» komandasasi beriladi.

Ijro komandasiga binoan, ikkinchi raqamlilar chap oyoq bilan bir qadam orqaga tashlagach, o‘ng oyoqni o‘ng tomon surib, chap oyoqni unga taqaydi va shu tarzda birinchi raqamlilar ortiga turib olishadi.

Ikki sherengaga jips saf tortgan guruh joyda bir sherengali safga qayta tizilishi uchun, dastlab, interval bir qadamga kengaytiradi va shundan so‘ng «**Guruh, bir sherengaga SAFLAN**» komandasasi beriladi.

Ijro komandasiga binoan, ikkinchi raqamlilar chap oyoqni chap tomon surib, o‘ng oyoq bilan bir qadam oldinga tashlagach, chap oyoqni unga taqaydi va shu tarzda birinchi raqamlilar chizig‘iga chiqib olishadi.

Qurol yerga «**Guruh, qo‘yilsin QUROL**» komandasiga binoan yotqiziladi.

Dastlabki «**Qo‘yilsin**» komandasiga binoan, avtomat yoki qo‘l granatomyoti o‘ng qo‘lga, karabin yoxud qo‘l pulemyoti «oyoqqa» holatiga olinadi. Bundan tashqari, qo‘l pulemyotining tirgagi qaytarib ochiladi.

«**QUROL**» ijro komandasiga binoan, birinchi sherenga ikki qadam oldinga tashlab, oyoqlarni yonma-yon taqaydi. Shundan so‘ng, ikkala sherenga chap oyoqni bir vaqtda oldinga tashlab, zatvorining dastasi (zatvor ramasi) pastga qaratilgan, qo‘ndog‘ining orqa yuzi o‘ng oyoq uchiga yaqin keltirilgan qurolni yerga, o‘ng oyoq tizzasini bukmay, yerga yuzlanmay yotqizadi. Qurol yotqizilgach, gavda ko‘tarilib, oyoqlar yonma-yon taqaladi.

Qo‘l granatomyoti yerga, dastasi chapga qaratib yotqiziladi. Qo‘l pulemyoti o‘z tirgagiga tirab qo‘yiladi.

Bir sherengaga saf tortgan guruh ijro komandasiga binoan, yuqorida bayon etilgan amallarning faqat so‘nggi ikkitasini bajaradi.


Yerdagi qurol «**Guruh QUROLGA**» va «**QUROLLAN**» komandalariga binoan olinadi.

Birinchi komanda berilganda, guruh shaxsiy tarkibi o‘z quroli qarshisida saf tortadi. Ikkinci komanda berilganda, harbiy xizmatchilar chap oyoqni bir qadam oldinga tashlab, qurolni o‘ng qo‘lga olgach, gavdani ko‘taradi va chap oyoqni o‘ng

oyoq yoniga taqaydi. Shundan so‘ng, ikkinchi sherenga oldinga ikki qadam bosadi va ikkala sherenga qurolni «tasmaga» holatiga keltiradi. Qo‘l pulemyotining tirgagi bukib taxlanadi.

Yurish safi

Guruhnинг yurish safi uch, ikki yoki bir kolonnali bo‘lishi mumkin (7, 8 va 9-rasmlar).




7-rasm. Guruhnинг yonma-yon tizilgan yurish safi (variant):

a) uch kolonnali saf; b) to‘rt kolonnali saf


Guruh joyda uch kolonnaga «**Guruh, uch kolonnaga SAFLAN**» komandasiga binoan saf tortadi.

Shaxsiy tarkib, ushbu komandaga binoan, 7-rasmda ko‘rsatilgan kabi saf tortadi.


Tarkibi o‘n, o‘n ikki kishidan tashkil topgan guruhnинг ikki kolonnali yurish safi 10-rasmda aks ettirilgan.



8-rasm. Guruhning ikki kolonnali yurish safi (variant)



9-rasm. Guruhning bir kolonnali yurish safi (variant)



10-rasm. Tarkibi o'n, o'n ikki kishidan tashkil topgan guruhning yurish safi (variant)

Guruhni bir (ikki) kolonnali safdan yonma-yon tizilgan bir (ikki) sherengali safga qayta saf torttirish amali, ushbu guruhning chapga burilishi bilan bajariladi.

Guruhni yonma-yon tizilgan bir (ikki) sherengali safdan bir (ikki) kolonnali safga qayta saf torttirish amali, ushbu guruhning «**Guruh, o'ng-GA**» komandasiga binoan, o'ngga burilishi bilan bajariladi.

Guruhni bir kolonnali safdan ikki kolonnali safga qayta saf torttirish amali «**Guruh, ikki kolonna bo'lib, qadam BOS**» komandasi, yurish davomida «**BOS**» komandasiga binoan bajariladi.

Ijro komandasiga binoan yetakchi yarim qadamdan tashlab yura boshlaydi, ikkinchi raqamlilar esa safning o'ng tomoniga chiqib, kolonnadagi joyini qadam vaznida yurib egallaydi. Guruh shaxsiy tarkibi «**TO'G'RIGA**» yoki «**Guruh, TO'XTA**» komandasi berilgunga qadar yarim qadamdan tashlab boradi.

Guruhni yonma-yon tizilgan ikki (bir) sherengali safdan bir (ikki) kolonnali safga qayta saf torttirish amali «**Guruuh, o'ng-GA**», harbiy xizmatchilar qurollangan bo'lsa, «**Tasma-GA**», («**Yelka-GA**»), «**Bir kolonna bo'lib, qadam BOS**», yurish davomida «**BOS**» komandalariga binoan bajariladi.

«**BOS**» ijro komandasiga binoan, yetakchi to'liq qadam, qolganlar esa yarim qadamdan tashlab yuradi. Safda joy bo'shagan sari, ikkinchi raqamlilar birinchi raqamlilar ortiga qadam vaznida o'tgach, harakatni to'liq qadam tashlagancha, davom etadi.

Guruhni yonma-yon tizilgan ikki sherengali safdan uch kolonnali safga qayta saf torttirish amali «**Guruuh, o'ng-GA**», harbiy xizmatchilar qurollangan bo'lsa, «**Tasma-GA**», («**Yelka-GA**»), «**Uch kolonna bo'lib, qadam BOS**», yurish davomida «**BOS**» komandalariga binoan bajariladi.

«**BOS**» ijro komandasiga binoan, birinchi sherengadagi harbiy xizmatchilar yarim qadamdan tashlab yura boshlaydi. Ikkinci sherenganing chap qanotidagi harbiy xizmatchi birinchi sherenga chizig'iga, belgilangan intervalga amal qilgan holda o'tib oladi. Uning o'rmini esa uchinchi sherenganing o'ng qanotidagi harbiy xizmatchi yurish davomida egallaydi. Uchinchi sherenganing chap qanotidagi harbiy xizmatchi uchinchi kolonnada hosil bo'lgan joyni egallaydi. Qolgan harbiy xizmatchilar ham xuddi shu tarzda safni to'ldirib boradi. Guruh komandiri saf to'lganiga ishonch hosil qilgach, «**TO'G'RIGA**» yoki «**Guruuh, TO'XTA**» komandasini beradi.

Guruhni uch kolonnali safdan ikki kolonnali safga qayta saf torttirish amali «**Guruuh, ikki kolonna bo'lib, qadam BOS**», yurish davomida «**BOS**» komandasiga binoan bajariladi.

Ushbu komandaga binoan, birinchi kolonna to'g'riga yurgancha, mazkur Nizomning 97- moddasida bayon etilgan tarzda ikki kolonnaga saf tortib boradi. Qolgan harbiy xizmatchilar joyda qadam bosadi va oldinda borayotganlar ortidan ikki kolonnaga qayta saf tortgancha, izchil chiqib boradi.

Guruh uch kolonnali safdan yonma-yon tizilgan ikki sherengali safga qayta saf tortishi uchun, ushbu guruh dastlab ikki kolonnaga saf tortadi va shundan so‘ng, mazkur Nizomning 95-moddasida bayon etilgan tarzda ikki sherengali safga qayta saf tortadi.

Guruhni uch kolonnali safdan bir kolonnali safga qayta saf torttirish amali «**Guruh, bir kolonna bo‘lib, qadam BOS**», yurish davomida «**BOS**» komandasiga binoan bajariladi.

Ushbu komandaga binoan, birinchi kolonna to‘g‘riga yuradi. Qolgan harbiy xizmatchilar esa joyda qadam bosib, «**TO‘G‘RIGA**» komandasasi berilgach, oldinga chiqqan kolonna ortidan to‘liq qadam tashlagancha, izchil harakat boshlaydi.

Guruhni bir kolonnali safdan uch kolonnali safga qayta saf torttirish amali «**Guruh, uch kolonna bo‘lib, qadam BOS**», yurish davomida «**BOS**» komandasiga binoan bajariladi.

Ushbu komandaga binoan, yetakchi harbiy xizmatchi joyida qadam bosadi. Uning ortidagi ikkinchi va uchinchi harbiy xizmatchilar birinchi harbiy xizmatchi turgan chiziqqa chiqib, uch kolonnali saf boshini hosil qilgancha, joyida qadam bosishadi. Ayni vaqtda, qolgan harbiy xizmatchilar ham safni xuddi shu izchillikda to‘ldirishadi. Guruh komandiri saf to‘lganiga ishonch hosil qilgach, «**TO‘G‘RIGA**» yoki «**Guruh, TO‘XTA**» komandasini beradi.

Guruhni ikki kolonnali safdan uch kolonnali safga qayta saf torttirish amali «**Guruh, uch kolonna bo‘lib, qadam BOS**», yurish davomida «**BOS**» komandasiga binoan bajariladi.

«**BOS**» ijro komandasiga binoan, guruh tarkibi uch kolonnali safga mazkur Nizomning 99-moddasida bayon etilgan tarzda qayta saflanadi.

Guruh shaxsiy tarkibini yig‘ish uchun «**Guruh OLDIMGA**» komandasasi beriladi. Ushbu komandaga binoan, harbiy xizmatchilar komandirning oldiga yugurib kelib, uning qo‘srimcha komandasiga binoan saf tortadi.

Yurish safiga tizilgan guruhning harakat yo‘nalishini o‘zgartirish uchun «**Guruh, o‘ng** (chap) **yelka OLDINGA**» komandasi beriladi. Bunda, yetakchi «**TO‘G‘RIGA**» komandasi berilgunga qadar, o‘ng (chap) yelkasini oldinga burib, harakat boshlaydi. Qolganlar uning ortidan boradi.

«**Guruh, ORTIMDAN**», «**Guruh, ortimdan yugurib qadam BOS**» komandalari berilganida, shaxsiy tarkib komandir ortidan boradi.

Safda joyda turib va yurish davomida harbiycha salom berish

Guruh safda joyda turib harbiycha salom berishi uchun, boshliq safga yaqin kelishiga 10–15 qadam qolganda, guruh komandiri «**Guruh, ROSTLAN, tekislanish O‘NGGA** (ChAPGA, O‘RTAGA)» komandasini beradi.

Ushbu komandaga binoan, guruh shaxsiy tarkibi qad rostlab, boshini o‘ngga (chapga) burgancha, boshliqni nigoh-la kuzatgancha, burib turadi.

Boshliq saf ortidan kelgan holatda guruh komandiri shaxsiy tarkibni ortga burib, harbiycha salom berish komandasini beradi.

Safda o‘z joyida turgan guruh komandirining o‘rinbosari va boshqa kichik komandirlar qo‘lni chakkaga keltirmaydi.

Yurish davomida saf qo‘shig‘i ijro etib borilayotgan bo‘lsa, harbiycha salom berish komandasi berilgach, qo‘shiq ijrosi to‘xtatiladi.

Harbiycha salom berish komandasini bergen guruh komandiri, agar u qurolsiz yoki quroli «orqaga» holatida bo‘lsa, qo‘lni chakkaga keltirib, boshliq tomon buriladi (agar uning quroli «yelkaga», «tasmaga» yoki «ko‘krakka» holatida bo‘lsa, mazkur Nizomning 68- moddasida bayon etilgan tarzda ish tutib, quro bilan band bo‘lmagan qo‘lining harakatini davom ettiradi) va shaxdam qadam tashlagancha, boshliq oldiga borib, ikki-uch qadam qolganda to‘xtaydi va bildiruv beradi. Misol uchun: «**O‘rtoq leytenant. Ikkinchи guruh falon vazifa ijrosi bilan shug‘ullanmoqda. Guruh komandiri kichik serjant Ibrohimov**».

Harbiycha salom berilib, qarshi olinayotgan boshliq, harbiycha salom berish komandasi berilgach, qo‘lini chakkaga keltirib, bildiruvni qabul qiladi.

Bildiruv berib bo‘lgan guruh komandiri qo‘lini chakkadan tushirmay, chap (o‘ng) oyog‘i bilan yon tomon qadam tashlab, o‘ngga (chapga) burilgancha, chetga o‘tadi va boshliqni oldinga o‘tkazib, undan bir-ikki qadam ortda, safdan tashqi tomonda yuradi.

Boshliq saf oldidan o‘tib ketgach (yoki u «**ERKIN**» komandasini bergach), guruh komandiri «**ERKIN**» komandasini berib (takrorlab), qo‘lini chakkadan tushiradi.

Agar boshliq safda turgan harbiy xizmatchiga harbiy unvoni va familiyasini aytib murojaat qilsa, ushbu harbiy xizmatchi «**Men**» deya, agar unga faqat harbiy unvoni aytib murojaat qilingan bo‘lsa, o‘z harbiy unvoni va familiyasini aytib, javob qaytaradi. Bunda u, qurolining holatini o‘zgartirmaydi, qo‘lini chakkaga keltirmaydi.

Guruh safda yurish davomida harbiycha salom berishi uchun, boshliqqa 10–15 qadam qolganda, guruh komandiri «**Guruh, ROSTLAN, tekislanish O‘NGGA (ChAPGA)**» komandasini beradi.

«**ROSTLAN**» komandasiga binoan, guruh shaxsiy tarkibi shaxdam qadam tashlay boshlaydi, «**Tekislanish O‘NGGA (ChAPGA)**» komandasiga binoan esa boshini o‘ngga (chapga) burib, ikkala qo‘l yoki qurol bilan band bo‘lmagan qo‘l harakatini to‘xtatadi. Agar shaxsiy tarkib karabin bilan qurollangan bo‘lib, ushbu qurol turi «tasmaga» holatiga olingan bo‘lsa, qo‘l harakati to‘xtatilmaydi. Guruh komandiri, agar u quolsiz yoki quroli «orqaga» holatiga olingan bo‘lsa, boshini boshliq tomon burib, qo‘lini chakkaga keltiradi.

Saf boshliq oldidan o‘tib ketgach (yoki boshliq «**ERKIN**» komandasini bergach), guruh komandiri «**ERKIN**» komandasini berib (takrorlab), qo‘lini chakkadan tushiradi.

Boshliqning salomiga yoki e’lon qilgan minnatdorligiga harbiy xizmatchilar baravar, baland ovozda, aniq javob qaytaradi. Yurish davomida qaytariladigan javob chap oyoq yerga bosilishi bilan boshlanib, javobning keyingi so‘zлari har bir qadam bosilganida talaffuz etiladi.

Yurish safi

Vzvodning yurish safi uch (to‘rt) yoki ikki kolonnali bo‘lishi mumkin (24- va 25- rasmlar).

Vzvod joyda uch (ikki) kolonnaga «**Guruuh, uch (ikki) kolonnaga SAFLAN**» komandasiga binoan saf tortadi.

Ushbu komandaga binoan vzvod 24- va 25- rasmlarda ko‘rsatilgan kabi saf tortadi. Bunda guruhlar, o‘z komandirining komandasiga binoan, tartib raqamiga ko‘ra uch (ikki) kolonna bo‘lib saf tortadi. Maxsus bo‘linma uchinchi guruh ortiga, boshqaruv guruhi esa birinchi guruh komandirining oldida ikki kolonna bo‘lib saf tortadi.

Vzvod yurish kolonnasiga saf tortgan yoki qayta tizilganda, vzvod komandirining o‘rinbosarlari vzvod komandiridan ikki qadam orqada, ularning ortida esa vzvod komandirining buyrug‘iga binoan, signalchi-barabanchi turadi. Vzvod komandirining moddiy ta’midot bo‘yicha yordamchisi maxsus bo‘linma ortida, vzvod katta texnigi boshqaruv guruhining oldiga turadi.

Vzvodning guruh kolonnalari chizig‘idan yurish safiga qayta tizilishi «**Vzvod, tasma-GA**», «**Yelka-GA**»; «**Uch (to‘rt, ikki) kolonnadan yurish kolonnasiga saflanib, ortimdan** (yoki tegishli harakat yo‘nalishi tayinlanadi), **qadam BOS**» yoki (agar shaxsiy tarkib qurollangan bo‘lsa) «**Vzvod, tasma-GA**», «**Yelka-GA**»; «**Uch (to‘rt, ikki) kolonnadan yurish kolonnasiga saflanib, yo‘l bo‘ylab, oldinda boshqaruv guruhi, ortidan birinchi guruh va hokazo** (yoxud boshqacha yurish tartibi tayinlanadi), **qadam BOS**» komandalariga binoan amalga oshiriladi.

«**Yurish kolonnasiga**» komandasiga binoan, guruh komandirlari o‘z guruhI oldiga, vzvod katta texnigi esa boshqaruv guruhi oldiga ikki qadamga chiqadi.

Ijro komandasiga binoan, boshqaruv guruhi yoki komanda aytilgan boshqa guruh harakat boshlaydi. Qolgan bo‘linmalar joyda qadam tashlab turadi. Boshqaruv guruhi yoki komanda aytilgan boshqa guruh uzoqlashgach, qolgan bo‘linmalar, o‘z komandirining «**TO‘G‘RIGA**» komandasiga binoan, vzvod komandiri tomonidan tayinlagan yoki ko‘rsatilgan tartibda harakat boshlaydi.

Zarurat bo‘lsa, guruhlar yurish davomida o‘z komandirining komandasiga binoan, vzvod komandiri tomonidan ko‘rsatilganday, qayta tizilishi mumkin.

Vzvodni uch (to‘rt) kolonnali safdan guruh kolonnalari chizig‘iga qayta saf torttirish amali «**Vzvod, guruh kolonnalari chizig‘iga, chap tomonga, qadam BOS**», yurish davomida «**BOS**» komandasasi berilishi bilan bajariladi.

Ijro komandasiga binoan, boshqaruv guruhi yoki bosh guruh joyda qadam bosib turadi, qolgan guruhlar esa undan chap tomonga, yetakchilar chizig‘iga chiqadi. Guruh komandirlarining «**JOYINGDA**» komandasiga binoan, guruhlar, saf fronti va uzunligi bo‘yicha tekislangancha, «**TO‘G‘RIGA**» yoki «**Vzvod, TO‘XTA**» komandasasi berilgunga qadar joyda qadam bosib turadi. «**Vzvod, TO‘XTA**» komandasiga binoan, guruh komandirlari o‘z guruhining o‘ng qanotiga, vzvod katta texnigi esa boshqaruv guruhining o‘ng qanotiga o‘tadi.

Vzvodni yonma-yon tizilgan ikki sherengali safdan ikki kolonnali safga qayta saf torttirish amali, vzvodning o‘ngga, ikki kolonnali safdan yonma-yon tizilgan ikki sherengali safga qayta saf torttirish amali esa chapga burilishi bilan bajariladi.

Safda joyda turib va yurish davomida harbiycha salom berish

Vzvod safda joyda turib harbiycha salom berishi uchun, boshliq safga yaqin kelishiga 40-50 qadam qolganda, vzvod komandiri «**Vzvod, ROSTLAN, tekislanish O‘NGGA (ChAPGA, O‘RTAGA)**» komandasini beradi.

Ushbu komandaga binoan, vzvod shaxsiy tarkibi qad rostlab, boshini tayinlangan tomon buradi. Safda turgan vzvod komandirining o‘rinbosarlari, guruh komandirlari va vzvod katta texnigi, bundan tashqari, qo‘lini chakkaga keltiradi.

Harbiycha salom berish komandasini bergen vzvod komandiri, qo‘lni chakkaga keltirib, shaxdam qadam tashlagancha, boshliq oldiga boradi va unga ikki-uch qadam qolganda to‘xtab, bildiruv beradi. Misol uchun: «**O‘rtoq mayor. Birinchi vzvod falon vazifa ijrosi bilan shug‘ullanmoqda. Vzvod komandiri kapitan Salimov**».

Bildiruv berib bo‘lgan vzvod komandiri qo‘lini chakkadan tushirmay, chap (o‘ng) oyog‘i bilan yon tomon qadam tashlab, o‘ngga (chapga) burilgancha, chetga o‘tadi va boshliqni oldinga o‘tkazib, undan bir-ikki qadam ortda, safdan tashqi tomonda yuradi. Boshliq saf oldidan o‘tib ketgach (yoki u «**ERKIN**» komandasini bergach), vzvod komandiri «**ERKIN**» komandasini berib (takrorlab), qo‘lini chakkadan tushiradi.

Vzvod safda yurish davomida guruh uchun belgilangan tartibda harbiycha salom beradi. Bunda, vzvod komandirining o‘rinbosarlari, guruh komandirlari va vzvod katta texnigi qo‘lini chakkaga keltiradi. Boshliq saf oldidan o‘tib ketgach (yoki u «**ERKIN**» komandasini bergach), vzvod komandiri «**ERKIN**» komandasini berib (takrorlab), qo‘lini chakkadan tushiradi.

Agar boshliq vzvod kolonnasini quvib o‘tayotgan bo‘lsa, harbiycha salom berish komandasasi berilmaydi. Bunda faqat, guruh komandiri va undan yuqori pog‘onadagi mansabdor shaxslar hamda vzvod katta texnigi harbiycha salom beradi.

6-§. SAF KO'RIGI

Umumiy qoidalar

Saf ko'rige harbiy xizmatchilarning yakka tartibdagi saf ko'nikmalari va bo'linmalarining saf amallarini bajarish hamjihatligi qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Shuningdek, saf ko'rige davomida harbiy xizmatchilarning tashqi ko'rinishi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari mavjudligi, ushbu hujjatlarning holati, to'g'ri rasmiylashtirilganligi, anjom-aslaha, qurol-aslaha va harbiy texnikaning holati tekshiriladi. Saf ko'rige idagi tekshiruv davomida, bundan tashqari, harbiy xizmatchilar bilan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomida bayon etilgan tartibda savol-javob o'tkaziladi.

Saf ko'rige to'g'ridan-to'g'ri boshliqlar yoki tekshiruv tadbirlariga rahbarlik qilish uchun tayinlangan shaxslar tomonidan o'tkaziladi.

Saf ko'rigini o'tkazadigan shaxslarga saf ko'rigini o'tkazish tartibini, bunday ko'rik o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va hal etiladigan vazifalar hamda jangovar tayyorgarlik dasturining shaxsiy tarkib tomonidan o'zlashtirilgan hajmiga bog'liq holda belgilashga ruxsat beriladi.

Har bir saf ko'rige bo'linmaning (harbiy qismning) tantanali yurib o'tishi, harbiy qismning Jangovar Bayrog'i joyiga eltib qo'yilgach esa saf qo'shig'ini ijro etib o'tishi bilan yakun topadi.

Saf ko'rige arafasida ko'rik o'tkazadigan boshliq bo'linma (harbiy qism) komandiriga ko'rik o'tkaziladigan vaqt, joy, saf tortish va ko'rik o'tkazish tartibi, harbiy kiyim rusumi, ko'rikka qaysi qurol-aslaha va harbiy texnikani olib chiqish kerakligini ma'lum qiladi.

Vzvod, batalon va brigadaning saf ko'rige piyoda yoki mashinalarda o'tkaziladi.

Piyoda o'tkaziladigan saf ko'rigiga bo'linmaning (harbiy qismning) jamiki shaxsiy tarkibi shaxsiy quroli bilan chiqadi. Mashinalarda o'tkaziladigan saf ko'rigiga esa bundan tashqari, jamiki qurol-aslaha va harbiy texnika chiqariladi.

Piyoda o‘tkaziladigan saf ko‘rigi

Vzvod ko‘rigi

Saf ko‘rigidan o‘tish uchun vzvod yonma-yon tizilgan ikki sherengali saf tortadi. Vzvod komandiri vzvod safining o‘rtasidan yetti qadam oldinga chiqadi, katta texnik boshqaruv guruhidan ikki qadam o‘ngda, signalchi-barabanchi katta texnikdan ikki qadam o‘ngda, vzvod komandirining o‘rinbosarlari signalchi-barabanchidan ikki qadam o‘ngda, vzvod komandirining moddiy ta’midot bo‘yicha yordamchisi vzvodning chap qanotida turadi.

Saf ko‘rigini o‘tkazadigan boshliq 40 – 50 qadam yaqin kelgach, vzvod komandiri: «**Vzvod, ROSTLAN, tekislanish O‘NGGA** (ChAPGA, O‘RTAGA)» komandasini beradi.

Komanda bergach, vzvod komandiri, qo‘lini chakkaga keltirib, saf ko‘rigini o‘tkazadigan boshliq oldiga shaxdam qadam tashlagancha borib, ikki-uch qadam qolganda to‘xtaydi va bildiruv beradi. Misol uchun: « **O‘rtoq podpolkovnik. Birinchi vzvod saf ko‘rigiga saflandi. Vzvod komandiri kapitan Rashidov**».

Bildiruv berib bo‘lgan vzvod komandiri qo‘lini chakkadan tushirmay, chap (o‘ng) oyog‘i bilan yon tomon qadam tashlab, o‘ngga (chapga) burilgancha, chetga o‘tadi va boshliqni oldinga o‘tkazib, undan bir-ikki qadam ortda, safdan tashqi tomonda yuradi.

Signalchi-barabanchi vzvod komandirining «**Tekislanish O‘NGGA** (ChAPGA, O‘RTAGA)» komandasiga binoan, «Yurish marshi»ni (mazkur Nizomning 3- ilovasi) ijro eta boshlaydi. Vzvod komandiri saf ko‘rigini o‘tkazadigan boshliq oldida to‘xtagach, signalchi-barabanchi baraban chalishni to‘xtatadi, vzvod komandiri bildiruv berib bo‘lgach esa yana davom etadi.

Vzvod safining frontini o‘ng qanotdan chap qanot tomon yurib o‘tgan boshliq saf o‘rtasiga borib, vzvod shaxsiy tarkibi bilan salomlashadi va «erkin» komandasini berilishiga ruxsat etib, vzvod komandiriga saf ko‘rigini davom ettirish borasida zaruriy ko‘rsatmalar beradi. Saf ko‘rigini o‘tkazayotgan boshliq saf o‘rtasida to‘xtashi bilan signalchi-barabanchi baraban chalishni bas qiladi.

Vzvod komandiri «**ERKIN**» komandasini berib, qo‘lini chakkadan tushiradi, saf ko‘rigin o‘tkazayotgan boshliqqa saf qaydnomasini taqdim etadi va boshliq bergen ko‘rsatmalar ijrosiga kirishadi.

Saf ko‘rige shaxsiy tarkibning soni, tashqi ko‘rinishi, anjom-aslaha va qurol-aslaha holatini tekshirib chiqishdan boshlanadi. Shundan so‘ng, harbiy xizmatchilarning yakka tartibdagi saf ko‘nikmali, guruhlar va umuman vzvodning saf amallarini qay darajada hamjihat bajara olishi, saf qo‘shig‘ini vzvod tarkibida sifatli ijro etishi tekshiriladi.

Vzvod saf ko‘rigin o‘tkazayotgan boshliq oldidan guruh-guruh bo‘lib, bir (ikki) chiziqchi distansiyasida, vzvod guruhlari uch (to‘rt) kolonna bo‘lib, qurolni «tasmaga» holatiga yoki saf ko‘rigin o‘tkazayotgan boshliqning ko‘rsatmasiga binoan boshqa holatga olib, tantanali yurib o‘tadi. «Ko‘krakka» holatidagi avtomatlar chap qo‘l bilan stvol osti va stvol usti qoplamalaridan ushlab olinadi.

Tantanali yurib o‘tishdan oldin vzvod komandirining saf ko‘rigida ishtirok etayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliqlari saf ko‘rigin o‘tkazayotgan boshliq ortida, bir-ikki qadam o‘ng tomonda turadi.

Vzvod o‘tadigan chiziqnini ko‘rsatish uchun tayinlangan bo‘lib, vzvodning o‘ng qanotida bir kolonnaga saf tortgan chiziqchilarga ega bo‘lgan vzvod komandiri shaxsiy tarkibni guruh kolonnalari chizig‘iga qayta saf torttirgach (saflagach), yetakchi guruhdan (boshqaruvi guruhidan) yetti qadam oldinga chiqqancha, safga yuzlanib turib, komanda beradi: «**Vzvod, ROSTLAN. Tantanali yurishga, guruh-guruh bo‘lib, bir (ikki) chiziqchi distansiyasi saqlangan tarzda, birinchi guruh** (boshqarma guruhi) **to‘g‘riga, qolganlar o‘ng-GA**»; (shaxsiy tarkib quollangan bo‘lsa) «**Tasma-GA** (Avtomat ko‘krak-KA)»; «**Tekislanish o‘ngga, qadam BOS**». Shundan so‘ng, o‘ng oyog‘ining uchida chap qo‘l tomon tez ortga burilib, harakatni vzvod bilan bir vaqtda, chap oyoq bilan boshlaydi.

«**Tantanali yurishga**» komandasiga binoan, vzvod komandirining o‘rinbosarlari vzvod komandiridan ikki qadam orqaga, guruh komandirlari o‘z guruhidan ikki qadam oldinga, signalchi-barabanchi vzvod komandirining o‘rinbosarlaridan ikki qadam orqaga, katta texnik boshqaruvi guruhidan ikki qadam

oldinga safdan chiqib turadi. Chiziqchilar vzvod o‘tadigan chiziqa yugurib yoki tez yurib chiqib, bir-birining orasida 10 – 15 metrli (15 – 20 qadam) distansiya qoldirib to‘xtaydi va mustaqil ravishda chapga buriladi, «**Qadam BOS**» komandasasi berilganda esa avtomatni «ko‘krakka», karabinni «qorovulga» holatiga oladi.

Ijro komandasiga binoan butun vzvod bir vaqtda harakat boshlaydi. Bunda, birinchi guruh (boshqaruv guruhi) shaxdam qadam tashlab to‘g‘riga yuradi. Har bir navbatdagi guruh esa birinchi guruh (boshqaruv guruhi) turgan joyga kelib chapga buriladi va joyda qadam tashlagancha, tekislanadi. Oldinda ketayotgan guruh komandada tayinlangan distansiyaga uzoqlashgach, navbatdagi guruh komandiri «**TO‘G‘RIGA**» komandasini beradi. Ushbu komandaga binoan guruh shaxdam qadam tashlab, harakat boshlaydi.

O‘ng qanotdagilar chiziqchilar tomonidan ishora qilingan chiziq bo‘ylab, ulardan bir qadam berida yurib boradi.

Vzvod komandiri, uning o‘rinbosarlari, guruh komandirlari va vzvod katta texnigi saf ko‘rigin o‘tkazayotgan boshliqqa bir chiziqchi distansiyasiga yetib bormay, o‘ng qo‘lini chakkaga ko‘tarib, shu vaqtning o‘zida boshini boshliq tomon buradi.

Boshliqdan to‘rt qadam o‘tgach, vzvod komandiri chetga chiqib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliqlarining o‘ng tomoniga kelib to‘xtaydi va vzvod tarkibi o‘tib ketgunga qadar shu yerda qoladi.

Guruh komandiri o‘ng qo‘lini chakkaga keltirganda, ushbu guruhning o‘ng qanotda borayotgan harbiy xizmatchilaridan tashqari, jamiki shaxsiy tarkibi boshini saf ko‘rigin o‘tkazayotgan boshliq tomon buradi. Guruh, ushbu boshliq oldidan o‘tib, bir chiziqchi distansiyasiga uzoqlashgach, guruh komandiri qo‘lini chakkadan tushiradi, qolgan harbiy xizmatchilar esa to‘g‘riga qaraydi.

Vzvod saf ko‘rigin o‘tkazayotgan boshliqning yonidan o‘tib bo‘lgach, chiziqchilar, o‘z kattasining signaliga binoan qurolni «tasmaga» holatiga keltirib, o‘ngga buriladi va bir kolonnaga saf tortgancha, vzvodni quvib yetib, o‘z bo‘linmasining safiga turadi.

Saf qo'shig'ini aytib o'tish uchun vzwod komandiri vzwodni qayta saf torttiradi va yetakchi guruhdan yetti qadam oldinga chiqib: «**Vzwod ROSTLAN.** **Saf qo'shig'ini aytib o'tish uchun, guruh-guruh bo'lib, distansiya 50 metr, birinchi guruh to'g'riga, qolganlar o'ng-GA»; (shaxsiy tarkib quollangan bo'lsa) «**Tasma-GA**»; «**Qadam BOS**» komandasini beradi. Shundan so'ng, o'ng oyog'ining uchida chap qo'l tomon tez ortga burilib, harakatni vzwod bilan bir vaqtida, chap oyoq bilan boshlaydi.**

«**Saf qo'shig'ini aytib o'tish uchun**» komandasiga binoan, vzwod komandirining o'rribosarlari vzwod komandiridan ikki qadam orqaga, guruh komandirlari o'z guruhidan ikki qadam oldinga, signalchi-barabanchi boshqaruv guruhidan ikki qadam oldinga safdan chiqib turadi.

Ijro komandasiga binoan butun vzwod bir vaqtida harakat boshlaydi. Bunda, birinchi guruh (boshqaruv guruhi) qo'shiq aytgancha, oddiy qadam tashlab to'g'riga yuradi. Har bir navbatdagi guruh esa birinchi guruh (boshqaruv guruhi) turgan joyga kelib chapga buriladi va joyda qadam tashlab, tekislanadi. Oldinda ketayotgan guruh komandada tayinlangan distansiyaga uzoqlashgach, navbatdagi guruh komandiri «**Guruh, saf qo'shig'ini aytib, TO'G'RIGA**» komandasini beradi. Ushbu komandaga binoan guruh saf qo'shig'ini aytgancha, oddiy qadam tashlab, harakat boshlaydi.

7-§. HARBIY QISM JANGOVAR BAYROG‘INING SAFDAGI HOLATI, UNI OLIB ChIQISh VA ELTIB QO‘YISH TARTIBI

Umumiy qoidalar

Ofitserlar, serjantlar va oddiy askarlar tarkibiga mansub shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchilarning asosan orden va medallar bilan taqdirlangan, jangovar tayyorgarlik a’lochilari orasidan harbiy qism komandirining buyrug‘i bilan bayroqdan va ikki nafar assistentlar tayinlanadi.

Bundan tashqari, harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini brigada safiga chiqarish va uni saqlash joyiga eltish davomida kuzatib borish uchun brigada komandirining buyrug‘i bilan bayroqdan guruh tayinlanadi. Bayroqdan guruh Jangovar Bayroq saqlanadigan joy tomon borayotganda, uning tarkibida bayroqdan, assistentlar va signalchi-barabanchi bo‘lishi lozim.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini olib yurgan bayroqdan bilan assistentlar bayroqbog‘ga (mazkur Nizomning 5-ilovasi) ega bo‘lishi kerak.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘i doimo brigada safiga matosi yozilgan holatda olib chiqiladi. Olis yo‘l bosiladigan bo‘lsa, harbiy qism Jangovar Bayrog‘i g‘ilof ichiga joylangan holatda olib yuriladi (tashiladi).

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘ining safdagi holati

Safda joyda turgan bayroqdan Jangovar Bayroqni oyog‘i yoniga tik holatda keltirib, erkin tushirilgan o‘ng qo‘li bilan tutib turadi. Jangovar Bayroq sopining pastki uchi o‘ng oyoq kaftining o‘rtasida (11- rasm) bo‘lishi lozim.

11- rasm. *Safda joyda turganda harbiy qism Jangovar Bayrog‘ining holati*

12- rasm. *Harbiy qism Jangovar Bayrog‘ining yelkaga olingan holati*

13- rasm. *Harbiy qism Jangovar Bayrog‘ining tantanali yurish davomidagi holati*

Qurol bilan saf amallari bajarilayotganida harbiy qism Jangovar Bayrog‘ining holati o‘zgarmaydi.

Harakat boshlash uchun bayroq dor dastlabki «**Qadam**» komandasiga binoan harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini chap yelkaga olib o‘tib, sop bo‘ylab uzatilgan chap qo‘li bilan ushlab oladi va o‘ng qo‘lini pastga tushiradi. Harbiy qism Jangovar Bayrog‘ining ushbu holatida sopning pastki uchi yerdan 50 – 60 sm yuqorida bo‘lishi lozim (12- rasm).

Tantanali yurish davomida harbiy qism Jangovar Bayrog‘i 13- rasmida aks ettirilgan holatda olib yuriladi.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘i bilan yurganda avtomat bilan qurollangan assistentlar va bayroq dor guruh avtomatni «ko‘krakka» holatida, karabin bilan qurollangan bo‘lsa, qurolni «yelkaga» holatiga keltirib olishi lozim. Bunda, «ko‘krakka» holatidagi avtomat chap qo‘l bilan stvol osti va stvol usti qoplamasidan tutib olinadi.

Harbiy qismning yonma-yon tizilgan safida harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini olib yurgan bayroq dor bilan ikki nafar assistant ko‘rsatilgan joyni egallaydi.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini olib chiqish va eltib qo‘yish tartibi

Bayroqdar guruh harbiy qism Jangovar Bayrog‘i saqlanadigan joyga uch (to‘rt) kolonnaga saf tortib boradi. Bunda, olti qadam oldinda guruh komandiri, undan ikki qadam orqada bayroqdar bilan assistentlar, bayroqdordan ikki qadam orqada esa signalchi-barabanchi yuradi.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘i saqlanadigan joyga yetib kelgach, bayroqdar guruh yonma-yon tizilgan ikki sherengali, o‘rtasi binoga (saqlash joyiga) kirish eshigi ro‘parasiga to‘g‘ri keladigan saf tortadi.

Bunda, guruh komandiri safning o‘ng qanotida, signalchi-barabanchining o‘ng tomonida, undan ikki qadam o‘ngda bir sherenga bo‘lib saf tortgan bayroqdar bilan assistentlar turadi. Harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini qabul qilib olish uchun harbiy qism komandirining birinchi o‘rinbosari – shtab boshlig‘i bayroqdorni chaqiradi: «**Bayroqdar, ortimdan qadam BOS**».

Ushbu komandaga binoan, bayroqdar bilan assistentlar harbiy qism komandirining birinchi o‘rinbosari – shtab boshlig‘i ortidan boradi.

Harbiy qism komandirining birinchi o‘rinbosari – shtab boshlig‘i qorovul boshlig‘idan harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini qabul qilib olgach, uni bayroqdorga topshiradi va qorovul boshlig‘i ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomida bayon etilgan tartibda ko‘zdan kechirib chiqadi. Shundan so‘ng, harbiy qism komandirining birinchi o‘rinbosari – shtab boshlig‘i o‘ng qo‘lini chakkaga keltirib komanda beradi: «**Bayroqdar, ortimdan qadam BOS**» va bayroqdar guruh tomon yo‘l oladi. Harbiy qism Jangovar Bayrog‘i binoga (saqlash joyiga) kirish eshigida ko‘rinishi bilan bayroqdar guruh komandiri komanda beradi: «**Guruhi, bayroqqa, ROSTLAN**». Agar guruh karabin bilan quollangan bo‘lsa: «**Guruhi, bayroqqa, ROSTLAN, qorovul-GA**» komandasini beradi.

Bunda, birinchi komandaga binoan, guruh shaxsiy tarkibi qaddini rost tutadi, guruh komandiri o‘ng qo‘lini chakkaga keltiradi. Ikkinci komandaga binoan esa bundan tashqari, karabinlar «qorovulga» holatiga keltiriladi. Signalchi-barabanchi «Bayroqqa» marshini ijro etadi.

Bayroqdar bilan assistentlar guruh komandiridan ikki qadam o‘ngda, fronti harakat yo‘nalishi tomon qaragan bir sherengaga saf tortadi. Harbiy qism komandirining birinchi o‘rnbosari – shtab boshlig‘i bayroqdordan ikki qadam oldinga turib, qo‘lini chakkadan tushiradi. Signalchi-barabanchi baraban chalishni bas qiladi.

Bayroqdar bilan assistentlar safga turgach, guruh komandiri qo‘lini chakkadan tushirib, komanda beradi: «**Guruh, o‘ng-GA**». Agar guruh karabinlarni «qorovulga» holatiga keltirgan bo‘lsa, dastlab: «**Guruh, quroq oyoq-QA**» komandasini, so‘ng: «**Yelka-GA**» komandasini beradi.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘i bilan birligida harakat harbiy qism komandirining birinchi o‘rnbosari – shtab boshlig‘ining: «**Bayroqdar, ortidan, qadam BOS**» komandasini bilan boshlanadi. Ushbu komandaga binoan, harbiy qism komandirining birinchi o‘rnbosari – shtab boshlig‘i, bayroqdar va assistentlar harakatni yarim qadamdan tashlab boshlaydi. Guruh komandirining: «**Guruh, uch kolonna bo‘lib, qadam BOS**» komandasiga binoan, bayroqdar guruh harakat davomida, mazkur Nizomning 99- muddasida bayon etilgan tartibda, uch kolonna bo‘lib qayta saf tortib boradi. Guruh uch kolonnaga qayta saf tortgach, hamma, harbiy qism komandirining birinchi o‘rnbosari – shtab boshlig‘ining: «**TO‘G‘RIGA**» komandasiga binoan, to‘liq qadam tashlay boshlaydi.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘i bilan birligida harakat shaxdam qadam tashlanib, quyidagi tartibda amalga oshiriladi: harbiy qism komandirining birinchi o‘rnbosari – shtab boshlig‘i, undan ikki qadam orqada – bayroqdar va assistentlar, bayroqdordan uch qadam orqada – guruh komandiri, guruh komandiridan ikki qadam orqada – signalchi-barabanchi, undan ikki qadam orqada – bayroqdar guruh boradi.

Bayroqdar guruh harakati davomida signalchi-barabanchi «Yurish marshi»ni chalib borib, orkestr (signalchi-barabanchilar) unga jo‘r bo‘lishi bilan, bas qiladi.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘i bilan kelayotgan bayroqdar guruh brigada safiga 40 – 50 qadamga yaqinlashganda, brigada komandiri: «**Brigada, Bayroqqa, ROSTLAN, tekislanish O’NGGA** (ChAPGA, O’RTAGA)» komandasini beradi. Agar safda karabin bilan qurollangan bo‘linma bo‘lsa, ushbu komandaga binoan, karabinlar «qorovulga» holatiga keltiriladi.

Birinchi komandaga binoan, guruh va undan yuqori pog‘onaga mansub bo‘linma komandirlari o‘ng qo‘lini chakkaga keltiradi. Hamma boshini harbiy qism Jangovar Bayrog‘i tomon burib, uni nigohi bilan kuzatgancha, boshini ortidan burib boradi. Orkestr «Qarshi olish marshi»ni ijro etadi.

Agar brigada o‘z orkestriga ega bo‘lmasa, orkestr o‘rnini oldindan egallagan signalchi-barabanchilar «Bayroqqa» marshini ijro etadi. Bayroqdar guruh brigadaning chap qanoti yaqinida to‘xtaydi. Agar guruh karabin bilan qurollangan bo‘lsa, guruh komandirining komandasiga binoan qurolni «qorovulga» holatiga oladi.

Bayroqdar bilan assistentlar harbiy qism komandirining birinchi o‘rinbosari – shtab boshlig‘i boshchiligidagi brigada safining fronti bo‘ylab o‘ng qanot tomon harakatni davom ettiradi. Brigada safining o‘ng qanotiga yetib borgach, harbiy qism komandirining birinchi o‘rinbosari – shtab boshlig‘i bayroqdar bilan assistentlarni safdagi joyiga qo‘yadi (30-rasm) va o‘zi ham safga turadi.

Bayroqdar safga turgach, brigada komandiri orkestriga (signalchi-barabanchilarga) marsh chalishni to‘xtatishni imo qilib: «**ERKIN**» komandasini beradi. Ushbu komandaga binoan, karabinlar «oyoqqa» holatiga keltiriladi.

Brigada komandirining «ERKIN» komandasiga binoan, bayroqdar guruh komandiri o‘z guruhini brigadaning chap qanotiga olib o‘tadi.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini saqlash joyiga eltish uchun brigada komandiri: «**Bayroqdar guruh OLG‘A**» komandasini beradi.

Ushbu komandaga binoan, bayroqdar guruh signalchi-barabanchi bilan birga safdan 20 – 25 qadamga chiqib, chap yelkani oldinga burgancha yurib, chap qanotda turgan bo‘linma safining o‘rtasida, brigada frontiga yuzlanib to‘xtaydi.

Bayroqdar guruh to‘xtashi bilan brigada komandiri komanda beradi: «**Brigada, Bayroqqa, ROSTLAN, tekislanish O‘NGGA**».

Ushbu komandaga binoan, brigada o‘z xatti-harakatini, mazkur Nizomning 201- moddasida bayon etilgan tartibda amalga oshiradi. Orkestr «Qarshi olish marshi»ni (signalchi-barabanchilar «Bayroqqa» marshini) ijro etadi. Harbiy qism komandirining birinchi o‘rnbosari – shtab boshlig‘i bayroqdorga: «**Bayroqdar, ortimdan, qadam BOS**» komandasini beradi. Bayroqdar bilan assistentlar shtab boshlig‘i boshchiligidagi brigada fronti bo‘ylab bayroqdar guruh tomon yo‘l oladi.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini ko‘tarib borayotgan bayroqdar va assistentlar bayroqdar guruh bilan tenglashganda, bayroqdar guruh komandiri: «**Guruuh, qadam BOS**» komandasini beradi. Agar guruh karabin bilan quollangan bo‘lsa, dastlab: «**Guruuh, oyoq-QA**» komandasini, shundan so‘ng: «**Yelka-GA**» komandasini beradi. Bayroqdar guruh harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini saqlash joyi tomon yo‘l oladi.

Bayroqdar guruh brigada safidan 40 – 50 qadamga uzoqlashgach, brigada komandiri orkestrga (signalchi-barabanchilarga) marsh chalishni to‘xtatishni imo qilib: «**ERKIN**» komandasini beradi. Ushbu komandaga binoan, karabinlar «oyoqqa» holatiga keltiriladi.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘i saqlanadigan joyga yetib kelgach, bayroqdar guruh komandiri guruhni mazkur Nizomning 198- moddasida bayon etilgan tartibda saf torttirib: «**Guruuh, bayroqqa, ROSTLAN**» komandasini, agar guruh karabin bilan quollangan bo‘lsa: «**Guruuh, bayroqqa, ROSTLAN, qorovul-GA**» komandasini beradi. Ushbu komandalarga binoan bayroqdar guruh o‘z xatti-harakatini mazkur Nizomning 199- moddasida bayon etilgan tartibda amalga oshiradi. Signalchi-barabanchi «Bayroqqa» marshini ijro etadi. Harbiy qism komandirining birinchi o‘rnbosari – shtab boshlig‘i o‘ng qo‘lini chakkaga keltirib komanda beradi: «**Bayroqdar, ortimdan qadam BOS**». Bayroqdar va assistentlar shtab boshlig‘i ortidan yo‘l oladi.

Harbiy qism Jangovar Bayrog‘i ichkariga olib kirilgach, bayroqdar guruh komandiri qo‘lini chakkadan tushiradi. Signalchi-barabanchi baraban chalishni bas qiladi. Agar guruh karabinlarni «qorovulga» holatiga keltirib turgan bo‘lsa, guruh komandiri dastlab: «**Guruuh, qurol oyoq-QA**» komandasini, so‘ng: «**Tasma-GA**» komandasini berib, guruhga boshchilik qilgancha, tayinlangan joy tomon yo‘l oladi.

IV-BOB. HARBIY TOPOGRAFIYA

1-§. Topografik xaritalarni o‘qish

«**Topografiya**» so‘zi ikkita grekcha so‘z – «*topos*» – joy, hudud va «*grafo*» – yozaman, chizaman so‘zлari – birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, joyni tasvirlash ma’nosini bildiradi.

Topografiya – joyni (yerdan, havodan va kosmosdan) rasmga olish ishlari asosida topografik xaritalar tuzish orqali geografik va geometrik o‘rganish bilan shug‘ullanadigan ilmiy-texnikaviy fan. Topografiya yer sathi bo‘laklarining shakli va joylashuvi, unda turli tabiiy va sun’iy ob’ektlar (daryo, o‘rmonlar, yo‘llar, aholi punktlari va boshqalar)ning joylashuvi to‘g‘risida aniq ma’lumotlar beradi.

Harbiy topografiya – joyning taktik xususiyatlari, qo‘sishlar jangovar harakatlarining topografik ta’minotini tashkil etish va usullarini o‘rganuvchi harbiy fan sohasidir. Harbiy topografiya harbiy ta’limning asosiy fanlaridan biridir.

Hududning taktik xususiyatlari va ularning ichki ishlari idoralarining operativ xizmat faoliyatiga ta’siri

IIV organlarining operativ xizmati hamda jangovar faoliyati har qanday hududda, yil va kunning har qanday vaqt va har qanday ob-havo sharoitlarida amalga oshirilishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining xodimlari operativ xizmat vazifalarini bajarishlariga to‘g‘ri keladigan hudud operativ jihatdan muhim hudud hisoblanadi. Shu sababli nafaqat maxsus operatsiya boshlig‘i (komandir), balki unda qatnashuvchi har bir xodim o‘zi harakat qilishiga to‘g‘ri keladigan hududni batafsil o‘rganishi lozim bo‘ladi.

Yuqoridagilarni bajarish uchun xodim, birinchidan, shu hududda har qanday murakkab sharoitda ham orientirni to‘g‘ri ola bilishi; ikkinchidan, hududdagi topshirilgan vazifani bajarishga yordam beradigan yoki to‘sinqinlik qiladigan sharoitlarni hisobga olishi; uchinchidan, hududning xususiyatlarini inobatga olgan holda, jinoyatchilar yashirinishi mumkin bo‘lgan joylarni, shuningdek ularning harakatlanish ehtimolligi bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlashi zarur.

2-§. Hudud – jangovar vaziyatning elementi

Hudud – bu yer yuzasining bir qismi. Uning yuzasidagi notekisliklar yig‘indisi *relef* deb ataladi, unda joylashgan, tabiat va inson tomonidan yaratilgan ob’ektlar (o‘rmonlar, daryolar, aholi punktlari va boshqalar) esa *mahalliy predmetlar* deb ataladi. Kengligi jihatidan katta hududlarni egallab turuvchi mahalliy elementlar (dengizlar, tog‘ tizmalari, cho‘llar va boshqalar)ni *geografik ob’ektlar* deb atash qabul qilingan.

Mahalliy predmetlar, xo‘jalik va harbiy ahamiyatga ega belgilariga ko‘ra, *hududning topografik elementlari* degan guruhlarga bo‘linadi. Relef, gidrografiya, o‘simpliklar, tuproq qatlami, yo‘llar tarmog‘i, aholi punktlari, sanoat, qishloq xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy ob’ektlar hududning asosiy topografik elementlari hisoblanadi.

1. Ma’lum bir hududdagi topografik elementlar xususiyatlarining yig‘indisi ushbu hududning taktik xususiyatini belgilab beradi. Taktik xususiyatlarning asosiyları quyidagilar: hududdan o‘tish imkoniyatlari; hududning niqoblash va himoyalash xususiyatlari; kuzatish, orientir olish va o‘t ochishga ta’sir qiluvchi omillar.

2. Yo‘llar, ko‘priklar va kechuv joylari, relef, tuproq va o‘simpliklar qoplamni, shuningdek sun’iy va tabiiy to‘siq (daryo, jar, botqoqlik va boshqa)larning mavjudligi va ularning xususiyatlariga qarab hududdan o‘tish imkoniyatlari aniqlanadi.

3. Hudud relefining xususiyati, unda o‘rmonlar, tunnellar va boshqa mustahkam (g‘ishtli, toshdan, temir-beton) yer osti inshootlari, asosan yerto‘lalarning mavjudligiga qarab, hududning himoyaviy xususiyatlari aniqlanadi. Hududda inshootlarning mavjudligi ulardan yadroviy va boshqa qurollardan himoyalanish vositasi sifatida foydalanishning imkonini beradi. IIVga qarashli ob’ektlar (idoralar, tashkilotlar, ta’lim muassasalari)da fuqaro himoyasi va xizmatlar (yong‘inga qarshi, tartibni saqlash va xavfsizlikni ta’minlash)ni tashkil qilishda hududning himoyaviy xususiyatlarining ahamiyati katta.

Orientir olish sharoiti – hududning xususiyati bo‘lib, u gorizont tomonlariga, hududdagi ob’ektlarga nisbatan joylashishni, kerakli harakat yo‘nalishini, shuningdek o‘z bo‘linmalari va dushmanning joylashuvini aniqlashga yordam beradi. Ular o‘zining tashqi ko‘rinishi, joylashish holati, hududdagi boshqa ob’ektlardan yaqqol ajralib turadigan relef elementlari va chiziqli predmetlarning mavjudligi orqali aniqlanadi.

4. Relefning xususiyati, qiyaliklarning shakllari, o‘simgiliklar qoplami (asosan o‘rmon va butazorlar), aholi punktlari kuzatish va o‘t ochish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Bunday topografik elementlarning o‘ziga xos joylashuvi kuzatish va o‘t ochishni osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkin.

5. Hududning niqoblash xususiyati relefga xos shakllar va o‘simgiliklar qoplami (asosan o‘rmon va butazorlar)ning mavjudligi bilan bog‘liq. Aholi punktlarining mavjudligi ham niqoblash xususiyatiga ega bo‘lib, jinoyatchilar (dushmanlar)ning yashirinishiga imkon beradi, shuningdek ichki ishlar bo‘limlari idoralari va tashkilotlari kuchlari va vositalarining ham yashirin harakatlanishini ta’minlaydi.

6. Aholi punktlarida harakatlanayotganda o‘sha hududning taktik xususiyatlari aholi punktining o‘lchamlari va joylashishi, undagi qurilish inshootlarining o‘ziga xos belgilari, shuningdek relefi, gidrografiysi va o‘simgiliklar qoplami (xiyobonlar, bog‘lar)ning xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Bu borada aholi ko‘p to‘planadigan joylar: bozorlar, yirik do‘konlar, teatrlar, xiyobonlar, banklar, vokzallar va shu kabilar alohida ahamiyat kasb etadi.

Xizmatni yoki maxsus operatsiyani tashkil qilishda har bir operativ boshliq (komandir) hududni har tomonlama o‘rganishi, operativ xizmat vazifalarining bajarilishiga hudud xususiyatlarining ta’sir etish darajasini aniqlashi va shundan keyin qaror qabul qilishi zarur.

3-§. Hududlarning taktik turlari

Hudud undan o'tish imkoniyatlari, uning kuzatish, niqoblash sharoitlari, shuningdek past-balandliklar (tepaliklar) darajasi bo'yicha taktik jihatdan turlarga bo'linadi.

O'tib bo'ladigan hududda bo'linmalar va texnika vositalarining tezligi va harakat yo'nalishi deyarli cheklanmaydi, bitta izdan qayta harakatlanish imkonini bo'ladi.

Bo'linmalarning maxsus operatsiyalar o'tkazishida o'tib bo'ladigan hudud jangovar texnikadan samarali foydalanish imkonini beradi.

O'tish qiyin bo'lgan hududda bronetransportyorlar harakatlanishi uchun imkoniyat mavjud, ammo o'tib bo'ladigan hududdagiga nisbatan tezlik sekinroq bo'ladi. Bunday hudud maxsus operatsiyada jangovar texnikadan foydalanishni qiyinlashtiradi, ularda kolonnalar harakatini faqat maxsus jihozlangan yo'llar bo'yicha tashkil qilish mumkin.

O'tib bo'lmaydigan hududda jangovar va g'ildirakli mashinalarning harakatlanishi uchun sharoit mutlaqo mavjud bo'lmaydi. Bunday hududda harakatlanishda kolonnalar uchun yo'l barpo qilish lozim bo'ladi, buning uchun katta hajmda ish bajarishga to'g'ri keladi.

Kuzatish va niqoblash sharoitlariga ko'ra, *ochiq, yarim berk* (yopiq) va *berk* (yopiq) hududlar farqlanadi.

Ochiq hudud tekis yoki nihoyatda past tepaliklarga ega va o'rmonsiz ko'rinishga ega bo'ladi. Bu hududda mavjud balandliklardan (eng balandidan) undagi hamma yo'nalishlar 75% gacha ko'rinish turadi.

Yarim berk (yopiq) hudud – ochiq va yopiq hududlar oralig'idagi hududdir. Yarim berk hududda tabiiy yashirinish joylarining maydoni 20% ni tashkil qiladi, balandliklardan (eng balandidan) hudud maydonining 50% iga yaqini ko'rinish turadi.

Berk (yopiq) hudud o'rmon, butazorlar, bog'lar o'sgan, qolgan qismi esa tog'li yoki tepalikli maydondan, shuningdek aholi punktlaridan iborat bo'ladi.

Bunday hududda tabiiy niqoblash maydonlari 30% ni tashkil qiladi. Hukmron balandliklardan maydonning 25% dan kamrog‘i ko‘rinib turadi.

Jarliklar, qurib qolgan daryo o‘zanlari, daryolar, ko‘llar va boshqa tabiiy to‘siqlar mavjud hududlar bo‘laklanganlik (past-balandlik) darajasiga ko‘ra, *kam bo‘laklangan, o‘rtacha bo‘laklangan va kuchli bo‘laklangan* hududlarga bo‘linadi. Bunday bo‘laklanganlik qo‘shinlarning harakatlanishi va manyovr qilishini sezilarli darajada cheklaydi.

Kam bo‘laklangan hududda tabiiy va sun’iy to‘siqlar kam bo‘ladi, bunday hududda har qanday yo‘nalish bo‘yicha jangovar va boshqa texnikalar oson harakatlanish imkoniga ega bo‘ladi. Bunday hududda tabiiy to‘siqlar 10% dan kam maydonni egallaydi. Relef odatda tekislikdan iborat bo‘ladi, tepaliklar kam uchraydi. Bunday sharoitda hududdagi hukmron tepaliklardan atrofni to‘liq kuzatish, jangovar texnikalarni hamma yo‘nalishlar bo‘yicha yoppasiga qo‘llash mumkin.


O‘rtacha bo‘laklangan hudud maydonining 20% iga yaqini tabiiy to‘siqlardan iborat bo‘ladi. Bunday hududning alohida yo‘nalishlarida jangovar texnikalarni yoppasiga qo‘llash birmuncha qiyin, chunki uning relefi asosan past tepaliklardan iborat bo‘lib, tekisliklar kam uchraydi.

Kuchli bo‘laklangan hudud tik qiyali tog‘lar, jarliklar, suv yuvgan joylar, daryolar, kanallar va botqoqliklardan iborat, u boshqa hududlardan o‘tish qiyin bo‘lgan tabiiy to‘siqlarning ko‘pligi bilan farqlanadi. Uning tabiiy to‘siqli maydoni 30% dan ortiqni tashkil qiladi. Bunday hududlarga tog‘li, jar-botqoqli va vodiy-botqoqli relefga ega joylar kiradi.


4-§. Turli ko‘rinishdagi hududlar va ularning taktik xususiyatlari

Relefining xususiyatiga ko‘ra, hududlar tekisliklar, tepaliklardan iborat hudud hamda tog‘li hududlarga bo‘linadi. Tuproq va o‘simliklar qoplamiga bog‘liq ravishda hudud sahroli, cho‘l (dasht)li, o‘rmonli, botqoqli va o‘rmon-botqoqli hududlarga bo‘linadi.

Tekisliklarda (14-rasm) dengiz sathidan uncha baland bo‘lмаган (25 м гача), қиылғылары ютиқ (2° гача) тепаликлар мавжуд бо‘лади. Текисликлардан иборат ҳудуднинг тaktik xususiyatlari асосан унинг tuproq, o‘simlik qoplами, shuningdek past-balandlik darajasiga bog‘liq.



a) Tabiiy ko‘rinishi.



b) Topografik xaritada tasvirlanishi.

14-rasm. Tekislikli, kam bo‘laklangan ochiq hudud.


Тепаликлардан иборат ҳудуддаги ўрнинг ўзаси то‘лqinsimon bo‘lib, о‘rtacha баландлиги 25—200 м ва absolyut баландлиги 500 м гача, қиылғыларининг тикилиги $2-3^{\circ}$ ni tashkil qiladi. Тепаликли ҳудуд тепаликлар, pastqamliliklar va jarliklarning xususiyatlariga bog‘liq holda berk (yopiq) yoki yarim berk (yopiq) bo‘lishi mumkin.

Тепаликли ҳудудлар, улардаги ko‘tarilishlar va pasayishlarning o‘ziga xosligi, pastaqamliliklarga bo‘laklanganligiga bog‘liq holda, kuchsiz tepaliklashgan, kuchli tepaliklashgan, vodiy-botqoqli va jarli-botqoqli bo‘lishi mumkin.

Kuchsiz tepaliklashgan ochiq hududda (15-rasm) barcha turdagи ko‘shinlar jangovar harakatlar olib borishiga imkon bo‘лади, тепаликлarning oraliqlari va тепаликлар orqasidagi қиылғылар dushman kuzatuvi va o‘tidan yashirinish uchun xizmat qiladi. Odatda bunday ҳудудлarda баландлик joylar ko‘p bo‘лади, улардан узоқ masofalarni kuzatish mumkin.




a) Tabiiy ko‘rinishi.




b) Topografik xaritada tasvirlanishi.

15-rasm. Tepalikli jarli-botqoqli bo‘laklangan yarim berk hudud.

Kuchli tepaliklashgan hudud (16-rasm) kuzatuv olib borishni qiyinlashtiradi, hukmron balandliklarni aylanma mudofaali kuchli tayanch punktiga aylantirish mumkin, tepaliklar, vodiylar, qurigan o‘zanlarning ko‘pligi esa tanklar, piyodalar, jangovar mashinalarning harakatlanishiga sezilarli darajada to‘sqinlik qiladi.



a) Tabiiy ko‘rinishi.



b) Topografik xaritada tasvirlanishi.

16-rasm. Tepalikli bo‘laklangan yarim berk hudud.

Vodiy-botqoqli past-baland hududda qurigan o‘zanlar, ko‘llar, daryolar ko‘p bo‘lib, ular o‘tishni qiyinlashtiradi va bu to‘siqlar qidiruv guruhlarining harakati hamda to‘sish guruhi uchun marrani tanlashda qiyinchilik tug‘diradi.

Jarli-botqoqli hudud ko‘plab jarliklar bilan ajralganligi tufayli, bunday hududlarda ham jangovar texnikaning harakatlanishi ancha qiyin kechadi.


Tog‘li hudud – yer yuzasining atrof muhitga nisbatan ancha (500 m va undan baland) ko‘tarilgan qismi. U murakkab, turli relefli, o‘ziga xos tabiiy sharoitlariga ko‘ra, farqlanadi. Bunday hududdagi tog‘lar va keskin qiyalikli tog‘ tizmalari relefning asosiy shakli hisoblanadi. Tog‘li hudud yopiq bo‘laklangan hududga kiradi. Bunday hududdagi jangovar harakatlar o‘ziga xos sharoitlarda harakat qilish hisoblanadi va bunday sharoitlarda harakatlanish shaxsiy tarkibdan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi.

Mavjud absolyut balandliklariga bog‘liq holda bunday hudud past tog‘li, o‘rtacha tog‘li va baland tog‘li hududlarga bo‘linadi.


Past tog‘li hududlarga dengiz sathiga nisbatan 500—1000 m li balandliklar mavjudligi, ularning nisbiy balandligi 200—400 m bo‘lishi va qiyaliklarning aksariyati $5-10^\circ$ tiklikka egaligi xosdir. U kuchsiz bo‘laklangan, aholi yashashi uchun qulay va nisbatan rivojlangan yo‘l tarmog‘iga ega bo‘ladi.

O‘rtacha tog‘li hudud dengiz sathiga nisbatan 1000—2000 m balandlikka ega, o‘rab turgan atrof muhitga nisbatan nisbiy balandligi esa 1000 m gacha bo‘lishi mumkin. Qiyaliklarining tikligi esa $10-25^\circ$ ni tashkil etadi. Shuningdek hududi ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi tog‘ massivlari, qatorlari va tizmalariga ega, cho‘qqi va qirralari odatda tekis shaklda bo‘ladi. Bo‘linmalarning jangovar harakatlari yo‘llar yoki tog‘dan o‘tishning qulay joylaridagi alohida yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi.

Dengiz sathidan 2000 m dan yuqori balandlikka ega, nisbiy balandliklari 1000 m va undan ortiq tog‘li joylar **baland tog‘li hudud** (17-rasm) hisoblanadi. Bunday hududda $15-45^\circ$ tiklikka ega qiyaliklar ko‘p bo‘ladi. Hudud chuqur vodiylar va o‘pirilishlari ko‘p tog‘ tizmalariga bo‘lingan, cho‘qqilari asosan o‘tkir shaklga ega, doimiy qorlar va muzliklar bilan qoplangan bo‘ladi. Baland tog‘li hududlarda aholi kam yashaydi, tog‘dan o‘tish joylari va yo‘l tarmoqlari kam uchraydi.



a) Tabiiy ko‘rinishi.




b) Topografik xaritada tasvirlanishi.

17-rasm. Tog‘li kuchli bo‘laklangan hudud.

Cho‘l (sahro) hududida (18-rasm) aholi kam yashaydi, suv zaxiralari ham juda kam bo‘ladi, o‘simliklar onda-sonda uchrab turadi. Ob-havo sharoiti doimiy yoki ma’lum bir fasllarda keskin qizib ketadi. Yer yuzasi yuqori qatlaming tuzilishiga ko‘ra, qumli, toshli va tuproqli cho‘llar farqlanadi.



a) Tabiiy ko‘rinishi.



b) Topografik xaritada tasvirlanishi.

18-rasm. Cho‘l (sahro)li kuchli bo‘laklangan hudud.

Dasht hududiga yog‘ochli o‘simliklarning yo‘qligi, quruq kontinental iqlimga egalik, tuprog‘ini qoraligi, qurg‘oqchilik hamda sovuqqa chidamli o‘tsimon o‘simliklar bilan qoplanganligi xosdir. Yer osti suvlari esa katta (100 m gacha) chuqurlikda joylashgan bo‘ladi.

Dashtli hududlarda bo‘linmalarning manyovr qilishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud, atrof ko‘zga yaqqol tashlanib turadi.

O'rmonli hudud deb, maydonining 50% idan ortig'i yog'ochli o'simliklar bilan zich qoplangan hududga aytiladi. O'rmonli hududdan o'tishning imkoniyatlari yo'llarning mavjudligi, relefning xususiyati, yer qatlamining botqoqligi, daraxtlarning zichligi, yo'g'onligi va turlariga bog'liq bo'ladi. O'rmonlarda jangovar va boshqa texnika vositalari faqat ilgari mavjud yo'llar, daraxtlari kesilib maxsus hosil qilingan yo'llar va kolonnalar yo'lida harakat qilishi mumkin.

O'rmonli hudud (19,20-rasmlar) asosan to'lqin zarbasi va yorug'lik nurlanishining zararlashidan himoyalaydi. O'rmonli hududda yer va havodan kuzatuv olib borish, shuningdek o't ochish imkoniyatlari ancha cheklangan bo'ladi. Orientir olish, nishonlarni ko'rsatish, bo'linmalarni boshqarish va ularning hamjihatligini uyushtirish qiyinlashadi.



a) Tabiiy ko'rinishi.



b) Topografik xaritada tasvirlanishi.

19-rasm. O'rmonli bo'laklangan berk (yopiq) hudud.



a) Tabiiy ko'rinishi.



b) Topografik xaritada tasvirlanishi.


20-rasm. Tekislikli ko'l-o'rmonli kuchli bo'laklangan yopiq hudud.

Botqoqlangan yerlar – yerning nihoyatda namlangan maydonlari bo‘lib, ular torf qatlamiga ega bo‘lmaydi yoki torf qatlaming qalinligi 30 sm dan oshmaydi.

Joylashishi, o‘simliklar qoplaming xususiyatlari va suv bilan to‘yinish rejimiga bog‘liq holda, botqoqliklar (21,22-rasmlar) pastlik botqoqliklar, balandlik botqoqliqlar va o‘tib bo‘ladigan botqoqliklarga bo‘linadi.



a) Tabiiy ko‘rinishi.



b) Topografik xaritada tasvirlanishi.

21-rasm. Botqoqli kuchli bo‘laklangan ochiq hudud.



a) Tabiiy ko‘rinishi.



b) Topografik xaritada tasvirlanishi.

22-rasm. O‘rmon-botqoqli hudud.

Pastlik botqoqliklar asosan past joylarda (daryolarning sohillarida, dengiz qirg‘oqlarida) tarqalgan bo‘ladi. Ularning yuzasi yassi yoki botiq bo‘lib, qamish va moxlar bilan qoplangan bo‘ladi. Pastlik botqoqliklarida g‘ildirakli va gusenitsali mashinalar harakatlana olmaydi, uning ayrim maydonlaridagi ko‘tarilgan joylarda piyodalar harakatlanishi mumkin.

Hudud taktik xususiyatlarining mavsumiy o‘zgarishlari.

Kuz va bahorda hududning taktik xususiyatlari. Kuz va bahor mavsumlariga suv toshqinlari va loygarchilik xosdir. Kuzgi va bahorgi loygarchilik davrida tuproqning yuqori qatlami kuchli namlanadi, shu sababli mustahkamligini yo‘qotadi va yopishqoq bo‘lib qoladi. Harakatlanish nafaqat yo‘lsiz joylarda, balki tuproq yo‘llarda ham qiyinlashadi.

Qishda hududning taktik xususiyati. Qish mavsumiga tuproq qatlamining muzlashi, daryo va boshqa suv havzalarida muz qoplamlari, yer yuzasida qor qatlamining yuzaga kelishi xos.

Odatda qish oylarida yo‘llar tarmog‘i qisqaradi. Yo‘llarning aksariyati, asosan tuproq yo‘llar qor bilan qoplanadi va g‘ildirakli mashinalarning harakatlanishiga imkon bo‘lmaydi. Shossalarning ustki qoplami muzlashi sababli bu yo‘llarda ham harakat tezligi kamayadi.

5-§. Hududda xaritasiz orientir olish va azimut bo‘yicha harakatlanish

Hududda orientir olish

Hududda orientir olish ichki ishlar bo‘limlari xodimlarining faoliyatida katta ahamiyatga ega. Bo‘linmalarga xizmat vazifalarini belgilashda, harakatlanish yo‘nalishlarini saqlashda, nishonlarning joylashgan yerini aniqlash, ularni ko‘rsatish va o‘t ochishni boshqarishda orientirni to‘g‘ri olish zarur. Maxsus operatsiyalarni o‘tkazish jarayonlarida orientir olishni vaqtinchalik yo‘qotish boshqarish va bo‘linmalararo hamjihatlikning buzilishiga sabab bo‘lib, jangovar vazifaning o‘z vaqtida bajarilishini xavf ostiga qo‘yadi. Orientir olish unga asoslanib hududdagi marralar va nishonlarning joylashgan joyini aniqlash borasida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar quollar va maxsus texnikani qo‘llash samaradorligini keskin pasaytirib yuborishi mumkin. Shu sababli notanish hududda, shuningdek har qanday vaziyatda tez va xatosiz orientir olish ichki ishlar bo‘limlari xodimlari jangovar tayyorligining muhim elementi hisoblanadi.

Hududda orientir olish quyidagicha: gorizont tomonlarining yo‘nalishlarini; atrofni o‘rab turgan mahalliy predmetlar va relef shakllariga nisbatan o‘zi turgan joyni aniqlash; harakatlanish uchun tanlangan yoki ko‘rsatilgan yo‘nalishni saqlash. Jangovar vaziyatlarda orientir olishda, yuqorida qayd qilinganlardan tashqari, hudud orientirlarining, o‘z qo‘shinlari va dushman qo‘shinlarining joylashish yo‘nalishi aniqlanadi.

Hududda orientir olish usullari

Topografik xaritalar, aerofotosuratlar, jangovar va qo‘mondonlik-masshtablik mashinalariga o‘rnatilgan navigatsiya qurilmalari yordamida hududda orientir olish mumkin. Jangovar vaziyatlarda orientir olishda quyidagi oddiy usullarga asoslaniladi: kompas bo‘yicha, osmon yoritgichlari va mahalliy predmetlardagi belgilar orqali.

Bo‘linmalarning komandirlari hududda kompasni qo‘llagan holda, xaritadan orientir oladilar. Bu orientir olishdagi asosiy usuldir. Orientir kam uchraydigan va ancha katta o‘zgarishlar yuzaga kelgan hududlarda, shuningdek yirik shaharlarda

aerofotosuratlar bo‘yicha orientir olish qulay. Ularda mahalliy predmetlar mayda elementlarining batafsil tasvirlangani turgan joyni tezda aniqlash va harakat yo‘nalishini to‘liq saqlash imkonini beradi. Xaritalarda esa mayda predmetlarni tasvirlashning imkoni yo‘q. Kechasi yoki orientirlari kam bo‘lgan hududlarda harakatlanish odatda xarita yoki aerofotosuratlarda oldindan tayyorlab qo‘yilgan azimutlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bu kerakli darajada ishonchli, hammaning imkoni yetuvchi orientir olish usulidir.

Hududdagi murakkab, ko‘rinish cheklangan sharoitlarda aniq va ishonchli orientir olish uchun navigatsiya qurilmalaridan foydalaniladi. Ular joylashgan yeri koordinatalari va harakatlanish yo‘nalishining direksion burchagini xohlagan vaqtida aniqlash imkonini beradi, shuningdek ular yordamida marshrutdagi oxirgi punkt yo‘nalishining direksion burchagini aniqlash ham mumkin.

Eng oddiy usullar – kompas, osmon yoritgichlari va mahalliy predmetlarning belgilariga ko‘ra orientir olish gorizont tomonlarini aniqlash va harakat yo‘nalishini saqlab turish uchun zarur.

Hududda orientir olish umumiy yoki to‘liq bo‘lishi mumkin.

O‘zi turgan joydagi harakatlanish yo‘nalishi va yo‘nalishning oxirgi punktiga yetib borish vaqtini taxminiy aniqlash **umumiy orientir olish** deyiladi.

To‘liq orientir olish o‘zi turgan va turli ob’ektlarning joylashgan yeri va harakatlanish yo‘nalishini aniqlashda to‘liq aniqlikka erishishdir. To‘liq orientir olish xaritalar, aerofotosuratlar bo‘yicha va navigatsiya qurilmalari yordamida amalga oshiriladi.

Orientirlarni tanlash va ulardan foydalanish

O‘zining turgan joyi, ob’ektlar va nishonlar joylashgan yer hamda harakatlanish yo‘nalishini nisbatlab aniqlashda foydalaniladigan mahalliy predmetlar va relef shakllari **orientirlar** deb ataladi. Ular odatda shakli va rangiga ko‘ra farqlanadi hamda o‘rab turgan hududni ko‘zdan kechirishda oson taniladi.

Orientirlarning **maydonli, chiziqli** va **nuqtali** turlari mavjud.

Maydonli orientirlarga aholi punktlari, o‘rmonning alohida qismlari, ko‘llar, botqoqliklar va boshqa katta maydonli ob’ektlar kiradi. Bunday orientirlar hududni o‘rganishda oson tanib olinadi va yodda saqlanib qoladi.

Chiziqli orientirlar unchalik katta bo‘limgan kenglikka ega, katta uzunlikdagi mahalliy predmetlar va relef shakllari bo‘lib, ularga yo‘llar, daryolar, kanallar, elektr uzatish tarmoqlari, tor pastliklar va boshqalar kiradi. Odatda ulardan harakat yo‘nalishini saqlash uchun foydalilaniladi.

Nuqtali orientirlarga boshqa shakllardagi qurilishlar, zavod va fabrikalarning minora shaklidagi inshootlari, retranslyatorlar, ko‘priklar, yo‘llarning chorrahalar, karerlar, chuqurlar va uncha katta maydonni egallamaydigan boshqa mahalliy predmetlar hamda relef shakllari kiradi.

Bo‘linmaning hududda ishonchli orientir olishini ta’minlash ko‘p jihatdan to‘g‘ri orientir tanlashga ham bog‘liq. Kunduzgi harakatlanish yo‘nalishini saqlash uchun uzoqdan oson taniladigan orientirlar, masalan, alohida kichik o‘rmonlar, minora shaklidagi inshootlar va yakka o‘sgan daraxt kabi nuqtali orientirlar tanlanadi. Harakatlanish davomida yangi orientirlar tanlab boriladi. Ko‘rinish cheklangan sharoitlarda harakat yo‘nalishini saqlash uchun chiziqli orientir tanlanadi.

Qish mavsumida orientir uchun alohida ajralib turuvchi qora rangli narsalarni tanlash lozim, chunki qor qoplami tufayli relef shakllarining belgilari sezilmay qoladi.

Orientirlarni tanlashda har xil nuqtalardan qaralganida ulardagi ko‘rinishlar va o‘zaro joylashishlardagi o‘zgarishlarni hisobga olish zarur. Bu holat asosan tog‘li hududlarga xos. Tog‘ yo‘llari bo‘ylab harakatlanib borayotganda orientir sifatida tanlangan predmetlar va relef shakllari ba’zan ko‘zdan yo‘qotilishi mumkin.

Shunday qilib, orientir olishda bo‘linmalarning hududda qanday sharoitlarda harakatlanishi hisobga olinishi lozim. Operativ vaziyatlarda o‘zi turgan joy va harakatlanish yo‘nalishini aniqlashdan tashqari, orientirlardan nishonlarni ko‘rsatishda, bo‘linmalar va o‘t ochishni boshqarishda ham foydalilaniladi. Bunday

vaziyatlarda orientirlar katta boshliqlar tomonidan belgilanadi. Bo‘linmalarning komandirlari zarurat bo‘lganidagina qo‘sishimcha orientirlarni tanlaydilar. Orientir uchun ancha barqaror mahalliy predmetlar va relef shakllarini tanlash zarur, masalan, balandliklar, yo‘llarning ajralish joylari. Bunday joylar jang maydonida ham saqlanib qoladi.

Orientirlar iloji boricha old tomondan, bir xil uzoqlikda tanlanadi, bu nishonlarning joylashgan joyini tez va aniq ko‘rsatish imkonini yaratadi. Orientirlar o‘ngdan chapga, marralar bo‘yicha esa o‘zi turgan joydan dushman tomoniga qarab raqamlanadi. Har bir orientirga uni yodda saqlash uchun qulay, xos belgilarni hisobga olib, shartli nomlar qo‘yiladi, masalan, «Yassi» balandlik, kichik o‘rmon «Yaproq», «Sariq jarlik». Katta boshliq tayinlagan orientirlarning raqamlari va nomlari o‘zgartirilmaydi.

Bo‘linma komandiri qo‘l ostidagilarga vazifalarni orientirlar bo‘yicha taqsimlaydi. Masalan, «Sektor kuzatilsin: o‘ngdan 2-orientir – tepalik «Yassi», chapda 3-orientir – «Sariq jarlik» yoki o‘ngdan 5-orientir – singan daraxt, chapdan 1-orientir – kichik o‘rmon «Yaproq».

Hududda nishonlarni ko‘rsatish

Nishonlarni ko‘rsatishning umumiyligi qoidalari va usullari. Bo‘linmalarni boshqarishda hududdagi nishonlar, orientirlar va boshqa ob’ektlarni tez, to‘g‘ri ko‘rsata bilishning ahamiyati juda katta. Nishonlarni bevosita hududning o‘zida, xaritada yoki aerofotosuratlar bo‘yicha ko‘rsatilishi mumkin.

Hududdagi nishonlarning joylashgan yerlari o‘rnatalgan qat’iy tartibga ko‘ra, qisqa, tushunarli va aniq ko‘rsatilishi lozim. Nishonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uzatuvchi va qabul qiluvchi ham umumiyligi orientirlarga ega bo‘lishi, ularning joylashgan yerini aniq bilishi, hududlardagi ob’ektlarning yagona kodlangan nomlariga ega bo‘lishlari zarur.

Hududdagi nishonlarni ko‘rsatish quyidagi usullarda bajariladi: orientir bo‘yicha, azimut va nishongacha bo‘lgan masofa bo‘yicha, harakatlanish yo‘nalishi bo‘yicha va azimuthal ko‘rsatkich bo‘yicha (minora burchak o‘lchagichi),

qurolni nishonga to‘g‘irlash (qaratish) orqali, yonib boruvchi o‘qlar (snaryadlar) va signal raketalari yordamida.

Orientir bo‘yicha nishonni ko‘rsatish – ancha keng tarqalgan usul. Dastlab nishonga eng yaqin bo‘lgan orientirning nomi, keyin orientir yo‘nalishi va nishon yo‘nalishi oralig‘idagi burchakning kattaligi mingliklarda ifodalanadi, nishon bilan orientir oralig‘idagi masofa esa metrlarda ko‘rsatiladi. Masalan, «Orientir – ikkinchi, o‘ngga – qirq, uzoqqa – ikki yuz, alohida butada – pulemyot».

Azimut va nishongacha bo‘lgan masofa bo‘yicha nishonni ko‘rsatish. Nishonga yo‘nalish azimuti kompas yordamida graduslarda aniqlanadi, nishongacha bo‘lgan masofa esa kuzatish qurilmasi yordamida yoki ko‘z bilan chandalab, metrlarda o‘lchanadi. Ushbu ma’lumotlar quyidagicha uzatiladi: «Azimut – o‘ttiz besh, uzoqlik – olti yuz, okopda – tank». Bunday usul ko‘pincha orientirlari kam hududda qo‘llaniladi.

Harakatlanish yo‘nalishi bo‘yicha nishonni ko‘rsatish. Bunda dastlab harakatlanish yo‘nalishi bo‘yicha, keyin esa harakatlanish yo‘nalishidan to nishongacha bo‘lgan masofa metrlarda ko‘rsatiladi, masalan, «To‘g‘riga – sakkiz yuz, o‘ngga – uch yuz – PTUR (tankka qarshi boshqariluvchi raketa)».

Azimutal ko‘rsatkich (minora burchak o‘lchagichi) bo‘yicha nishonni ko‘rsatish. Bunda mo‘ljal uchburchagi nishonga to‘g‘irlanadi, azimutal ko‘rsatkich turgan shkalagacha bo‘lgan burchak miqdori hisoblanadi, nishonga tomon yo‘nalish, uning nomi va masofasi haqida axborot beriladi. Masalan, «O‘ttiz besh nol-nol, o‘rmon yoqasida tankka qarshi qurol, yetti yuz».

Qurolni nishonga to‘g‘irlash (qaratish) orqali nishonni ko‘rsatish. Bu usul uzatuvchi va qabul qiluvchi yonma-yon turganida, masalan, tankda qo‘llaniladi. Bunday holatda qurol nishon tomoniga to‘g‘ri qaratiladi, nishonning nomi hamda ungacha bo‘lgan uzoqlik metrlarda ko‘rsatiladi. Masalan, «Bronetransportyor – besh yuz».


Yonib boruvchi o‘qlar (snaryadlar) va signal raketalarini yordamida nishonlarni ko‘rsatishda o‘q otish tartibi va o‘q miqdori, signal raketalarining ranglari to‘g‘risida oldindan kelishib olinadi, nishon ko‘rsatuvchi signallarni qabul qilish uchun esa kuzatuvchilar tayinlanadi.

6-§. Gorizont tomonlari yo‘nalishlarini aniqlash

Gorizont tomonlaridagi yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Agar ularning faqat bittasi ma’lum bo‘lsa, unga qarab, boshqa gorizont yo‘nalishlarini ham aniqlash mumkin. Masalan, shimol aniq bo‘lsa, demak, unga qarama-qarshi yo‘nalish — janub, o‘ng tomon — sharq, chap tomon — g‘arb bo‘ladi (23-rasm).

Gorizont tomonlari yo‘nalishlari asosan kompas, osmon yoritgichlari va mahalliy predmetlarning ba’zi bir belgilari yordamida aniqlanadi.

Hududda orientir olishda Adrianov kompasi va AK artilleriya kompasidan keng foydalilaniladi (24-rasm).



23-rasm. Gorizont tomonlarining o‘zaro joylashuvi.

Kompas bilan ishlash qoidalari

Kompasning ishga yaroqlilagini aniqlash uchun magnit strelkasining ta'sirchanligini tekshirish zarur. Buning uchun kompas ish holatiga keltirilib, unga birorta metall narsa yaqinlashtiriladi va uzoqlashtiriladi. Agar strelka har safar o'z joyini o'zgartirib, keyin oldin ko'rsatgan yo'nalishiga qaytsa, u kerakli darajada ta'sirchan bo'ladi. Kompas bilan ishlashda shuni esda tutish lozimki, kuchli elektromagnit maydonlar yoki yaqin joylashgan metall buyumlar ta'sirida uning strelkasi yo'nalishidan magnit meridiani bo'ylab og'adi. Shu sababli gorizont tomonlarini aniqlashda elektr uzatish tizimlari, temir yo'llar va yirik metall narsalardan 40 - 50 metrga chetlashish zarur.



24-rasm. Adrianov kompasi:

Kompas bo‘yicha gorizont tomonlarini aniqlash

Shimol, janub, g‘arb va sharqni kompas yordamida ancha oson va tez aniqlash mumkin. Buning uchun kompas yotiq holatga keltiriladi, strelka qisqichidan bo‘shatiladi va muvozanatga kelishi kutiladi. Shunda kompas strelkasining (qora, sariq, och ko‘k) rangli uchi shimol tomonga yo‘nalgan holda to‘xtaydi. Shimol tomon harakatlanish yo‘nalishidagi og‘ishni yoki shimol yo‘nalishiga nisbatan hududdagi nuqtalar joylashuvining holatini aniqlash hamda hisoblash uchun kompas bo‘lmalarga bo‘lib chiqilgan. Bo‘lmalar ichki va tashqi shkalalardan tashkil topgan bo‘lib, ichki shkala 120 bo‘lmadan iborat va bu bo‘lmalar oralig‘idagi burchaklar 3° ga teng. Hisob soat strelkasi yo‘nalishi bo‘yicha 0° dan 360° gacha olib boriladi. Tashqi shkala esa burchak o‘lchagichning beshta katta bo‘lmasiga (kompas shkalasining 10 ta bo‘lmasiga) teng, hisob soat strelkasining harakatiga qarama-qarshi yo‘nalishda olib boriladi.


«C» (север) – harfi shimalni ko‘rsatadi, shu harf o‘mida nolinchi bo‘lma joylashgan, bu joyga qorong‘ida shu’la tarqatuvchi uchburchak belgi qo‘yilgan. «И» (восток) – harfi sharqni, «Ю» (юг) – janubni, «З» (запад) – esa g‘arbni bildiradi va ularning ostki qismiga ham shu’la tarqatuvchi uchburchaklar o‘rnatilgan.

Kompasning harakatlanuvchi qopqog‘ida vizir moslamasi (mo‘ljal va mushka) joylashgan bo‘lib, uning qarshisiga harakat yo‘nalishini kechasi belgilashga xizmat qiluvchi shu’la tarqatadigan ko‘rsatkich strelkalar o‘rnatilgan.

Quyosh bo‘yicha

Yil fasliga bog‘liq ravishda Quyoshning ko‘tarilish va botish joylari turlicha bo‘ladi: qishda quyosh janubi-sharqdan ko‘tarilib, janubi-g‘arbgaga botadi; yozda shimoli-sharqdan ko‘tariladi va shimoli-g‘arbgaga botadi; bahor va kuzda Quyosh sharqdan ko‘tarilib, g‘arbgaga botadi (25-rasm).

Kun yarmida Quyosh doimo janub tomonda bo‘ladi. Mahalliy predmetlarning eng qisqa soyasi soat 13.00 da hosil bo‘ladi. Tik joylashgan mahalliy predmetlarning soyalari bu vaqtda shimol yo‘nalishini ko‘rsatib turadi.




25-rasm. Shimoliy yarim sharda o‘rta kengliklarda quyoshning chiqishi va botishi.

Quyosh va soat bo‘yicha

Quyosh va soat bo‘yicha gorizont tomonlarni aniqlash uchun soatning soatni ko‘rsatuvchi strelkasi Quyoshga qaratilishi kerak, bunda soat strelkasining yo‘nalishi bilan siferblatdagi 1 raqami o‘rtasida hosil bo‘lgan burchakni fikran teng ikkiga bo‘lish lozim. Burchakni bo‘lish uchun fikran hosil qilingan chiziq yo‘nalishining old qismi janubni, orqa chekkasi esa shimolni ko‘rsatadi (26-rasm).

Bu usuldan foydalilanayotganda, soat 13.00 gacha chap tomonagi burchakni, soat 13.00 dan keyin esa o‘ng tomonagi burchakni bo‘lish zarur ekanligini esda tutish lozim.



a) soat 13.00 gacha.


b) soat 13.00 dan keyin.

26-rasm. Quyosh va soat bo‘yicha gorizont tomonlarini aniqlash.


Shimoliy qutb yulduzi bo‘yicha

Shimoliy qutb yulduzi doimo shimolda joylashgan bo‘ladi. Shimoliy qutb yulduzini topish uchun, avvalo, katta ayiq yulduzlar turkumini topish zarur. U cho‘mich shakliga ega bo‘lib, ancha yorqin 7 ta yulduzdan iborat. Katta ayiq yulduzlar turkumi topilganidan keyin, uning o‘ng chekkasidagi 2 ta yulduz orqali yuqori tomonga fikran chiziq o‘tkaziladi. Bu chiziqning uzunligi ushbu yulduzlar orasidagi masofaga nisbatan 5 marotaba katta bo‘lishi shart.

Ana shunday holatda ushbu chiziqning eng oxirida Shimoliy qutb yulduzi joylashgan bo‘ladi. Shimoliy qutb yulduzi boshqa yulduzlar turkumi, ya’ni kichik ayiq yulduzlar turkumining dum qismida joylashgan. Shimoliy qutb yulduzi topilganidan so‘ng, ushbu yulduzdan yer sathiga fikran vertikal to‘g‘ri chiziq o‘tkazish zarur. Ana shu tomon shinolni bildiradi (27 va 28-rasmlar).



27-rasm. Shimoliy qutb yulduzini topish.



28-rasm. *Qutb yulduzi* bo‘yicha horizont tomonlarini aniqlash.

Qorning erishi bo‘yicha

Bizga ma’lumki, har doim narsalarning janubiy qismi shimoliy qismiga nisbatan ko‘proq qiziydi, shu sababli ularning janubiy qismida qor tezroq eriydi. Bu erta bahor va qishning isigan kunlarida jarliklar, qiyaliklar, daraxtlarning to‘nkalari hamda qor qoplagan harsang toshlarda ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Soya bo‘yicha

Peshinda soyaning yo‘nalishi shimolga qaragan, uzunligi esa eng qisqa bo‘ladi.

Soyaning eng qisqa bo‘lish paytini kutmasdan ham, quyidagi usul bilan orientir olish mumkin: 1 m ga yaqin uzunlikdagi tayoq yerga tik holda sanchib o‘rnataladi, soyaning chekka uchi belgilab qo‘yiladi. Oradan 10—15 min. o‘tganidan keyin ushbu holat yana takrorlanadi, ya’ni soyaning chekka uchi belgilab qo‘yiladi. Soyuning birinchi marrasidan ikkinchi marrasigacha chiziq o‘tkaziladi va 2-belgidan bir qadam masofaga uzaytiriladi. Bunda siz chap oyog‘ingizning uchini 1-belgining qarshisiga qo‘yib, o‘ng oyog‘ingizning uchini esa o‘zingiz hosil qilgan chiziqning chekkasiga qo‘yasiz. Xuddi shu holatda siz shimolga qarab turgan bo‘lasiz.

Mahalliy predmetlar bo‘yicha

Ignabargli daraxtlar tanasining janubiy qismida yelim shiralari ko‘proq hosil bo‘ladi, chumolilar o‘zlarining inlarini daraxt va butalarning janub tomoniga quradilar, shuningdek ular inlarining janubiy qismi shimoliga nisbatan yotiqroq qiyalikka ega bo‘ladi (77-rasm). Qayinlar va qarag‘aylar po‘stloqlarining shimoliy tomoni qalinroq bo‘ladi, daraxtlarning tanalari, toshlarning, qoyalar o‘silalarining shimoliy qismlari mox va zamburug‘lar bilan qoplangan bo‘ladi.


Bino va inshootlar bo‘yicha

Gorizont tomonlariga qat’iy orientirlangan binolarga cherkovlar, sinagoglar va masjidlar kiradi.

Xristian va lyuteran cherkovlarining mehroblari va butxonalari sharqqa, o‘ng‘iroqxonalari esa g‘arba qaratib quriladi.

Provoslav cherkovlari gumbazlaridagi xochlarning pastki yakka cho‘plarining pasaygan chekkasi janubga, ko‘tarilgan chekkasi shimolga qaratib o‘rnataladi (29-rasm).

Katolik cherkovlarining mehroblari binoning g‘arbiy qismida joylashadi.



29-rasm. Hududdagi jismlar orqali gorizont tomonlarini aniqlash.

Budda monastirlarining sajdagohlari, sanamlarining old tomoni janubga qaragan bo‘ladi. O‘tovlarning eshiklari ham odatda janubga qaratib o‘rnataladi.

Qishloq joylarida qurilgan uylarning derazalari asosan janub tomonda joylashgan bo‘ladi, binolar devorlarining janubiy qismida ranglari ko‘proq jilolanib (yorqin rangda) turadi.

Maydoni katta o‘rmonlarda gorizont tomonlarini aniqlashda daraxtlari qirqib hosil qilingan tor yo‘llarga e’tibor berish zarur, chunki ular shimol-janub va sharq-g‘arb yo‘nalishlarida qirqib hosil qilinadi. O‘rmonlar, shuningdek yo‘llar kesishgan joylardagi simyog‘ochlarga belgilab qo‘yilgan kvartallarning raqamlari, yozuvlaridan ham tomonlarni aniqlash mumkin. Bu simyog‘ochlarning har to‘rt tomoniga qarama-qarshi tomondagi o‘rmon kvartali raqamini ko‘rsatuvchi yozuvlar yoziladi. Bunday holatda ikkita kichik raqamli tomon o‘rtasidagi qirra shimolni ko‘rsatadi.

7-§. Topografik xaritalarning belgilanishi va klassifikatsiyasi

Topografik xarita o‘lchovchi hujjat va ma’lumotning asosiy manbai sifatida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari va Ichki ishlar idoralarining asosiy boshqarish vositalaridan hisoblanadi. Ular joylarni o‘rganish, masofani o‘lchash,

harakatlarning yo‘nalishini aniqlash, o‘t ochish uchun ma’lumotlar tayyorlash, mo‘jalga olish nuqtasini aniqlash uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida aniq turli masshtabli topografik tizimi o‘rnatilgan. Bu esa xarita bilan ishlashda bir masshtabdan boshqasiga oson va qulay o‘tishni ta’minlaydi.

Topografik xaritalarning turlari va qo‘llanish maqsadlari

Topografik xaritalar masshtablariga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi.

1-jadval

Xarita-larning turlari	Masshtab	Xaritalarning nomlanishi	Xaritalar ramkalarining o‘lchamlari	
			Kenglik bo‘yicha	Uzoqlik bo‘yicha
Yirik masshtabli	1:10 000 (1 sm da 100 m)	O‘n minglik xarita	2,5'	3,75'
	1:25 000 (1 sm da 250 m)	Yigirma besh minglik yoki chorak kilometrlik xarita	5'	7,5'
	1:50 000 (1 sm da 500 m)	Ellik minglik yoki yarim kilometrlik xarita	10'	15'
O‘rta masshtabli	1:100 000 (1 sm da 1 km)	Yuz minglik yoki kilometrlik xarita	20'	30'
	1:200 000 (1 sm da 2 km)	Ikki yuz minglik yoki ikki kilometrlik xarita	40'	1°
Kichik masshtabli	1:500 000 (1 sm da 5 km)	Besh yuz minglik yoki besh kilometrlik xarita	2°	3°
	1:1000 000 (1 sm da 10 km)	Millionlik yoki o‘n kilometrlik xarita	4°	6°

Izoh: Jadvaldagagi “ ‘ ” belgisi minutni, “ ° ” belgisi esa gradusni bildiradi.

Yirik masshtabli xaritalar hududni bevosita o'lhash asosida yoki aerofotosuratlar bo'yicha tayyorlanadi.

1:25 000 masshtabli xaritalar eng mukammal va aniq bo'lib, ulardan ichki ishlar organlari bo'linmalarining komandirlari hududdagi alohida, uncha katta bo'lman uchastkalarni to'liq o'rganish va baholash, qurollangan jinoyatchilarni ta'qib qilish va qo'lga olish, tog'li va tepalikli hududlarda jangovar harakatlarni olib borishda foydalanadilar. U, shuningdek, aniq hisoblash va rejalshtirish yo'li bilan hududda muhandislik inshootlarini qurish va o'q otishni topogeodezik tayyorlash, patrullik qilish marshrutlari hamda profilaktika nozirlari tayanch punktlarini belgilash, ichki ishlar organlari bo'linmalari jangovar tartibi guruhlarining aniq joylashgan yerlarini (dastlabki marralarini) belgilash uchun ishlataladi.

1:50 000 masshtabli xaritalar hududni o'rganish va baholash, orientir olish va nishonlarni ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Ichki ishlar organlari va bo'linmalari undan odatda turli jang usullarini olib borishda, ayniqsa, maxsus operatsiyalarni tashkil qilishda keng foydalanadilar.

Hujumda dushman mudofaasini yorib o'tish, baland tog' cho'qqilaridan oshib o'tish, shuningdek aholi punktlarini qo'lga kiritish uchun olib borilayotgan jangovar harakatlarda hududni o'rganish va baholash uchun xaritadan foydalaniladi. Bunday xaritalar o'q otishni topogeodezik tayyorlash va hududni muhandislik nuqtai nazaridan jihozlash hisoblarini bajarishda ham qo'llaniladi.

O'rta masshtabli xaritalar bevosita suratlar, shuningdek katta masshtabli xaritalar bo'yicha tayyorlanadi.

1:100 000 masshtabli xaritalardan jangni rejalshtirish, hududni o'rganish va uning taktik xususiyatlarini baholash, qo'shinlar hamda maxsus bo'linmalarining o'zaro hamjihat harakatlarini tashkil etish va boshqarish, hududda orientir olish va nishonlarni ko'rsatish, qo'shinlar va maxsus bo'linmalarining jangovar tartibi elementlarini topogeodezik bog'lash, dushman ob'ektlari (nishonlari) koordinatalarini aniqlash, shuningdek harbiy muhandislik inshootlari loyihamalarini

tayyorlash, hududni muhandislik jihatidan jihozlash tartiblarini bajarishda qo'llaniladi.


1:200 000 mashtabli xaritalar hududni o'rganish va baholashda qo'llaniladi. Ulardan qo'shinlar hamda maxsus bo'linmalarning jangovar harakatlari va ularni ta'minlash tadbirlarini rejalashtirish, shuningdek ularni boshqarishda keng foydalaniladi. Xaritada yo'llardagi tarmoqlar mukammal tasvirlangani uchun jangovar va boshqa texnikalarni harakatlantirishda undan foydalanish qulay. Bunday xaritalarda yo'llar tarmog'idan tashqari relefning asosiy xususiyatlari, asosiy suv to'siqlari, yirik tog' qiyaliklari va aholi punktlari mukammal tasvirlangan. Shuning uchun yo'lsiz hududlardagi harakatlanish imkoniyatlari, hududni himoyalash va niqoblash xususiyatlarini o'rganishda ulardan foydalaniladi.

1:500 000 mashtabli xaritalar operatsiyalarni tayyorlash, o'tkazishda hududning umumiy xususiyatlarini o'rganish va baholash uchun qo'llaniladi. Ulardan qo'shinlar hamda maxsus bo'linmalarning o'zaro hamjihat harakatini tashkil qilish va boshqarish, maxsus operatsiyaga jalb qilingan xodim va harbiy xizmatchilarni harakatlanishi uchun orientirlash va nishonlarni ko'rsatish, shuningdek umumiy jangovar vaziyatni baholashda foydalaniladi.

1:1 000 000 mashtabli xaritalar hududni umumiy baholash va yirik geografik hududlarning tabiiy sharoitlarni o'rganish, harbiy harakatlar maydonini harbiy-geografik baholash, qo'shinlarni boshqarish va boshqa vazifalarni hal qilish uchun qo'llaniladi.

Topografik xaritalarning razgrafikasi va nomenklaturasi.

Topografik xaritalarning har bir sahifasi trapesiya shaklidagi ramkaga ega bo‘lib, uning yuqori va pastki tomonlari parallellar, yon tomonlari esa meridianlar hisoblanadi. Xaritalarning alohida sahifalarga bo‘linishi xaritalarning **razgrafikasi** deb ataladi, ko‘p sahifali xaritalarning belgilanishi esa xaritalar **nomenklaturasi** deyiladi. Xaritalarning sahifalarga bo‘linishiga asos qilib olingan geografik setkadan uning sahifasida tasvirlangan yer shari har qanday maydonining joylashgan holatini aniqlash mumkin. Undan tashqari, xarita tomonlarining meridianlar va parallellar bilan mos kelishi xarita sahifalarining gorizont tomonlariga nisbatan joylashuvini ko‘rsatadi, ya’ni ramkaning yuqori tomonidagi shimoliy yarim shar shimolni, pastki yarim shar janubni, chap tomon g‘arbni va o‘ng tomon sharqni ifodalaydi (30-rasm).



30-rasm. 1:1000000 masshtabli xaritalar sahifalarining jadvali.

Turli masshtabli xaritalar sahifalarining standart o‘lchamlari 2-chi jadvalda ko‘rsatilgan.

2-jadval


Xaritalarning masshtablari	Sahifalarning o‘lchamlari		Hududda mos keladi (taxminan)	
	kenglik bo‘yicha	uzunlik bo‘yicha	Ramka sahifasining yonlama uzunligi (km)	Sahifalar yuzalari (54° kenglikda) km ²
1:25 000	5'	7,5'	9	75
1:50 000	10'	15'	18	300
1:100 000	20'	30'	37	1 200
1:200 000	40'	1°	74	5 000
1:500 000	2°	3°	220	44 000
1:1 000 000	4°	6°	440	175 000

Xarita sahifalari nomenklaturasi

U yoki bu masshtabli va hududdagi kerakli xarita sahifasini oson va tezda topish uchun har bir sahifaga ma'lum bir qoidaga asoslangan holda, harfli va raqamli belgi qo'yilgan (3 va 4 jadvallarga qarang).

3-jadval

N-37-4



4-jadval

N-37

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36
VII		A		IX		X		B		XII	
37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48
49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60
XIII		XIV		XV		XVI		XVII		XVIII	
61	62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	72
73	74	75	76	77	78	79	80	81	82	83	84
XIX		XX		XXI		XXII		XXIII		XXIV	
85	86	87	88	89	90	91	92	93	94	95	96
97	98	99	100	101	102	103	104	105	106	107	108
XXV		B		XXVII		XXVIII				XXX	
109	110	111	112	113	114	115	116	117	118	119	120
121	122	123	124	125	126	127	128	129	130	131	132
XXXI		XXXII		XXXIII		XXXIV		XXXV		XXXVI	
133	134	135	136	137	138	139	140	141	142	143	144

Xaritaning har bir sahifasi ushbu qatorga mos keladigan lotin alifbosining bosh harflari bilan va ustunlarga mos keluvchi nomerlar arab raqamlari bilan belgilanadi. Xarita sahifalarining bunday belgilanishi uning nomenklaturasi deb ataladi. Har bir sahifaning nomenklaturasi xarita ramkasining shimoliy tomonida ko‘rsatiladi. Sahifa nomenklaturasi yoniga ushbu xaritada joylashgan ancha yirik aholi punktining nomi yozib qo‘yiladi. Shuningdek, har bir sahifada unga qo‘shni bo‘lgan sahifalarning nomenklaturalari ham ko‘rsatiladi. Bu yozuvarlar xaritaning to‘rt tomoni tashqi ramkalarining o‘rtasiga joylashtiriladi.

Kenglik bo‘yicha 4° va uzoqlik bo‘yicha 6° li millionlik xarita sahifasining xalqaro razgrafikasi topografik xaritalarning nomenklurasiga asos qilib olingan. Razgrafikaning dastlabki paralleli ekvator, dastlabki meridiani esa Grinvich meridianidan 180° uzoqlikdagi meridian hisoblanadi. Kenglik bo‘yicha 4° li sahifalar **qatorlar** deb ataladi. Sahifalarning qatorlari lotin alifbosining bosh harflari bilan (A dan V gacha) ekvatordan qutblar tomon belgilanadi.

Meridianlar oralig‘idagi sahifalar **ustunlar** deb ataladi. Sahifalar ustunlari 1 dan 60 gacha bo‘lgan arab raqamlari bilan belgilanadi va ularning hisobi Grinvich meridianidan 180° uzoqlikdagi meridiandan boshlanib, g‘arbdan sharqqa tomon olib boriladi. Har 4° dan parallellar va 6° meridianlar o‘tkazilganida, yerning butun yuzasi trapesiyalarga bo‘laklab tashlanadi, o‘z navbatida, ularning har biri 1:1000000 xaritaning bir sahifasiga to‘g‘ri keladi.

Millionlik xarita sahifalarining kenglik bo‘yicha ustunlari Gauss loyihasi asosida topografik xarita tuzishda yer yuzasi ellipsoidini bo‘laklarga bo‘ladigan olti gradusli zonalarga mos keladi. Ularning farqi raqamlanishida, xolos: zonalarni hisoblash boshlang‘ich (Grinvich) meridiandan, millionlik xarita sahifalarining ustunlari esa 180° li meridiandan boshlab hisoblanadi, natijada zonalar nomerlari ustunlari nomerlaridan 30 ga farq qiladi; shuning uchun xarita sahifasi nomenklurasini bilish orqali uning qaysi zonaga tegishli ekanligini, shuningdek zonaning raqami bo‘yicha ustunni oson aniqlash mumkin.

Masalan, Toshkent shahrining xarita sahifasi 12-zonada joylashgan ($42-30=12$), xuddi shuningdek ustunni ham aniqlash mumkin. Masalan, Toshkent shahri 12 zonada, bu holda, ustun 42 bo‘ladi ($12+30=42$). Agarda zona 30 dan kichik bo‘lsa, unga 30 ni qo‘shish zarur, agar 30 dan katta bo‘lsa, 30 ni ayirish zarur.

Millionlik xaritaning bitta sahifasidan quyidagilar hosil qilinadi:

- 500 000 lik to‘rtta xarita sahifasi, ular A, B, V, G (K-42-A) bosh harflar bilan belgilanadi;
- 200 000 lik 36 ta xarita sahifasi, ular I dan XXXVI gacha bo‘lgan rim raqamlari bilan belgilanadi hamda ularning nomenklaturasi K-42-XXII kabi shaklda yoziladi;
- 100 000 lik 144 ta xarita sahifasi, ular 1 dan 144 gacha bo‘lgan arab raqamlari bilan belgilanadi va ularning nomenklaturasi K-42-28 kabi shaklda yoziladi.

Yuz minglik xaritaning bitta sahifasi quyidagilar hosil qilinadi:

- 50 000 lik 4 ta xarita sahifasi, ular kirill alifbosining A, B, V, G harflari bilan belgilanadi hamda ularning nomenklaturasi K-42-28-A kabi shaklda yoziladi;
- 25 000 lik 16 ta xarita sahifasi, ular kirill alifbosining a, b, v, g kichik harflari bilan belgilanadi hamda ularning nomenklaturasi K-42-28-A kabi shaklda yoziladi;
- 10 000 lik 64 ta xarita sahifasi, ular 1, 2, 3, 4 arab raqamlari bilan belgilanadi hamda ularning nomenklaturasi K-42-28-A-a-1 kabi shaklda yoziladi.

5-jadval

Masshtab	Harfli-raqamli nomenklaturasi
1:1 000 000	K-42
1:500 000	K-42-A
1:200 000	K-42-XXII
1:100 000	K-42-28
1:50 000	K-42-28-A
1:25 000	K-42-28-A-a
1:10 000	K-42-28-A-a-1


Razgrafika, sahifalar soni, ularning o‘lchamlari va nomenklaturalari 6-jadvalda ko‘rsatilgan.

6-jadval

Xaritalar masshtab-lari	Ushbu sahifani hosil qilish uchun dastlab-ki sahifa miqdori	Dast-labki sahifa-dan hosil bo‘ladi-gan sa-hifalar miqdori	Sahifaning o‘lchamlari		Dastlabki sahifada sahifalarni (raqamlash) belgilash	Nomenklatu-ralarning yozilish namunalari
			Kenglik bo‘ yicha	Uzoqlik bo‘ yicha		
1:1000000	dastlabki	1	4°	6°	-	N-36
1:500000	1:1000000	4	2°	3°	A, B, B, G	N-36-G
1:200000	1:1000000	36	40'	1°	I, II...XXXVI	N-36-XII
1:100000	1:1000000	144	20'	30'	1, 2.....144	N-36-24
1:50000	1:100000	4	10'	15'	A, B, B, G	N-36-12-B
1:25000	1:50000	4	5'	7,5'	a, b, v, g	N-36-41-B-v
1:10000	1:25000	4	2,5'	3,75'	1, 2, 3,4	N-36-41-B-v-1

Xarita bo'yicha o'lchash

Yuza darajalari uchun loyihalashtirishgan topografik xaritalarni yaratishda hududdagi barcha ob'ektlarning chiziqli o'lchamlari muayyan darajada kichraytiriladi. Bunday kichraytirish darjasini *xaritaning masshtabi* deyiladi (31-rasm). Masshtablar son bilan ifodalangan (sonli masshtab) yoki jadval ko'rinishida (chiziqli, ko'ndalang masshtabli) bo'lishi mumkin.



31-rasm.

Egri yo'llar uzunligini o'lchash.

Xarita orqali egri yo'llar uzunligini o'lchashda odatda kurvimetrdan foydalaniladi (32-rasm).



Standart kurvimetrit xaritadagi masofalarni o'lchash uchun zarur asbob bo'lib, bir tomoni metrik (0 dan 100 sm.gacha), boshqa tomoni dyuymli (0 dan 30,4 dyuymgacha) bo'lgan ikkita shkaladan iborat. Kurvimetrit mexanizmi aylana g'ildirakli bo'lib, u tishli uzatish tizimi orqali strelkaga ulangan. Xaritadagi chiziq uzunligini o'lchash uchun oldin g'ildirakni aylantirib, kurvimetrit milini shkalaning boshlang'ich bo'lmasiga qo'yish, keyin aylanma g'ildirakni o'lchanayotgan chiziq bo'ylab yurgizish kerak. Kurvimetrit shkalasi bo'yicha olingan natijani xarita masshtabi kattaligiga ko'paytirish zarur.

32-rasm. Kurvimetrit KU-A:
1 – asos; 2 – shkala;
3 – strelka; 4 – ko'rsatkich;
5 – yurg'izadigan g'ildirak

Kurvimetritning to'g'ri ishlashi oldindan ma'lum bo'lgan chiziq uzunligini, deylik, xaritadagi kilometr setkali chiziqlar o'rtaqidagi masofani o'lchash orqali tekshiriladi. Kurvimetrit bilan 50 sm uzunlikdagi chiziqnini o'lchashdagi xato 0,25 sm.dan oshmaydi.

8-§. Topografik xaritalarning asosiy elementlari

Topografik xaritalarda hududning hamma muhim elementlari – relef, gidrografiya, o'simliklar va tuproq, sanoat, qishloq xo'jalik va boshqa ob'ektlar tasvirlanadi. Xarita masshtabi qanchalik katta bo'lsa, unda ob'ektlar shunchalik katta va batafsil ko'rsatiladi.

Kartografik shartli belgilar xaritadagi turli xil ob'ektlarning belgilari hamda ularning sifat va miqdor tomonlarini ifodalaydi. Hamma yirik masshtabli xaritalarda bitta ob'ektning shartli belgilari chizilishi va rangi jihatidan asosan bir xil bo'lib, o'lchamlari bilangina farq qiladi. Bir xil turdag'i ob'ektlarning har bir

guruhi uchun umumiylar shartli belgi o'rnatiladi va u predmetning turini aniqlab beradi. Ular, odatda chizish va eslab qolishga qulay bo'lishi uchun oddiy ko'rinishga ega bo'ladi, o'zlarining rasmlari yoki ranglari orqali tasvirlanayotgan mahalliy predmetni eslatadi va biron belgisini ifodalaydi. Kartografik shartli belgilar qo'llanishi va geometrik xususiyatlariga ko'ra uch turga bo'linadi: chiziqli, masshtabsiz va maydonli. Xaritalarda, shartli belgilardan tashqari, tasvirlangan ob'ektni va uning turini, shuningdek ularning miqdor va sifat xususiyatlarini tavsiflovchi yozuvlar qo'llaniladi.

Chiziqli kartografik shartli belgilar bilan chiziqli ko'rinishga ega bo'lgan ob'ektlar tasvirlanadi va ularning uzunligi xarita masshtabi bo'yicha ifodalanadi: yo'llar, neft quvurlari, elektr uzatish tizimlari va boshqalar.

Masshtabsiz kartografik shartli belgilar bilan xarita masshtabi bo'yicha tasvirlanmaydigan ob'ektlar va maydonlar aks ettiriladi. Hududdagi ob'ektning joylashish holati simmetrik shakldagi belgi markaziga, belgi asosi markaziga mos keladi.

Maydonli kartografik shartli belgilar bilan xarita masshtabida ifodalanmaydigan ob'ektlar maydonlari tasvirlanadi. Ob'ekt (botqoqlik, o'rmon massivi va shunga o'xshash)lar konturi (chegarasi) ichiga chizilgan maydonli belgilar ularning hududdagi holatini ko'rsatmaydi.

Izohlovchi yozuvlar hududdagi ob'ektlar haqida qo'shimcha ma'lumotlar beradi, ya'ni ob'ektlarning nomlari, ularning vazifasi hamda miqdor va sifat xususiyatlari. Ba'zi hollarda yozuvlar shartli belgilar bilan birga ko'rsatiladi (masalan, o'rmonlarni tavsiflashda daryodagi suvning oqish yo'nalishini belgilashda, botqoqlik chuqurligini ko'rsatishda). Izohlovchi yozuvlar to'liq yoki qisqartirilgan bo'lishi mumkin.

Topografik xaritalar hamma masshtablar uchun yagona bo'lgan rangga ega bo'ladi. Rang ma'lum bir darajada mahalliy predmetning yoz vaqtidagi haqiqiy rangiga mos keladi. Qora rangda – tuproq yo'llar, chegaralar, turli xil binolar, inshootlar, ko'k rangda – gidrografiya, jigar rang bilan – relef, yashil rangda o'simliklar qoplami ifodalanadi. Ancha muhim ob'ektlar (shaharlar, qoplamasiz avtomobil yo'llari va shu kabilalar)ning shartli belgilari jigar rang bilan tasvirlanadi.

Gidrografiya

Dengizlar, ko‘llar, suv omborlarining qirg‘oqlari. Dengizga ulanib ketuvchi quruqlik hududi hamda dengizning quruqlikka qo‘silib ketuvchi hududi birgalikda dengiz qirg‘og‘ini hosil qiladi va bu sohil relefi qo‘ltiqlar, ko‘rfazlar, suv osti va suv usti to‘sqliari (qoyalar, suv osti qoyalari)ning xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Dengiz qirg‘oqlari tog‘simon yoki pastlik bo‘lishi mumkin, bunday joylarda suv havzalari, odatda, chuqur bo‘ladi va bu yerlarda ko‘plab to‘sqliar uchraydi. Yotiq qirg‘oqlar dengiz bilan tekis qiyalikda birlashib ketgan bo‘ladi va suvlari sayoz bo‘ladi.

Daryo va kanallar. Daryolar o‘zining tabiiy o‘zanida oquvchi suv oqimidan iborat bo‘lib, yer usti va yer osti manbalaridan hosil bo‘ladi.



Quduqlar va boshqa suv manbalari. Quruq va suvsiz hududlar uchun tuziladigan xaritalarda, odatda, hamma quduqlar va suv manba lari (buloqlar) tasvirlanadi. O‘z nomiga ega bo‘lmagan quduq belgilari yonida “Q” harfi yoki “art. Q” yozuvi yoziladi. Katta miqdorda va sifatli suvga ega bo‘lgan, yo‘llar tarmog‘ida joylashgan quduqlar alohida shartli belgilarni bilan ajratib tasvirlanadi.

Gidrotexnik inshootlar

Qoidaga ko‘ra, xaritada hamma poromli suvdan o‘tish moslamalari tasvirlanadi. Ularning belgilari “par” belgisi bilan birgalikda keladi va belgi bilan yonma-yon daryoning kengligi, paromning o‘lchamlari va yuk ko‘tarish imkoniyati ko‘rsatiladi.

Xaritalarda to‘g‘onlarni ko‘rsatishda suv usti va ostidagi (o‘tib bo‘ladigan va o‘tib bo‘lmaydiganlarga bo‘linadi) yirik (uzunligi 100 m dan ortiq bo‘lgan muhim to‘g‘onlar) suv osti to‘g‘onlari maydonli qilib ko‘rsatiladi va unda inshoot materiali, to‘g‘onning uzunligi va kengligi, shuningdek suvning yuqorigi va pastki sathi belgilab ko‘rsatiladi. Daryo va kanallardagi shlyuzlarning hammasi xaritalarda ko‘rsatiladi. Ularni tasvirlashda suv o‘tish kameralarining soni, eng qisqa kameralarning uzunligi, darvozalarning kengligi, shuningdek shlyuz darvozasi ostonasidagi suvning chuqurligi ko‘rsatiladi.

Xaritalarda to‘g‘onlar tasvirlanib, unda qurilish materiali, yuqori qismining kengligi va balandligi belgilab qo‘yiladi.

G I D R O G R A F I Y A		
Shartli belgilar	Tasvirlanayotgan ob'ektlarning nomlari	
1:25 000 1:50 000	Dengizlar, daryolar, suv omborlarining doimiy va o'zgaruvchan qirg'oq chiziqlari. Quruvchi qirg'oqlar (suvning ko'tarilish va qaytish chiziqlari): 1 – qumli; 2 – qumli-toshli; 3 – loyli; 4 – qoyali.	
	O'pirilgansimon va qoyali qirg'oqlar: 1 – plyajsiz; 2 – xarita mashtabida ifodalanmaydigan, plyajli (o'pirilishlarning yoki qoyalarning metrlardagi balandliklari 3 va 15)	
	Kechuvlar: 1,2 – chuqurligi, 160 va 450 – uzunligi metrlarda, T – suv tagini tashkil qiluvchi yer xususiyati, 0,5 – oqim tezligi m/sek	
♂ (ж.-сол.)	♂ (ж.-сол.)	Quduqlar
51,1 ♂ к. Айтыйм (зл. 25 м, 500 л/ч)	51,1 ♂ к. Айтыйм (зл. 25 м, 500 л/ч)	Asosiy quduqlar (soatiga 500 litr suv beradi)
?	?	Suv manbalari (chashmalar, buloqlar)

	<p>3 metrdan kam kenglikka ega bo‘lgan kanallar va ariqlar; Kengligi 3 metrdan 5 metrgacha bo‘lgan kanallar (1:25000, 1:50000 xaritalarda); Kengligi 5 metrdan 15 metrgacha (1:25000 xaritalarda); Xarita masshtablarida shu kenglikda ifodalanadigan kanallar: 15 metrdan ortiq (1:25000 xaritada).</p>
---	--

O‘simlik va tuproq qoplami

O‘simliklar qoplaming asosiy guruhlari. O‘simliklar qoplamini xaritada tasvirlashda ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi: yog‘ochli (o‘rmonlar, alohida kichik o‘rmonlar va alohida daraxtlar) va butazorli; yarim butazorli, o‘qli, mox va zamburug‘li; sun’iy ko‘chatzorlar (bog‘lar, xiyobonlar).

Balandligi 4 m dan yuqori daraxtlardan iborat bo‘lgan va tepe qismi maydonining yer maydoniga nisbati 2 m dan katta bo‘lmagan daraxtzorlar **o‘rmonlar** deb ataladi. Agar daraxtzorlardagi daraxtlar siyrak joylashgan bo‘lsa, **siyrak o‘rmonlar** deb ataladi.

O‘rmonning tarkibi undagi turli daraxtlar nisbiy miqdorlarining foizlarda berilishi bilan ifodalanadi. Agarda o‘rmondagi daraxtlarning 80% bir xil turdagи daraxtlar bo‘lsa **sof o‘rmonlar** deb ataladi. Agarda o‘rmondagi daraxtlarning har bir turi 20% dan oshiq bo‘lmasa, **aralash o‘rmon** deyiladi. O‘rmonlar ignabargli, yaproq bargli va aralash o‘rmonlarga bo‘linadi. Daraxtlar turlarining tarkibi ularning balandligi va zichligiga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘rmon zichligi daraxtlar orasidagi o‘rtacha masofa bilan farqlanadi.

Butalar – balandligi 4 m gacha bo‘lgan yog‘ochli o‘simliklar. Butalar ildizidan bir necha tutamdan iborat bo‘lib o‘sadi. Butazorlarning asosiy xususiyatini ularning tarkibi, balandligi va zichligi tashkil qiladi.

O‘tli o‘simliklar o‘sish joyiga bog‘liq ravishda yaylov va cho‘l o‘tlariga, balandliklariga bog‘liq holda esa past (1 m dan past) va baland (1 m dan baland) o‘tlarga bo‘linadi.













Madaniy o‘simliklarga turli sun’iy ko‘chatlar va madaniy ekinlar (mevali bog‘lar, sitrus o‘simliklari, rezavor mevali butazorlar, tokzorlar, choy plantatsiyalari, poliz ekinlari) kiradi.

Yerning bir necha metr chuqurlikkacha bo‘lgan yuqori qatlami **tuproq qatlami** deb ataladi. Tuproqning yuqori yumshoq qatlami (1—1,5 m gacha) hosildor bo‘lib, **tuproqning sirtqi qatlami** deb ataladi.

Tuproq qatlami toshli va yumshoq turlarga bo‘linadi. Toshli tuproqlar qattiq holda bo‘lib, asosan tog‘li hududlarda uchraydi. Yumshoq tuproqlar ob-havo ta’siri natijasida hosil bo‘ladi. Ular bo‘sh, o‘rtacha va qattiq bo‘lishi mumkin.







8-jadval

Tuproq qatlami	Tuproq tarkibi	Zichlikni aniqlash usullari
Bo‘sh	qum, qum tuproq, yengil soz tuproq, torflar, qora tuproq, namxush sariq tuproq	Belkurak tuproqqa oson botadi, tuproq bo‘lagi uloqtirib yuborilganida mayda qismlarga bo‘linib ketadi
O‘rtacha	yog‘li loy, og‘ir soz tuproq, yirik shag‘al, quruq sariq tuproq	Belkurak oyoq bilan bosilganida tuproqqa kiradi, kovlab olingan tuproq bo‘lagi turli kattallik-lardagi qismlarga bo‘linadi
Qattiq	Zich quruq tuproq, tuproqning bo‘rli jinslari, tuproqning muzlagan holatlari	Tuproqqa belkurak qiyinchlik bilan kiradi, tuproq bo‘laklari qo‘l bilan qiyin bo‘laklanadi

O'SIMLIKLAR VA TUPROQ QOPLAMI		
Shartli belgilar		Tasvirlanayotgan ob'ektlarning nomlari
1:25 000	1:50 000 – 1:200 000	
		O'rmonda ko'p uchraydigan daraxtlar turlari: 1 – ignabargli (archa, qarag'ay, kadr va boshqalar); 2 – yaproq bargli (qayin, eman va boshqa); 3 – aralash.
		Yosh o'rmonlar, o'rmon ko'chatzorlari va 4 metrgacha balandlikdagi ko'chatlar ekilgan o'rmonlar (daraxtlarning o'rtacha balandligi 2 metr)
		1 – past bo'yli o'rmonlar; 2 – singan daraxtlar maydoni
		Butazorlar: 1 – alohida butalar va butalar guruhi; 2 – yalpi chakalakzorlar
		Bambukzorlar
		Sholizorlar: 1 – vegetatsiya davrida namlanuvchi; 2 – vegetatsiya davrida suv bostiriluvchi
		Mevali bog'lar
		1 – tokzorlar; 2 – sitrusli bog'lar
		1 – qulupnayli, yertutli va boshqa bog'lar 2 – mevali-qulupnayli bog'lar


O'simliklar qoplami va yer qoplamasi xususiyatini ifodalovchi shartli belgilarning uyg'unlashgan holatlari

O'rmonlardan siyrak o'rmonlarga, butalarga va yaylovlarga asta-sekin o'tish	Singan daraxtlardan iborat siyrak o'rmon
Qumliklarda qarag'ayzorlar	Kesilgan o'rmonlar va singan daraxtlar maydonidagi yong'in izlari
Moxli o'tib bo'lmaydigan botqoqliklardagi siyrak past bo'yli o'rmonlar	O'tib bo'ladigan botqoqliklardagi past bo'yli o'rmonlar va butazorlar
Butazorli yaylovlar	Butazorli dasht o'simliklari
Notekis yuzali yaylovlar	Toshli yuzadagi moh va zamburug'li o'simliklar bilan butalar

 <p>Notekis yuzali yaylovlar va qamishli o'tib bo'ladigan botqoqliklar</p>	 <p>Sochilgan toshli va shag'alli yuzadagi siyrak o'rmon</p>
 <p>Butali yuqori o'tli maydonlar</p>	 <p>Mohli va zamburug'li keskin notekis yuzaga ega maydon</p>
 <p>Cho'llardagi yarimbutasimon o'simliklar</p>	 <p>Butalar va saksovullar bilan mustahkamlangan tekis qumliklar</p>

Qumliklar. Qumliklar 1 km² dan ortiqroq maydonni egallasa, xaritada ko'rsatiladi. 1:500 000 – 1:1000000 xaritalarda qumliklarni tasvirlashda, ular tekis, egri-bugri, qatorli, o'yqli, barxanli turlarga bo'linadi. 1:25 000 masshtabli xaritalarda hamma qumliklar tekislik kabi tasvirlanadi, ularning relefi esa gorizontallar bilan ko'rsatiladi.

11-jadval

Qumliklar				
				
Tekis	Notekis	Chiziqli to'plangan	Nishab chuqurlikli	Barxanli

Taqirlar gorizontal loyli uchastkalarni tashkil etib, relefning pastki toshloq va qumli joylarida joylashadi. Ular botiq yerning yassi tag qismidir. Ayrim hollarda bu botiq yerlarda yomg'ir suvlaridan hosil bo'lgan ko'lllar tashkil topadi. Suv qurishi natijasida taqirlarning ustki qismi yassilanadi va yoriq plitalar shakliga kiradi. Taqirlarning o'lchamlari turli xil: bir necha kvadrat metrli kichik uchastkalardan to bir necha kvadrat kilometrgacha bo'lgan katta maydonlarga. Ular ustida o'simlik o'smaydi. Yilning quruq fasllarida ular balonli avtomashinalar o'tishiga qiyinchilik tug'dirmaydi, yomg'irli paytlarda esa aksincha, qiyinchilik tug'diradi.

Sho'r tuproqli (sho'rxok) maydonlarning asosini tuzli qism tashkil etadi. Ular tavsiflariga ko'ra yopishqoq, nam holatda ishuvchan, nihoyatda zikh va quruq vaqtida qattiqdir. Tuzi ko'p maydonlar sho'rxok yerlar deyiladi. Yomg'irdan so'ng sho'rxok yerlar botqoqlilikka aylanadi.

Sho'rxok – chuqur botiqlarda joylashgan nam sho'r tuproqlar. Bunday yerlarda yer osti suvleri yerning tepe qismiga yaqin keladi. Yomg'irli kunlarda sho'rxokning tepe qismi sho'r loy va suv bilan, quruq kunlarda esa quruq tuproq va tuz bilan qoplanadi. Qattiq yomg'ir paytida sho'rxok ustidan umuman hech qanday avtotransportda o'tib bo'lmaydi, ammo quruq paytlarda piyoda odamlar va jonivorlar o'tishi mumkin.

Xaritalarda botqoqlik ko‘k gorizontal mayda chiziqlar bilan ko‘rsatiladi. O‘tib bo‘lishiga ko‘ra, o‘tib bo‘ladigan va o‘tib bo‘lmaydigan botqoqliklar ajratiladi.

O‘tib bo‘ladigan botqoqliklardan yoz kunlari har qanday yo‘nalishda piyodalar harakatlanishi mumkin. Ular tarkibiga yuza qismida yoki yupqa suv qatlami tagida zinch torfli-moxli botqoqliklar, ko‘pincha o‘t bilan qoplangan, shuningdek to‘liq shoxli va ko‘p miqdorda butalardan tashkil topgan botqoqliklar kiradi.

Qiyin o‘tuvchan botqoqliklar deb piyodalar o‘tishiga katta qiyinchilik tug‘diruvchi botqoqlikka aytildi. Ular ochiq suvli maydonlardan, torfning yushmoq qismidan, qamishlardan, o‘tlardan tashkil topgan.

O‘tib bo‘lmaydigan botqoqliklar deb chuqur loyli botqoqliklarga va bu botqoqliklarning piyodalar o‘tishi amalda mumkin bo‘lmagan qismiga aytildi. Ularning tarkibiga oqadigan va “qaynaydigan” botqoqliklar, shuningdek yoz davomida ko‘p suv qatlamidan iborat bo‘lgan maydonlar kiradi.

Yo‘llar tarmog‘i

Avtomobil yo‘llari va tuproq yo‘llari. Avtomobil yo‘llari qoplamlari (avtostradalar, takomillashtirilgan shosselar va shosselar) hamda qoplamasiz (yaxshilangan tuproq yo‘llari) bo‘lishi mumkin. Texnikaning harakatlanishiga yo‘l qatnov qismining kengligi, qoplamasining turi, uzunasiga qiyaliklar va burilish radiuslarining kattaliklari, yo‘l inshootlarining mavjudligi, ularning xususiyatlari ancha sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Qoplama turi yo‘lning mustahkamligini va xizmat ko‘rsatish muddatini belgilaydi. Asfalt-beton, yog‘ochli, graviyli, shag‘alli va tosh yo‘llar qoplamaning asosiy turlarini tashkil etadi. Dala va o‘rmon tuproq yo‘llari yilning faqat quruq fasllaridagina avtotransport qatnovi uchun yaroqlidir. Ularda harakatlanish imkoniyati tuproqning xususiyati va namlik darajasiga bog‘liq.

Yo‘llardagi ko‘tarilish va pasayishlar tikligi qiyaliklar deb ataladi.

Avtomobil va tuproq yo'llar	
Yo'l turlari	Tavsifi
Avtostradalar 	To'liq ishlangan zich qoplamaga ega bo'lgan asfalt-betonli yoki sement-betonli, qalinligi 0,5 m gacha bo'lgan yo'llardir. Qoidaga ko'ra, ular har bir yo'nalishda beshta harakatlanish qatoriga ega bo'ladi. Ikkita o'tish qismi, ya'ni 6,5—7,5 dan 15—18 metrgacha, ular orasida ajratuvchi chiziqning eni 2 metrdan 20 metrgacha bo'ladi. Uzunasiga qiyaliklar tekis hududda 4%, tog'li hududlarda 7% ni tashkil etadi.
Takomillashgan shossalr 	Asfalt, sement-beton qoplangan yo'llar. Qoplangan qismining eni 6 m, bu harakatlanishning ikki qatorda bo'lishini ta'minlaydi.
Shosse 	Asosi tosh, qum yoki zich tuproqdan, qoplamasasi esa asfalt, shag'al va boshqa moddalardan tashkil topgan yo'l. Qoplangan qismning eni 5-6 m. Harakatlanish butun yil davomida bo'lishi mumkin.
Yaxhilangan tuproq yo'llar 	Doimo sozlanib boruvchi, qattiq asos va qoplamaga ega bo'limgan yo'l. Yo'llar o'tish qismining tuprog'i har xil aralashmalarni qo'shish orqali yaxhilanishi mumkin.
Tuproq yo'llar 	Qoplamasiz yo'llar. Ko'pincha, kichik mahalliy punktlarni birlashtirib turadi va asosiy yo'llarga chiqishni ta'minlaydi. Ularning o'tuvchanligi tuproq xususiyati, ob-havo va namgarchilikka bog'liq bo'ladi.
Dala va o'rmon yo'llari 	Mahalliy ahamiyatga ega tuproq yo'llar, bu yo'llardan, asosan, dala ishlarida yoki o'rmon daraxtlari qirqilayotgan paytda foydalaniladi.
Karvon yo'llari va so'qmoqlar 	Cho'llar, yarim cho'llar va tog'li hududlarda bo'ladi. Yuk transporti uchun foydalaniladi. Ayrim karvon yo'llari bo'ylab ot-arava transport vositalari ham o'tishi mumkin.

Piyodalar so‘qmoqlari -----	Piyodalar harakatlanishi uchun mo‘ljallangan, o‘tish qiyin bo‘lgan hududda (botqoq, tog‘) joylashgan so‘qmoqlar.
Yog‘och qoplamlari yo‘llar	O‘rmon hududlarida o‘tish qiyin bo‘lgan joylardagi yo‘llar. Yog‘och taxtalardan, daraxtlardan to‘shalgan qoplama.
Temir yo‘llar	
Yo‘llarning turlari	Tasvirlanayotgan ob’ektlarning nomlari
	Temir yo‘llar: bir yo‘lli;
	ikki yo‘lli;
	uch yo‘lli
	Elektrlashtirilgan temir yo‘llar: 1 – bir yo‘lli; 2 – ikki yo‘lli; 3 – uch yo‘lli.
	Bir relsli temir yo‘llar
	Tor izli temir yo‘llar va ulardagi bekatlar
Ko‘priklar	
	Ko‘prik belgisi
	Ko‘tariluvchi va ajraluvchi
	Piyodalar uchun ko‘priklar
	Ikki qavatli ko‘priklar
	Suzuvchi ko‘priklar

Avtostradalar va shosse yo'llarning tasvirlanishi ularning xususiyatlarini tavsiflovchi yozuvlar bilan birga keladi: u o'tish qismining kengligi (avtostradalar uchun bitta yo'l bo'lagining kengligi va bo'laklarning soni), yo'l asosining (shosseli yo'llar uchun) qoplama materiali (a-asfalt, b-toshli, g-graviy, s-sement-beton, shag'al va hokazo).

Temir yo'llar xaritada tasvirlanishda yo'laklarining kengligi bo'yicha – keng chiziqli (1435 mm va O'zbekiston Respublikasida 1524 mm dan ortiq) va tor yo'lli (1435 mm dan kam); yo'llarning soni bo'yicha – bir yo'lli, ikki yo'lli, uch yo'lli; harakatlantirish vositasi bo'yicha – elektrlashtirilgan va boshqa (dizelli yoki bug'li); holati bo'yicha – amaldagi, qurilayotgan va buzib tashlangan temir yo'llarga bo'linadi. Raz'ezd, platforma va to'xtash punktlarining xaritalardagi shartli belgilari yozuvlar bilan birga keladi («RAZ», «PA», «OST», «P»).

Yo'l ishootlari 1:25 000, 1:50 000, 1:100 000 masshtabli xaritalarda 30, 60 va 120 metr uzunlikdagi ko'priklar va osma ko'priklar xarita masshtabiga mos ravishda ifodalanadi hamda qurilish materiallari (yog'och, metall, tosh, temir-beton) va konstruksiyalari (oddiy, ikki qavatli, ko'tariladigan, ajraladigan, suzuvchi) ko'rsatiladi.

Temir va avtomobil yo'llaridagi hamma tunnellar xaritalarda ko'rsatiladi. Ularning belgilari «TUN» yozushi hamda balandlik, kenglik va uzunlik ko'rsatkichlari bilan keladi.

Aholi punktlari, sanoat, qishloq xo'jalik ob'ektlari va ijtimoiy-madaniy ob'ektlar

Aholi ishlab chiqarish faoliyatining xususiyatiga va yashovchilarning soniga bog'liq ravishda aholi punktlari shaharlar, shahar tipidagi qo'rg'onlar, sanoat korxonalari yonidagi qo'rg'onlar, temir yo'l stansiyalari qo'rg'onlari, qishloq va dala hovli turidagi aholi punktlariga bo'linadi.

Shaharlar, unda istiqomat qiluvchi aholi soniga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- **yirik** – aholisi 100 000 dan ortiq;
- **o'rtacha** – aholisi 50 000 dan 100 000 gacha;

- *kichik* – aholisi 50 000 dan kam.

Aholi punktlarining ma'muriy-siyosiy ahamiyati xaritalarda davlatlar poytaxtlarini, ma'muriy markazlar va mahalliy hokimiyat idoralari joylashgan aholi punktlarini ajratib ko'rsatish orqali ifodalanadi.

13-jadval

Aholi punktlaridagi mavzeler			
Asosiy shartli belgining chizilishi	Shartli belgining har xil ko'rinishlari		
	 Zich qurilgan va asosiy qismini yong'inga chidamsiz (yog'och, loy, somon va h. k.) binolar tashkil qiluvchi mavzeler	 Zich qurilgan va asosiy qismini yong'inga chidamli (tosh, g'isht, temir beton va h. k.) binolardan iborat mavzeler	 Vayron bo'lgan va yarim vayron mavzeler

Hududi xarita masshtabida ifodalanadigan zavod, fabrika va elektrostansiyalarning inshootlari shartli belgilar bilan tasvirlanadi hamda ob'ekt turi yoki ishlab chiqarish turi yozib qo'yiladi.

Aholi punktlarida joylashgan zavod va fabrikalarning minora shaklidagi inshootlari, radiotelevizion minoralar, balandligi 50 m va undan ortiq bo'lgan minora ko'rinishidagi inshootlar balandligini metrda ko'rsatgan holda xaritada belgilanadi. Aeroportlar, aerodromlar va qo'nish maydonlarini xaritada tasvirlashda haqiqiy o'lchamlari saqlab qolinadi, ularning chegaralari to'siqlarning shartli belgilari bilan yoki punktir (uzuq chiziqlar) bilan ifodalanadi, kontur (chevara)ning ichiga esa aerodrom qo'nish maydonining shartli belgisi joylashtiriladi. Neft va gaz minoralari, minorasiz quduqlar xaritada ularga mos keladigan shartli belgilar bilan ifodalandi.

Shaxtalar, shtolnyalar (yer osti yo'llari) hamda yer osti temir konlarini xaritada tasvirlashda ularning shartli belgilari yonida inshootning nomi yozib qo'yiladi, masalan «shax» (shaxta), «sht» (shtolnya) yoki «kon» (kon).

Xaritada odatda hamma radiostansiyalar va televizion markazlar, shuningdek meteorologik stansiyalar tasvirlanadi.

Masshtabsiz shartli belgilar bilan xaritada benzokolonkalar, transformator butkalari, o'rmonchilarning uylari, tegirmonlar va boshqa ob'ektlar tasvirlanadi: orientirlik ahamiyatiga ega bo'lgan ob'ektlar ularga mos keladigan yozuvlar bilan birga keladi.

14-jadval

Sanoat, qishloq xo'jalik va ijtimoiy-madaniy ob'ektlar		
Shartli belgilari		Tasvirlanayotgan ob'ektlarning nomlari
1:25 000, 1:50 000	1:100 000, 1:200 000	Zavod, fabrikalarning minora ko'rinishidagi inshootlari (60 – minora ko'rinishidagi inshootlar-ning metrda ifodalangan balandligi)
		Suv tegirmonlari va yog'och arralash korxonalari
		1 – shamol tegirmonlari; 2 – shamol dvigatellari
		Meteorologik stansiya
		Cherkovlar
		Masjidlar

Geodezik punktlar

Xaritada quyidagi geodezik punktlar turli shartli belgilar bilan tasvirlanadi: davlat geodezik tarmoqlari punktlari, hududda markazlar bilan birlashtirilgan suratga olish tarmog‘i nuqtalari, astronomik punktlar va boshqalar.



Shartli belgilarning markaziy nuqtalari geodezik punktlar joylashgan yerini belgilaydi va xaritada maksimal aniqlik bilan beriladi. Geodezik punktlarning shartli belgilari yoniga ular joylashgan balandliklar metrlarda yozib qo‘yiladi.

Chegaralar

Xaritalarda siyosiy-ma’muriy bo‘linishning quyidagi chegaralari ko‘rsatiladi: davlat, avtonom respublika va viloyatlar chegaralari rasmiy hujjatlarga aniq holda tasvirlanadi. Davlat chegaralarini tasvirlashda hamma chegara belgilari qo‘llaniladi. Agarda davlat chegaralari daryolar, kanallar va tor bo‘g‘ozlar orqali o‘tgan bo‘lsa, hududda o‘rnatilgan chegara belgilari daryo (kanal va shu kabilar)ning ikki tomonida ham belgilanadi.

Xaritalarda hamma chegaralar minimal umumlashtirilgan, egilishlar, burilishlar va to‘g‘ri chiziqli chegara maydonlari mukammal holda tasvirlanadi. Agarda chegara ikki chiziq bilan tasvirlanadigan farvator yoki daryo o‘rtasi bo‘ylab o‘tgan bo‘lsa, unda ularning hamma burilishlari va bukilishlari saqlangan holda qirg‘oqlar chiziqlari oralig‘idagi bo‘g‘inlar shartli belgilarning guruhlarida ko‘rsatiladi. Xaritalarda hamma davlat qo‘riqhonalarining chegaralari ko‘rsatiladi.

15-jadval

Chegaralar		
Shartli belgilar		Tasvirlanayotgan ob’ektlarning nomlari
1:25 000, 1:50 000 	1:100 000 	Davlat chegaralari (1 – chegara belgisi; 2 – bukilish joylari)

Xarita ramkasining tashqi qismini rasmiylashtirish

Xarita sahifasi ramkasining tashqi qismiga xarita bilan ishslashda kerak bo‘ladigan turli ma’lumotlar joylashtiriladi.

Xarita sahifasi sarlavhasida sahifada tasvirlangan aholi punktlaridan ancha yirigining nomi yozib qo‘yiladi, agarda ushbu xaritada aholi punkti bo‘lmasa, unda biron-bir muhim yoki yirik ob’ekt (tog‘, dovon, ko‘l va shu kabilar)ning nomi yoziladi. Ramka tepasining chap qismida koordinatalar tizimi va xaritada tasvirlangan hududning siyosiy-ma’muriy mansubligi ko‘rsatiladi. Ramka tepasining o‘ng qismida xaritaning grifi, nomenklaturasi va bosmadan chiqqan vaqt vaqtli ko‘rsatiladi.

Xarita ramkasining pastki chap qismida magnit og‘ishi, meridianlarning yaqinlashishi va yo‘nalishga kiritilgan tuzatishlar haqidagi ma’lumotlar beriladi.

Magnit strelkasining og‘ishi va meridianlarning yaqinlashishi haqidagi izoh matnida og‘ishish nechanchi yil uchun berilayotgani va uning o‘zgarishining yillik kattaligi beriladi.

Magnit strelkasing og‘ishi, og‘ishishning yillik o‘zgarishi va meridianlarning yaqinlashish kattaliklari gradus o‘lchamida va burchak o‘lchagich bo‘lmalarida ko‘rsatiladi. O‘ngda joylashtiriladigan izoh matnida va chizmada direksion burchakdan magnit azimutiga o‘tish uchun tuzatishlar beriladi.

Xarita ramkasining janubiy pastki qismi o‘rtasida uning chiziqli va sonli masshtablari joylashtiriladi, masshtab va relefning kesishish balandliklari kattaligi ko‘rsatiladi, masshtabdan o‘ngroqda qiyaliklar tikligini aniqlash uchun ko‘llaniladigan oraliqlar shkalasi berilgan.

Xarita ramkasi pastki qismining o‘ng tomonida xarita tuzish usuli, suratga olingan vaqt, shuningdek xaritani tuzishda va yangilashda foydalanilgan materiallar haqidagi ma’lumotlar beriladi. Xarita sahifasining tashqi (sharqiy tomoni) qismida turli qo‘sishmcha ma’lumotlar, shuningdek qo‘sishmcha shartli belgilar berilishi mumkin.

Xarita sahifasi ramkasining tashqi va ichki chiziqlari oralig‘ida koordinatalar (kilometrli) setkasining vertikal va gorizontal chiziqlarining raqamlari va ramka

burchaklari geografik koordinatalarining yozuvlari beriladi. Ramkaning tomonlari kenglik va uzoqlik buyicha minutli bo‘lmalarga bo‘lingan. Har bir minutli bo‘lma nuqtalar bilan oltita qismga ajratilgan bo‘lib, bu qismlarning har biri 10 sekundga tengdir. Temir va shosse yo‘llar xaritasi ramkasining tashqariga yo‘nalgan qismida ushbu yo‘l olib boruvchi eng yaqin shahar yoki aholi punktining nomi va bu joylargacha bo‘lgan masofa kilometrlarda belgilab qo‘yiladi.


O'n minglik topografik xarita namunasi (33-rasm)

7. Образец плана города масштаба 1:10000




Yigirma besh minglik topografik xarita namunasi (34-rasm)

1. Образец карты масштаба 1:25 000




Ellik minglik topografik xarita namunasi (35-rasm)

2. Образец карты масштаба 1:50 000




Yuz minglik topografik xarita namunasi (36-rasm)

3. Образец карты масштаба 1:100 000




Ikki yuz minglik topografik xarita namunasi (37-rasm)

4. Образец карты масштаба 1:200 000




Besh yuz minglik topografik xarita namunasi (38-rasm)

5. Образец карты масштаба 1:500000



1:500 000

в 1 сантиметре 5 километров



Сплошные горизонтали проведены через 100 метров


ШКАЛА СТУПЕНЕЙ ВЫСОТ



На листе проведены изобаты 10, 20, 50, 100, 150, 200, 300, 400, 500 и 700 м

Millionlik topografik xarita namunasi (39-rasm)

6. Образец карты масштаба 1:1 000 000



1:1 000 000


в 1 сантиметре 10 километров

км 10 0 10 20 30 40 50 60 70 80 90 100 км

Проекция равнугольная поперечно-цилиндрическая Гаусса

С Е Ч Е Н И Е Р Е Л Ь Е Ф А

ч е р е з 100 м е т р о в ч е р е з 200 м




На листе проведены изобаты: 50, 100, 150, 200, 300, 400, 500, 700, 1000, 1500, 2000, 3000, 4000 м

9-§. Xaritada nishon ko‘rsatish, (inshootlar, nishonlar) joylardagi nuqtalarni koodinatlarini aniqlash.


Komandirlarning ish amaliyoti mobaynida xaritadan maxalliy jismlarni va alohida inshootlarni (nishonlarni) joylashuvini ko‘rsatish yoki aniqlash zarurati tug‘iladi. Masalan, nishon ko‘rsatishda, joyni va dushmanni kuzatuvi natijasi to‘g‘risida boshliqlarga ma’lumot berishda, otish uchun ma’lumotlar tayyorlashda va x.k.z. Bu vazifa ma’lum bo‘lgan nuqtalarga (chiziqlarga) nisbatan nishon joylashuvini, maxalliy jismlarni yoki o‘z turar joyini ko‘rsatilashiga to‘g‘ri keladi; u shuningdek koordinatalar yordamida ham bajarilishi mumkin. Nuqtani biron – bir tepalikda yoki muvozanatda joylashuvini burchakli yoki chiziqli o‘lchovda aniqlanishi *koordinatalar* deb aytildi. Xaritada joydagi nuqtalarni (nishonlarni) joylashuvini aniqlashda ***geografik*** va ***yassi to‘rg‘ri burchakli*** koordinatalardan foydalaniladi. **Geografik – koordinatalar** – yer yuzidagi nuqtani ekvatorga va boshlang‘ich meridianga nisbatan joylashuvini aniqlashda burchaklar o‘lchovini kengligi va uzoqligini tasvirlaydi (40-rasm).

Geografik kenglik – yer yuzasidagi ma’lum nuqtadan yer markazi tomon tushirilgan tik chiziq bilan, ekvator tekisligi orasida hosil bo‘lgan burchak.

Geografik koordinatalar



Kenglik



Uzoqlilik

40-rasm.

Burchak kengligi yer yuzidagi u yoki bu nuqtani ekvatoridan qanchaga shimolda yoki janubda joylashuvini ko‘rsatadi. Agarda nuqta shimliy yarim sharda bo‘lsa – shimoliy, janubiy yarim sharda bo‘lsa janubiy deb aytildi. 40-rasmda ko‘rinib turibdiki, V burchagi M nuqtaning kengligiga to‘g‘ri keladi. Ekvatorda joylashgan nuqtalarni kengligi Odarajaga, qutibda joylashgan-larniki esa 90 darajaga teng.

Geografik uzoqlilik – boshlang‘ich meridiani tekisligi bilan yer sharidagi biror nuqta meridian tekisligi oralig‘idagi burchakdir. Grinvichdagi (London shaxri yaqinida) astronomik observatoriyasidan o‘tadigan meridian boshlang‘ich deb kiritilgan. Boshlang‘ich meridiandan g‘arbda joylashgan nuqtalarning geografik uzoqligi – g‘arbiy uzoqlilik, sharqda joylashganlari esa – sharqiylar uzoqlilik deyiladi. Demak, 40 – rasmda L burchak, M nuqtaning sharqiylar uzoqligi bo‘ladi.

Ma’lumki, topografik xaritalar varaqlarini chegara tomonlari, meridianlar va yondosh chiziqlar (paralellar) bo‘ladi. Xar bir xarita

varaqasining chegara burchaklarida geografik koordinatlari yozilgan bo‘ladi.


Masalan, 300 – rasmda ko‘rsatilgan xarita varaqasida, g‘arbiy chegara tomoni (meridian) uzoqligi – 18 daraja, 07 minut, 30 sekundga; shimoliy tomoni (yondosh chiziq, paralell) kengligi – 54 daraja, 45minutga; janubiy esa – 54 daraja, 40 minutga ega. Xaritada joydagi nuqtalarni geografik koordinatasini aniqlash uchun, uning xar bir vapaqasiga qo‘sishimcha xar bir bo‘lagi oq va qora rangda, orasi bir minutdan bo‘lgan chegara kiritilgan. Xar bir minut oralig‘i, 10 sekunddan bo‘lgan oltita teng nuqta kesimlaridan iborat. Masalan, A nuqtani geografik nuqtasini aniqlash uchun avvalombor ko‘z chamalab kenglik va uzoqlik bo‘yicha minutlar va sekundlar bo‘lagiga nisbatan uning joylashuvini aniqlash kerak.

Keyin, yondosh chiziqlar (paralellar, xarita chegarasini g‘arbiy va sharqiy tomoni) va meridianlar (xarita chegarasini shimoliy va janubiy tomoni) bo‘yicha A nuqtasiga yaqin bo‘lgan bir hil bo‘lgan to‘g‘ri chiziq bilan tutashtiriladi.

Bunda A nuqtasidan o‘tkazilgan yondosh chiziq – janubroqda, meridian esa – g‘arbroqda o‘tishi kerak. Yuqoridagi rasmda yondosh chiziq (paralell) 54 daraja, 40minut, 30 sekund kengligida, meridian esa – 18 daraja, 01 minut, 10 sekund uzoqligida o‘tkazilgan. Undan keyin yondosh chiziqdan va meridiandan A nuqtasigacha bo‘lgan masofa, yahni a1 A va a2 A bo‘laklari kenglik va uzoqlik bo‘yicha qaysi o‘n sekundlik bo‘laklar qismiga to‘g‘ri kelishi aniqlanadi. Sekundlarda aniqlangan bo‘laklar qiymatini yondosh va meridian chiziqlar koordinatasi qiymatiga qo‘sib, natijada A nuqtaning geografik

koordinatasini olamiz. Bizning misolda a1A bo‘lagi – 8 sekundga, a2A bo‘lagi esa – 5 sekundga teng.

Demak, A nuqtaning kengligi – 54 daraja, 40 minut-u, 38 sekundga, uzoqligi – 18 darajayu, 01 minut, 15 sekundga teng. Nuqtani berilgan geografik koordinatlar bo‘yicha xaritaga kiritish uchun, masalan, S nuqtani kengligi – 54 daraja, 41minut, 12 sekund va uzoqligi – 18 daraja, 00 minut-u, 30 sekund bo‘lsa, quyidagicha ish yuritiladi; (41-rasmga qarang) Kengligi 54 daraja, 40 minut bo‘lgan yondosh chiziqdan (xarita varaqasini janubiy chegarasidan) yon tomonlarda joylashgan minutlar chegarasida janubdan – shimolga 1 minut, 12 sekund o‘lchanib, olingan nuqtalardan to‘g‘ri chiziq o‘tkaziladi. (kengligi 54 daraja, 41 minut, 12 sekund bo‘lgan yondosh chiziq) Undan so‘ng, uzoqligi 18 daraja, 00minut bo‘lgan meridiandan (xarita varaqasini g‘arbiy chegarasidan) shimoliy va janubiy tomonlardagi minutlar chegarasida sharq tomonga 30 sekund o‘lchanib, olingan nuqtalardan boshqa to‘g‘ri chiziq o‘tkaziladi. (uzoqligi 18 daraja, 00minut, 30 sekund bo‘lgan meridian) Koordinatalari berilgan nuqta, o‘tkazilgan chiziqlar kesishmasida joylashgan bo‘ladi.



41-rasm.

Yassi to'g'ri burchakli koodinatlar.

Geometriyadan ma'lumki, to'g'ri burchakli koordinata tizimida nuqtalarning bir – biriga nisbatan o'rni, o'zaro tik tushirilgan qarama - qarshi (perpendikulyar) ikki chiziqqa nisbatan aniqlanadi. O'zaro kesishgan tik chiziqlar nuqtasi koordinata o'qlari deyiladi, ulardan **koordinata boshi** deb foydalaniladi.

Yassi to'g'ri burchakli koordinatlar, nuqtalarning tekislikdagi joylashuvini, belgilangan koordinatlar boshiga nisbatan chiziqli o'lcham yordamida aniqlanishini bildiradi. Tik o'q (vertikalnaya os) – X (iks) o'qi, yotig'i esa – Y (igrik) o'qi deb aytiladi. Nuqtalarni joylashuvini koordinata o'qlarining O a va O b bo'laklari yoki nuqtadan tegishli koordinata o'qlarigacha (X_m va Y_m) bo'lgan bo'laklardan aniqlanadi.


Bizning misolda Xm o‘lchami - to‘rt bo‘lakka, Ym o‘lchami esa – olti bo‘lakka teng. Demak, N nuqtani to‘g‘ri burchak koordinatalari X=4, Y=6 bo‘ladi. OY (Y o‘qi) chizig‘idan yuqorida X o‘lchami sifati musbat (+), ostda esa manfiy (-) hisoblanadi. OX (X o‘qi) chizig‘idan o‘ngda (sharqda) Y o‘lchami sifati musbat (+), undan chapda (g‘arbda) manfiy (-) hisoblanadi. Topografiyada, yassi to‘g‘ri burchakli koordinatalarni qo‘llashda bahzi bir xususiyatlari, chunonchi Yerning sharga o‘xhash tuzulishi sababli, uning tekislikdagi tasviri noto‘g‘ri ko‘rsatiladi. Shuning uchun uni shartli ravishda meridianlar bilan chegaralangan uzoqligi 6 darajali teng qismlarga bo‘lingan va ular *koordinatalar zonaalari* deyiladi. Koordinata zonalarining tartib raqamlari 1dan 60gacha Grinvich (boshlang‘ich) meridianidan sharqqa qarab o‘sib boradi.

Xar bir zonani koordinatalar tik o‘qi (X o‘qi) deb o‘qli meridian (osevoy) qabul qilingan. Ekvator chizig‘i xar bir zonalarning yotiq o‘qi (Y) hisoblanadi. Ekvator bilan xar bir zonalarni meridian o‘qi kesishmasi *koordinatalar boshi* deb qabul qilingan. Shimoliy yarim sharda joylashgan xududlar uchun xamma X koordinatalar sifati musbat (+) bo‘ladi. Zonaning meridian o‘qiga nisbatan, nuqtani (xarita varaqasini) joylashuviga qarab Y koordinatasini sifati xar bir yarim sharda musbat va manfiy bo‘lishi mumkin.

Topografik xaritalar bilan ishslashda sonlar ko‘rsatkichi manfiy bo‘lmasligi uchun, xar bir zonadagi nuqtani koordinata boshlang‘ich qiymati 500 km ga teng deb qabul qilingan. Zonaning ekvator bo‘yicha umumiy uzunligi 700 km ga teng. Shuning uchun nuqtani, zonani o‘rtancha o‘qli meridianiga nisbatan xar qanday joylashuvida Y koordinatasini ko‘rsatgichi musbat bo‘ladi. Shunday qilib, 0 nuqta

(koordinata boshi) $X = 0$, $Y = 500$ km koordinatasiga ega. Bu xolatda xar qanday nuqtaning Y koordinatasi zonaning o‘qli meridianidan g‘arbda joylashgan bo‘lsa, uning qiymati musbat bo‘lib, mutloq qiymati doimo 500 km dan kichik bo‘ladi, agar sharqda joylashgan bo‘lsa, uning qiymati doimo 500 km dan ortiq bo‘ladi (42-rasm).

Nuqtani joylashuvini zonada ko‘rsatish uchun, uning koordinatalarini aniqlashda Y koordinatasida birinchi sonlar bilan zona raqamini yozish kiritilgan, undan keyingi oltitalik son , Y koordinatasini uzoqligini metrda ko‘rsatadi.



42-rasm.

Masalan; (rasmga qarang) agar 12 – zonada joylashgan M nuqta o‘qli meridiandan sharqda (o‘ngda) 80.300 metr uzoqlikda (aM bo‘lagi) joylashgan bo‘lsa, uning Y koordinatasi 12.580.300 ko‘rsatkichiga ega, bunda 12 soni zona raqamini, 80 300 o‘lchamiga qo‘shilgan 500 km esa – o‘qli meridianining Y natijasini bildiradi. M nuqtani X koordinatasi bM bo‘lak o‘lchamiga teng. Agarda, M nuqta $0Y$ o‘qidan 3260 km 700m uzoqlikda bo‘lsa, uning X koordinatasi 3.260.700 ko‘rsatgichiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Normativ huquqiy xujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni. – T., 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlari. – T., 2004.
4. O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklari, O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining qo‘shma qarori. – T., 2013.

Maxsus adabiyotlar

1. Yosh askarlar uchun boshlang‘ich harbiy umumqo‘sishin tayyorgarlik bo‘yicha qo‘llanma. – T., 2004.
2. *Yuldashev U.Sh.*, Harbiy topografiya: topografik haritalar, shartli belgilar va ularning mazmuni. O‘quv qo‘llanma. – T., 2015. – 84 b.
3. *Tangirberdiev S.K., Zakirov R.S., Shermatov A.F.* Harbiy topografiya: O‘quv qo‘llanma. – T., 2005. – 234 b.
4. *Бызов Б.Е.* Военная топография. – М.: Воениздат, 1986. – 383 б.
5. Справочник по военной топографии / А.М.Говорухин, А.М.Куприн, А.Н. Коваленко. – М., 1980. 24-39 стр.
6. *Псарёв А.А., Коваленко А.Н.* Топографическая подготовка подразделений. Пособие для командиров подразделений.– М., 1984.– 287 стр.
7. “Harbiy xizmat tayyorgarligi” fanidan ishchi o‘quv dasturi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 52 b.
8. *Tangirberdiev S.K., Djurabaev R.T, Xudayberganov O.K.* Saf tayyorgarligi metodikasi: O‘quv qo‘llanma. – T., 2012.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I-BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI JANGOVAR TAYYORGARLIGINING ASOSI

1-§. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari” fanining vazifasi.....	5
2-§. “Saf tayyorgarligi” fanining vazifasi.....	6
3-§. “Harbiy topografiya” fanining vazifasi.....	6
4-§. Ta’lim shakllari.....	7
5-§. Ta’lim prinsiplari.....	8
6-§. Ta’lim metodlari.....	11

II.BOB.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI UMUMHARBIY NIZOMLARI TALABLARI

1-§. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat Nizomi.....	13
2 -§. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining intizom Nizomi.....	52
3-§. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi.....	70

III-BOB. SAF TAYYORGARLIGI

1-§. Saf va uning boshqarilishi.....	92
2-§. Qurolsiz bajariladigan saf amallari va harakatlari.....	98
3-§. Qurolsiz joyda turib va yurish davomida harbiycha salom berish.....	104
4-§. Safdan chiqish va safga qaytish.....	106
5-§. Guruh safi.....	108
6-§. Saf ko‘rigi.....	123
7-§. Harbiy qism jangovar bayrog‘ining safdagi holati, uni olib chiqish va eltib qo‘yish tartibi.....	128

IV.BOB. HARBİY TOPOGRAFIYA

1-§. Topografik xaritalarni o‘qish.....	135
2-§. Hudud – jangovar vaziyatning elementi.....	136
3-§. Hududlarning taktik turlari.....	138
4-§. Turli ko‘rinishdagi hududlar va ularning taktik xususiyatlari.....	140
5-§. Hududda xaritasiz orientir olish va azimut bo‘yicha harakatlanish.....	147
6-§. Gorizont tomonlari yo‘nalishlarini aniqlash.....	153
7-§. Topografik xaritalarning belgilanishi va klassifikatsiyasi.....	162
8-§. Topografik xaritalarning asosiy elementlari.....	172
9-§. Xaritada nishon ko‘rsatish. (inshootlar, nishonlar) joylardagi nuqtalarni koodinatlarini aniqlash.....	201
Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati.....	209

A.T.ALIJONOV, R.T.DJURABAYEV, J.Z.DJUMABOYEV,
B.B.UMURZOQOV, N.Z.TASIMOV, X.N.MUSLIMOV, L.Z.KOMILOV,
B.A.ULUGBEKOV, F.F.XATAMOV, L.R.ISAYEV, X.A.TURABBAYEV,
X.M.AKRAMBAYEV, Q.Z.DJUMABOYEV, N.M.XOJIYEV

JANGOVAR TAYYORGARLIK

DARSLIK

Muharrir: B.N. Normurodov

Bosishga ruxsat etildi 06.12.2024 y. Nashriyot-hisob tabog‘i 12,3.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma №_____. Bahosi shartnomaga asosida

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti,
100213. Toshkent shahar. Husayn Boyqaro ko‘chasi, 27A-uy